

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.01.2021.I.16.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDAGI BIR
MARTALIK ILMIY KENGASH

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

Qo'lyozma huquqida
UDK: UO'K: 336.02:339.74(575.1)

XUDAYBERGENOVA NIGORA TURGUNBAEVNA

IQTISODIY FAOLIKNI TA'MINLASHDA DAVLAT FISKAL VA
MONETAR SIYOSATINING O'RNI

08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan

D I S S E R T A T S I Y A

Ilmiy rahbar: i.f.d., prof.F.Nazarova

Toshkent-2025

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
I BOB. IQTISODIY FAOLIKNI TA'MINLASHGA QARA-TILGAN DAVLAT FISKAL VA MONETAR SIYOSATLARINING NAZARIY JIHATLARI.....	12
1.1-§ Iqtisodiy faollikni ta'minlashda davlat fiskal siyosatining iqtisodiy nazariy konsepsiyalari.....	12
1.2-§ Monetar siyosatni amalga oshirishning zamonaviy instrumentlari va ulardan foydalanish yo'nalishlari.....	25
1.3-§ Iqtisodiy faollikni ta'minlashda davlat fiskal va monetar siyosatning xorij amaliy tajribasi.....	36
I bob bo'yicha xulosa.....	45
II BOB. O'ZBEKISTONDA IQTISODIY FAOLLIKNI TA'MINLASHGA QARATILGAN FISKAL VA MONETAR SIYOSATLARINING HOZIRGI HOLATI.....	47
2.1-§ Iqtisodiy faollikni oshirishga qaratilgan davlat fiskal siyosati holati taxlili.....	47
2.2-§ O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining monetar siyosati va uning iqtisodiy faollikka ta'siri.....	57
2.3-§ Soliqlarning korxonalar iqtisodiy faolligini ta'minlash holati taxlili.....	65
II bob bo'yicha xulosa.....	77
III BOB. IQTISODIY FAOLLIKKA ERISHISHNING DAVLAT FISKAL VA MONETAR SIYOSATLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI.....	78
3.1-§ Milliy iqtisodiyotda iqtisodiy faollikni ta'minlashda davlat fiskal siyosatini takomillashtirish yo'nalishlari.....	78
3.2-§ O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki monetar siyosatining iqtisodiy faollikni oshirishdagi rolini takomillashtirish.....	90
3.3-§ Ishbilarmonlik muhitini yaratishda davlat fiskal va monetar siyosati samaradorligini oshirish yo'llari.....	99
III bob bo'yicha xulosa.....	113
XULOSALAR.....	115
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	117

KIRISH

Dissertasiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyo iqtisodiyoti AQShdagi barqaror o'sish, yirik bozorlarga ega qator rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotining o'sishi va Xitoy iqtisodiyotining budget tomonidan qo'llab quvvatlanishi tufayli 2024 yilda 3,1 foizga, 2025 yilda esa 3,2 foizga o'sishi bashorat qilinmoqda. Biroq, 2024-2025 yillardagi jahon iqtisodiyotining bunday prognoz o'sish sur'ati Markaziy bank tomonidan olib borilayotgan monetar siyosatning inflyatsiyaga qarshi foiz stavkalarini oshirish, davlat fiskal siyosat orqali iqtisodiy faollikni ta'minlashga qaratilgan qo'llab quvvatlashning moliyaviy ko'makni to'xtatilishi va yalpi unumdorlikning past o'sishi tufayli 2000-2019 yillardagi 3,8 foizli darajadan past ko'rsatkichga ega bo'layotganligini ko'rsatmoqda¹. 2020 yilda dunyo iqtisodiyotiga global pandemiya qoldirgan og'ir asorat tufayli davlat fiskal siyosati va monetar siyosatlarining iqtisodiy faollikni oshirishga qaratilgan amaliyoti, mamlakatlarda kreditlash amaliyotining uzoq davom etishi va yuqori qiymatda qarz olish, uni moliyalashtirish hamda iqlim o'zgarishlariga qarshi kurashish uchun qo'shimcha investitsiyalarga bo'lgan muhtojlik jahon iqtisodiyoti uchun kelgusida kutilmagan iqtisodiy zarbalarni berishi prognoz qilinmoqda². Shu sababdan, jahonning aksariyat mamlakatlarida yangicha yondashilgan iqtisodiy faollikni ta'minlashga qaratilgan davlat fiskal va monetar siyosatlarini takomillashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Jahon amaliyotda nufuzli moliya muassasalari hisoblangan Jahon banki, Xalqaro Valyuta Fondi, BMTning Taraqqiyot dasturlari kabi xalqaro tashkilotlar tomonidan mamlakatlarning makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash borasida olib borilayotgan davlat iqtisodiy siyosatlaridan bo'lgan fiskal va monetar siyosatlari bo'yicha uslubiy tavsiyalarni takomillashtirishga yo'naltirilgan ilmiy ishlarga alohida e'tibor qaratilmoqda. Mazkur tadqiqotlar nufuzli ilmiy-tadqiqot markazlari

¹ <https://www.imf.org/ru/Publications/WEO/Issues/2024/01/30/world-economic-outlook-update-january-2024>. Замедление инфляции и устойчивый рост открывают путь к «мягкой посадке».

² https://www.un.org/development/desa/dpad/wp-content/uploads/sites/45/WESP2024_CIS_RU.pdf. Экономический прогноз ООН: в 2024 году в экономиках стран СНГ и Грузии будет наблюдаться более медленные темпы роста, поскольку регион сталкивается с многочисленными рисками.

tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lib, xalqaro standartlarda belgilangan talablar asosida istiqbolda iqtisodiy faollikni ta‘minlashga qaratilgan davlat fiskal va monetar siyosatlarini mexanizmlarini takomillashtirish imkonini bergan. Lekin, istiqbolda makroiqtisodiy barqarorlikni ta‘minlash va iqtisodiy faollikka qaratilgan davlat fiskal va monetar siyosatlarini takomillashtirishning nazariy jihatlari, davlat fiskal va monetar siyosatini tahlil qilish va baholash uslubiyoti hamda ularning iqtisodiy dastaklari orqali iqtisodiy faollikni oshirish bilan bog‘liq muammolar hali hanuz o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan hamda yechimini kutayotgan masalalar sirasiga kirmoqda.

Yuqorida ko‘rsatilgan holatlar davlat fiskal va monetar siyosatlarini samaradorligini oshirish orqali nafaqat moliya sohasidagi balkim davlatning milliy iqtisodiyotda iqtisodiy o‘sish, investitsion faolligini ta‘minlash bo‘yicha istiqbolli dasturini belgilash borasidagi dolzarb muammolardan biri bo‘lib hisoblanadi. Tanlangan mavzuning dolzarbligi yuqorida qayd etilgan muammolar yechimini topish zarurligi bilan tavsiflanadi.

O‘zbekiston Respublikasining 2021 yil 29 dekabrda O‘RQ-741-son “O‘zbekiston Respublikasining soliq kodeksiga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahakamasining 2020 yil 24 avgustdagi 506-son “2020-2024 yillarda O‘zbekiston Respublikasi Davlat moliyasini boshqarish tizimini takomillashtirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi, O‘zbekiston Respublikasining 2021 yil 30 dekabrda O‘RQ-742-son “2022 yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 21 fevralda PF-37-sonli “O‘zbekiston – 2030” strategiyasini “Yoshlar va biznesni qo‘llab quvvatlash yili”da amalga oshirishga oid Davlat dasturi to‘g‘risida, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 sentabrda PF-158-sonli “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida, 2022 yil 28 yanvarda PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, 2022 yil 30 dekabrda PF-287-son “Respublika hududlarini toifalarga ajratish va tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlashning tabaqalashtirilgan tizimini joriy etish chora-

tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 dekabrda PQ-459-son “O‘zbekiston Respublikasining 2023-2025 yillarga mo‘ljallangan investitsiya dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari, shuningdek, mazkur sohaga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlani-shining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma’naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Tadqiqot mavzusining o‘rganilganlik darajasi. Iqtisodiy faollikni ta’minlashga qaratilgan va davlat tomonidan tartibga soluvchi makroiqtisodiy siyosat tarkibiy qismi sifatida davlat fiskal va monetar siyosatlarining nazariy metodologik masalalari bir qator xorijlik taniqli iqtisodchi olimlar, jumladan, J.Keyns, M.Fridmen, F.Maxlup, M.Pebro, G.Kassel, R.Mandell, M.Mussa, M.Obstfeld, J.Frankel, Dj.Taylor, R.Dornbush, Levi-Yeati, K.Reynxart, K.Rogoff, R.Makinnon, G.Shnabl, M.Goldshteyn, L.Krasavina, S.Moisevlarining ilmiy ishlarida o‘z ifodasini topgan³. O‘zbekistonlik iqtisodchi olimlardan N.Jumaev,

³ Кейнс Дж.М. Общая теория занятости, процента и денег. – М.: ГЕЛИОС АРВ, 1999. – 352 с.; Friedman M. «The Case for Flexible Exchange Rates» in Essays in Positive Economics. – Chicago, University Press, 1953.; Machlup F. International payments, debts, and gold. – London: George Allen & Unwin, 1966. Part one. Foreign exchange and balance of payments. 1. The theory of foreign exchange, pp.7-50.; Пейбро М. Международные экономические, валютные и финансовые отношения: Пер. с франц./ Общ. Ред. Н.С.Бабинцевой. – М.: Прогресс, Универс, 1994. – 496 с.; Кассель Г. Инфляция и валютный курс. – М.: Эльф-пресс, 1995, с.23.; Mundell R. Optimal currency areas// American economic review 53(September), 1963. – pp.717-725.; Mussa M. Nominal Exchange Rate Regimes and the Behavior of Real Exchange Rates// Carnegie-Rochester Conference Series on Public Policy 25, 1986. – pp. 117-214.; Obstfeld M. Models of Currency Crises with Self-fulfilling Features,»European Economic Review 40 (April), 1996. – 1037 p.; Jeffrey A. Frankel. No Single Currency Regime is Right for All Countries or At All Times. NBER Working Paper No. 7338. Issued in September 1999; Taylor J.B. The Role of the Exchange Rate in Monetary Policy Rules // American Economic Review, 2001. 91(2):263-267.; Dornbusch R. Expectations and exchange rate dynamics. Journal of Political Economy, 1976. # 84, 1161–1176.; Levy- Yeyati, Eduardo and Federico Sturzenegger «To Float or to Fix» American Economic Review 93(4), 2003. – pp.1173- 1193.; Reinhart C.M., Rogoff K.S. The Modern History of Exchange Rate Arrangements //Quarterly Journal of Economics CXIX-1, 2004. – pp.1-48; McKinnon R., Schnabl G. The East Asian Dollar Standard, Fear of Floating, and Original Sin Review of Development Economics, 2004. 8(3), 331–360; Goldstein, M. Managed

T.Bobakulov, T.Rasulov, B.Islamov, Z.Berdinazarov, S.Chepel, N.Sirajiddinov, Sh.Rajabbaev va boshqalarning ilmiy tadqiqotlarida pul kredit siyosatining ayrim nazariy-metodologik va amaliy jihatlarini tadqiq qilingan⁴.

Yuqorida ko'rsatilgan xorij va mamlakatimiz adabiyotlarida davlat fiskal va monetar siyosatlarining iqtisodiy faollikni ta'minlashda moliyaviy salohiyatning ayrim qirralari, ahamiyati, xususiyatlari, turlari va boshqa jihatlariga ko'proq e'tibor qaratilgan. Lekin, xanuz davom etayotgan "Global inqiroz" davrida iqtisodiy faollikning pasayishi mazkur sohada chuqur ilmiy ishlarni amalga oshirishni taqozo etmoqda.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Mazkur dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq bajarilgan.

Tadqiqot ishining maqsadi iqtisodiyotda iqtisodiy faollikni oshirishga qaratilgan davlat fiskal va monetar siyosatlarining o'rni hamda ularni favqulotda kutilayotgan inqirozli holatlarda oqilona yuritish bo'yicha ilmiy taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

- iqtisodiy faollikni ta'minlashda davlat fiskal siyosatining iqtisodiy nazariy konsepsiyalarini asoslab berish;
- monetar siyosatni amalga oshirishning zamonaviy instrumentlari va ulardan

Floating Plus. Washington DC: Institute for International Economics, Policy Analyses in International Economics. 2002; Международные валютно-кредитные и финансовые отношения. Под. ред. Красавина Л.Н. – М.: Финансы и статистика, 2001. – 608 с.; Моисеев С.Р. Международные валютно-кредитные отношения. – М.: Дело и Сервис, 2003. – 576 с

⁴ Jumaev N.X. O'zbekistonda valyuta munosabatlarini tartibga solish metodologiyasini takomillashtirish. – T.: «Fan va texnologiya», 2007 y. – 232 b.; Bobakulov T.I. Milliy valyuta barqarorligini ta'minlash: muammo va yechimlar. – T.: «Fan va texnologiya», 2007 y. – 184 b.; Rasulov T.S. Valyuta munosabatlarining nazariy asoslari. – T.: «Moliya», 2007 y. – 316 b.; Islamov B., Parpiev Z.»Challenges of Globalization and Exchange Rate Policies in Central Asian Independent States,» in Hitotsubashi Journal of Economics. 2000. -Vol. 41# 1, June, pp. 27-52.; Berdinazarov Z.U. Valyuta siyosati metodologiyasini takomillashtirishning nazariy va amaliy asoslari. Monografiya. – T.: «Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi», 2018. – 254 b.; Чепель С.В. Либерализация валютного рынка в Узбекистане и перспективы укрепления потенциала экономического развития. URL: <http://www.uzbearingpoint.com/files/2/a13.pdf>; Sirajiddinov N. "Currency regime of Uzbekistan: goals, consequences, ways to improve," International Relations: Politics, Economics, Law: Vol. 2017: Iss. 1, Article 8. Available at: <https://uzjournals.edu.uz/intrel/vol2017/iss1/8>; Ражаббаев Ш.Р. и др. Риски и вызовы криптовалют для монетарной политики//Экономика и современный менеджмент: теория и практика, 2015. 15 с.

foydalanish yo‘nalishlarini aniqlash;

- iqtisodiy faollikni ta‘minlashda davlat fiskal va monetar siyosatning xorij amaliy tajribasini o‘rganish;

- iqtisodiy faollikni oshirishga qaratilgan davlat fiskal siyosati holati taxlilini amalga oshirish;

- O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining monetar siyosati va uning iqtisodiy faollikka ta‘sirini ko‘rsatib berish;

- soliqlarning korxonalar iqtisodiy faolligini ta‘minlash holati taxlilini amalga oshirish;

- milliy iqtisodiyotda iqtisodiy faollikni ta‘minlashda davlat fiskal siyosatini takomillashtirish yo‘nalishlarini aniqlash;

- O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki monetar siyosatining iqtisodiy faollikni oshirishdagi rolini takomillashtirish yo‘nalishlarini ko‘rsatib berish;

- ishbilarmonlik muhitini yaratishda davlat fiskal va monetar siyosati samaradorligini oshirish yo‘llari bo‘yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning ob‘ekti sifatida O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjeti, Markaziy banki va tijorat banklari faoliyati olingan.

Tadqiqotning predmeti O‘zbekiston Respublikasi milliy iqtisodiyotini tartibga solish va iqtisodiy faolligini oshirishda davlat fiskal va monetar siyosatining ahamiyatini asoslash jarayonidagi iqtisodiy munosabatlar va uning samaradorligiga ta‘sir etuvchi ijtimoiy-iqtisodiy omillar darajasi hamda buning amaldagi iqtisodiy rivojlanish holatlari hisoblanadi.

Tadqiqot usullari. Mazkur dissertasiya tadqiqoti davomida ilmiy sharhlash, nazariy ma‘lumotlarni umumlashtirish va abstraksiyalash, statistik ma‘lumotlarga dasturiy ta‘minot orqali ishlov berish, kuzatish, tizimlashtirish, kuzatish, Sas tizimi, taqqoslash, induksiya va deduksiya kabi usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat

iqtisodiyotda pul massasi hajmini oshirish orqali Markaziy banklarning kreditlash imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida qayta moliyalash (asosiy)

stavkani bosqichma-bosqich optimallashtirib borish taklif etilgan.

Markaziy bank tomonidan olib borilayotgan pul-kredit siyosatiga jamiyatning ishonchini mustahkamlash maqsadida, aholi va biznes vakillarining inflyatsion kutilmalarini alohida yondashuvi asosida tahlil etib undan samarali foydalanish taklif etilgan.

yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq stavkasini amaldagi 2 foizdan 1,5 foizga kamaytirish hamda yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan tizimini ya'ni pasaytirilgan soliq stavkasini 0,4 foizdan 0,5 foizga o'zgartirish to'g'risidagi taklif etilgan.

mahalliy budjetlar daromadlari barqarorligini ta'minlash maqsadida qurilish materiallari bo'yicha yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqlardan tushumlarni tumanlar va shaharlar budjetlariga to'liq hajmda o'tkazish to'g'risida taklif etilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi unda qo'llanilgan yondashuv va usullarning maqsadga muvofiqligi, monografik tahlil va statistik ma'lumotlar bazasining rasmiy manbalardan olinganligi, samarador zamonaviy ekonometrik usullardan foydalanilganligi, empirik natijalarning maqsadga muvofiq tahlil etilganligi hamda tegishli xulosa, takliflarning mutasaddi tashkilotlar tomonidan amaliyotga joriy qilingani bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati dissertatsiya ishida olingan xulosalar, ishlab chiqilgan ilmiy taklif va tavsiyalardan davlat fiskal va monetar siyosatining o'rnini fundamental va amaliy jihatlarini o'rganish hamda rivojlantirishga bag'ishlangan maxsus ilmiy tadqiqot ishlarida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati esa dissertatsiya ishining asosiy g'oya va materiallaridan davlat fiskal va monetar siyosatlarining iqtisodiy faollikni ta'minlashdagi moliyaviy mexanizmlarini mustahkamlashga qaratilgan hukumat chora-tadbirlari tizimini kuchaytirishga qaratilgan dasturlarni, shuningdek, me'yoriy-huquqiy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqishda manbaa sifatida foydalanishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Iqtisodiy faollikni ta'minlashda

davlat fiskal va monetar siyosatini o'rni borasidagi tadqiqotlardan olingan ilmiy natijalar asosida:

iqtisodiyotda pul massasi hajmini oshirish orqali Markaziy banklarining kreditlash imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida qayta moliyalash (asosiy) stavkani bosqichma-bosqich optimallashtirib borish taklifi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 12 maydagi "2020-2025 yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida" PF-5992-sonli Farmonini ishlab chiqishda foydalanilgan; (O'zbekiston Respublikasi Milliy bankining 2023 yil 19 oktabrdagi 03/41-24/293-son ma'lumotnomasi). Natijada ushbu taklifning amalga oshirilishi orqali Markaziy banklarining kreditlash imkoniyatlari kengayishiga hamda milliy iqtisodiyotda iqtisodiy faollikning oshishiga olib kelgan. Asosiy stavka 2022 yil 22 iyuldan 2023 yil 16 martgacha 15 foizni tashkil etgan bo'lsa, ko'rilgan tashkiliy mexanizmlar samarasi o'laroq 2023 yil 17 martdan boshlab 14 foizga tushirilgan. Iqtisodiyotdagi pul massasi oshishining asosiy qismi kredit kanali hissasiga to'g'ri kelganligi bois, uning o'zgarishi ichki bozordagi narxlar darajasiga o'zining salmoqli ta'sir ko'rsatgan.

Markaziy bank tomonidan olib borilayotgan pul-kredit siyosatiga jamiyatning ishonchini mustahkamlash maqsadida, aholi va biznes vakillarining inflyatsion kutilmalarini a'lohida yondashuvi asosida tahlil etib undan samarali foydalanish taklifi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 18 noyabrdagi "Inflyatsion targetlash rejimiga bosqichma-bosqich o'tish orqali pul-kredit siyosatini takomillashtirish to'g'risida"gi PF-5877-sonli Farmonida hisobga olingan. (O'zbekiston Respublikasi Milliy bankining 2023 yil 19 oktabrdagi 03/41-24/293-son ma'lumotnomasi). Natijada inflyatsiyaning targetlash rejimiga o'tish osonlashgan. Markaziy bankning inflyatsion kutilmalar orqali kelajakda uni yumshatish choralarini ko'rish uchun muhim manba bo'lib xizmat qilgan. Iqtisodiyotdagi pul massasi oshishining asosiy qismi kredit kanali hissasiga to'g'ri kelganligi bois, uning o'zgarishi ichki bozordagi narxlar darajasiga o'zining salmoqli ta'sirini ko'rsatgan.

yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq stavkasini amaldagi 2 foizdan 1,5 foizga kamaytirish hamda yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan tizimini ya'ni pasaytirilgan soliq stavkasini 0,4 foizdan 0,5 foizga o'zgartirish to'g'risidagi taklifi O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 29 dekabrda "O'zbekiston Respublikasining soliq kodeksiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi O'RQ-741-son qonunida o'z aksini topgan. (O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi 2024 yil 04 iyundagi 06/41-11774-son ma'lumotnomasi). Natijada milliy iqtisodiyotda faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar iqtisodiy faolligiga ta'sir ko'rsatib, 2022 yilda soliq to'lovchilar ixtiyorida 43,6 mlrd.so'm qoldirilishiga erishilgan. Mazkur daromad ularning qo'shimcha ishlar samaradorligini oshishiga hamda ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish faoliyatining modernizatsiyalashuviga olib kelgan.

mahalliy budjetlar daromadlari barqarorligini ta'minlash maqsadida qurilish materiallari bo'yicha yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqdan tushumlarni tumanlar va shaharlar budjetlariga to'liq hajmda o'tkazish to'g'risidagi taklifi O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 30 dekabrda "2022 yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to'g'risida"gi O'RQ-742-sonli qonunini ishlab chiqishda foydalanilgan. (O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi 2024 yil 04 iyundagi 06/41-11774-son ma'lumotnomasi). Ushbu taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida respublika tumanlari va shaharlari mahalliy budjetlariga 2022 yilda 234,6 mlrd.so'm mablag'lar qoldirildi. Shuningdek, buning natijasida mahalliy budjetlar daromadlarining barqarorligini ta'minlanishiga olib kelgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Ushbu tadqiqot natijalari 2 ta respublika va 3 ta xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 8 ta ilmiy ish, jumladan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalarni asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta ilmiy maqola, jumladan 2 tasi xorijiy jurnalda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan tarkib topgan. Dissertatsiya hajmi 126 betni tashkil etadi.

I BOB. IQTISODIY FAOLIKNI TA'MINLASHGA QARATILGAN DAVLAT FISKAL VA MONETAR SIYOSATLARINING NAZARIY JIHATLARI

1.1-§ Iqtisodiy faollikni ta'minlashda davlat fiskal siyosatining iqtisodiy nazariy konsepsiyalari

Fiskal siyosatning iqtisodiy mazmuniga doir turli xil qarashlarni tahlil qilish, aniq iqtisodiy-ijtimoiy tizimlar sharoitidagi va amal qilish xususiyatlarini hamda davlatning iqtisodiyotga samarali ta'sir qilish dastaklaridan ekanligini asoslash va milliy iqtisodiyotning muvozanatligini ta'minlashdagi ustuvor yo'nalishlarini aniq iqtisodiy tamoyillarini belgilash zarurdir. Chunki, davlat paydo bo'lishi bilan fiskal siyosat jamiyatdagi turli xil iqtisodiy munosabatlarni tartibga solishning zaruriy tarkibiy qismlaridan va jamiyat rivojlanishi ob'ektiv ravishda taqozo qiladigan talablaridan biri bo'lib kelgan. Davlat tuzilishi shakllariga va jamiyatning shu jumladan moliyaviy siyosat dastaklari o'zgarib to'xtovsiz takomillashib borgan. Inglizcha variantdagi so'z orqali kirib kelgan «fiskal siyosat» tushunchasi mamlakatimiz va xorij iqtisodiy adabiyotlarida turlicha talqin qilinadi, ko'p hollarda «budjet - soliq», «moliya - soliq» va «moliyaviy siyosat» deb yuritiladi⁵.

⁵ Shodmonov va boshq. Iqtisodiyot nazariyasi. Ma'ruzalar matni. T. DITAF 2001; Носова С.С. Экономическая теория: краткий курс. Учеб. пособия.-М.:Гуманит. Изд. Центр Владос, 2001.

«Fiskal» lotincha «fiscus» soʻzidan olingan boʻlib, xazina degan maʼnoni anglatadi. Bu oʻz navbatida «xazina siyosati» degan tushunchani ham yuzaga keltiradi. Fiskal, yaʼni xazina siyosatiga insoniyat tarixida oʻtgan yirik davlat arboblardan biri, oʻrta asrlarda buyuk saltanat barpo qilgan Amir Temur katta eʼtibor qilgan. U davlatni idora qilish tizimini yuzaga keltirishda asosan xazinani toʻldiruvchi soliqlarga tayangan.

Bu davrning davlat moliyasi iqtisodiy tizimning eng muhim unsurlaridan biri boʻlib, u davlat boshqaruvining barcha tarkibiy qismlari orasida markaziy oʻrinni egallagan. Ammo moliyaviy munosabatlar bu davrda oʻz rivojida yuqori darajaga yetmagan boʻlib, u aholi soliq toʻloviga nisbatan faqat oʻz mohiyatini xazinada topgan. Xazina har qanday tizimda ham davlatni boshqarish vositasi boʻlib xizmat qilgan boʻlsada, shu bilan birgalikda uning mohiyati oʻsha davrlardayoq aholi manfaatlarini qondirishda namoyon boʻlgan.

Shu bois «Temur tuzuklari»da «davlat saltanat uch narsa bilan: mulk, xazina va lashkar bilan tikdir. Dono vazir bularning uchalasini yaxshi ahvolda saranjom tutadi», degan fikr ilgari suriladi. Ammo, Amir Temurning yaxshi vazir haqidagi mulohazasi koʻproq aholi soliq toʻlovini yaxshi yoʻlga qoʻya oladigan va soliq toʻlovlari orqali «xazina» toʻliqligini taʼminlay oladigan shaxsga qaratilgan boʻlsada, ana shu xazinachining soliq munosabatlarini takomillashtirishda bevosita aholi manfaatlarini taʼminlashda muhim oʻrin tutishiga ishora qilingan. Biroq xazinani toʻldirish bu davrda doimo soliq toʻlovlari bilan bogʻliq boʻlmagan, chunki xazinaning bir qismi qoʻlga kiritilgan molu-boylikdan topgan boʻlib, u aholi manfaatlari uchun sarflanmagan va hukmdorning tayanchi boʻlib xizmat qilgan. Xazinani boshqarish masalalari Saljuqiylar sulolasining mashhur vaziri Nizomulkning «Siyosatnoma» asarida quyidagicha tariflab oʻtilgan: «Shaharda hamisha ikkitadan xazina boʻlgan, ularning biri asosiy, ikkinchisi xarj va xarajat xazinasini edi. Qoʻlga kiritilgan molu-boylik, asosan birinchi xazinadan toʻlanardi va zaruratsiz bu xazinadan bir dirham ham xarj etmasdilar. Har bir keladigan narsaning xarajatga sarflanishi mumkin emas, albatta. Mabodo, biron narsaga yoki molga hojat tushsayu, topilmasa, bu muhim ish ziyonli boʻlardir. Xazinaga

qo'yilgan har bir narsa viloyatlardan kelib, har birining o'z joyi bo'lardi va ularni almashtirishga yo'l qo'yilmasdi. Har bir narsa o'z vaqti va o'z joyida xarj bo'lishi kerak edi. Shundagina sovg'a qilish, sadaqa va mol berish ishlariga xalaqit yoki kamchilik yetmaydi. Xazina hamisha obod bo'lib, odamlar rohatda yashaydi, biror kishi mol-mulki jihatdan azob chekmaydi »⁶.

Demak, u davrlarda davlat xazinasini ikki bo'limdan iborat bo'lgan, birinchisi asosiy xazina hisoblanib, bunda uzoq yillar davomida nodir buyumlar sifatida saqlab va to'plab kelingan durdonalar asralgan; ikkinchi bo'lim esa xarajatga xizmat qilgan. Joriy mablag'lar taqchilligi sezilganda asosiy xazinadan joriy xazina uchun qarz olinib, keyinchalik o'rni to'ldirilgan, faqat to'ldirilibgina qolmasdan, qo'shimcha mablag'lar hisobiga tobora boyitib borilgan. Xazina kirim-chiqimlari muntazam qayd etilib, xazinaning ahvoli haqida hukmdorlarga zarur ma'lumotlar taqdim etib turilgan. Xazinada taqchilik kamdan-kam sezilgan.

Ammo, Amir Temur oldingi o'ringa xazina birinchi bo'limining soliqsiz daromadlar qismini emas, balki ikkinchi qismi – soliq va yig'implarni qo'ygan. Chunki, aholi manfaatlari va mamlakatni soliqlar roli xususida chuqur mulohaza yuritgan, ularning adolatli tamoyillarini rivojlantirishga harakat qilgan.

Fiskal siyosatni iqtisodiyotni tartibga solish va iqtisodiyotni muvozanatligini taminlash dastagi sifatida foydalanish haqidagi fikr ingiliz iqtisodchisi D.M.Keynsga mansubdir². U jamiyat taraqqiyot darajasiga tasir ko'rsatuvchi omillarning 3 guruhini ajratib ko'rsatib, birinchi guruhni boshlang'ich omillar: ishchi kuchining malaka darajasi va miqdori, mavjud uskunalarning soni va sifati, tatbiq etiladigan texnologiya, raqobat darajasi, istemolchining didi va odatlari, turli jadallikdagi mehnatning og'irligi, nazorat va ishlab chiqarishni tashkil etishning aha-miyati, shuningdek, jamiyatning ijobiy tuzilishi tashkil etadi. Ana shu omillardan kelib chiqqan holda, D.Keyns o'z etiborini ikkita boshqa guruhga ham qaratadi. U ikkinchi guruhga mustaqil o'zgaruvchan omillarni: iste'molga moyillik, kapitalning eng ko'p samaradorligi va foiz normasini, uchinchi guruhga –

⁶ Nizomulmuluk. Siyosatnoma yoki siyar ul-mulk (fors tilidan tarjima., so'z boshi va izohlar mualliflari Xusaynzoda Sh.,) – T.: Adolat, 227-228-betlar. (xususiyl merosimiz xazinasidan).

qaram omillarni: bandlik va milliy daromad hajmini kiritgan.

D.Keyns davlat aralashuvi vazifasini mustaqil o'zgaruvchan omillarga, ular vositasida esa bandlik va milliy daromadga tasir ko'rsatishdan iborat, deb bilgan. Bunda hal qiluvchi shart sifatida fiskal va pul kredit siyosati vositasida investitsiyalarni rag'batlantirishda namoyon bo'ladi, deb ko'rsatadi.

Shuni ham alohida ta'kidlab o'tish kerakki, g'arb iqtisodchi olimlarining aksariyati fiskal siyosatning "mohiyatini" ko'rsatish o'rniga "ahamiyatini" yoki uni taraqqiyotda tutgan "o'rnini" izohlab o'tishga harakat qilishgan. Bu esa soliqlardan xazinani to'ldiruvchi omil sifatida foydalanishga sabab bo'lib, natijada soliq og'irligining aksariyat qismi aholi zimmasiga tushgan. Hatto, D.Keyns o'zining asosiy asari bo'lgan «Bandlik, foiz va pulning umumiy nazariyasi»da: «Iqtisodiy jarayon qatnashchilarning jamg'arishga bo'lgan qiziqishiga mo'ljallanayotgan daromad ta'sir qilishi sababli, ko'rsatib o'tilgan omillar faqat foiz normasiga emas, balki hukumatning soliq siyosatiga ham bog'liq bo'ladi. Ayniqsa «ishlab topilgan» va «ishlab topilmagan» fondlarga soliq solish stavkalaridagi keskin farqlar mavjud bo'lgan hollardagi daromad solig'i, kapital keltiradigan foydaga solinadigan soliq, meros solig'i va boshqa soliqlar foiz normasiga nisbatan muhim rol o'ynaydi. Buning ustiga soliq amaliyotidagi ro'y berishi mumkin bo'lgan o'zgarishlar ko'lami foiz normasidagi o'zgarishlarga nisbatan ko'proq bo'lishi mumkin (bu yerda gap hech bo'lmaganda ana shunday o'zgarishlar bo'lishi mumkinligi haqida boradi). Agar soliq siyosatidan ataylab daromadlarning adolatli taqsimlanishiga erishishga yordam beradigan omil sifatida foydalaniladigan bo'lsa, u holda bu siyosat albatta iste'molga moyillikni ko'paytirishga yanada kuchliroq ta'sir ko'rsatadi» deb ta'kidlashi, soliqlarni taraqqiyot omili, deb ko'rsatishga harakat qilganligidan dalolat bermoqda.

Odatda g'arbdagi olimlarning monografiyalarida fiskal siyosatning mohiyatiga ularning funksiyalari orqali ta'rif berilmaydi, balki davlatning soliqlardan foydalanish yo'nalishlari qarab chiqiladi. Avvalo, soliqlar fiskal siyosatning bir qismi sifatida namoyon bo'lishini K.Makkonell bilan S.Bryu o'zlarining ishlarida belgilab berganlar.

Hatto neokeynschilik yo‘nalishining namoyondalri bo‘lgan A.Xansen, P. Samuelson va boshqalar budjet va soliq solish tizimini o‘zgartirish orqali fiskal siyosatni iqtisodiyotning siklik rivojlanishiga moslashtirishni taklif etganlar. Bu iqtisodchilar fiskal siyosatni o‘rnatilgan «avtomatik stabilizator», deb ifodalaganlar. Ular bu o‘rinda soliqlarga alohida ahamiyat beradilar. Ayrim iqtisodchi olimlar fiskal siyosatning mohiyatini, soliqlarning jamiyat taraqqiyoti uchun ahamiyatini ko‘rsatish orqali ochib berishga uringanlar. Misol uchun, P.Samuelson soliqlar va davlat xarajatlari bilan ish ko‘ruvchi fiskal siyosat, pul siyosati bilan qo‘shilganda yuqori darajadagi aholi bandligini yuzaga keltiruvchi barqaror iqtisodiyotni maqsad qilib qo‘yadi, lekin bu yerda narxlar qadrsizlanishini malum darajada olmaydi, deb fiskal ahamiyatini baholashga uringanligi shular jumlasidandir.

Shu bilan birga ular amalga oshirilishi mumkin bo‘lgan fiskal siyosatni iqtisodiyotni barqarorlashtirish uchun hal etiladigan vazifalaridan kelib chiqib, rag‘batlantiruvchi va to‘sqinlik qiluvchi siyosatlar sifatida ifodalashga alohida e‘tibor qilishgan.

«Fiskal siyosatning asosiy maqsadi, - deb yozishadi ular, ishsizlik va inflyatsiyani tugatishdan iboratdir. Tanazzul davrida kun tartibida rag‘batlantiruvchi fiskal siyosat to‘g‘risidagi masala paydo bo‘ladi.

U quyidagilarni o‘z ichiga oladi: (1) davlat xarajatlarining ko‘payishi yoki (2) soliqlarning pasayishi, yoxud (1) va (2) ni birga qo‘shib olib borish.

Va aksincha, agar iqtisodiyotda ortiqcha talab tufayli paydo bo‘lgan inflyatsiya sodir bo‘lsa, bunga to‘sqinlik qiluvchi fiskal siyosat mos keladi. To‘sqinlik qiluvchi fiskal siyosat quyidagilarni o‘z ichiga oladi: (1) hukumat xarajatlarining kamayishi yoki (2) soliqlarning ko‘payishi, yoxud (1) va (2)ning birga qo‘shib olib borilishi. Fiskal siyosat basharti iqtisodiyot oldida inflyatsiya ustidan nazorat qilish muammosi turadigan bo‘lsa, hukumat budjetining ijobiy qoldig‘iga tayanishi lozim»⁷.

Bu fikrlarda biz uchun muhim iqtisodiy rivojlanish maqsadlarining

⁷ Макконелл Б., Стенли Брю С.Л. Экономикс: Принципы, проблемы и политика //пер. с англ., 2т, Изд. «Республика», 1992.

o'zgaruvchanligi va shunga mos ravishda fiskal siyosatning yo'nalishlarini muvofiqlashtiruvchi yo'nalishlar, xulosalarni uchratamiz xolos.

Sobiq ittifoq iqtisodiy adabiyotlarida ham fiskal siyosatning iqtisodiy mohiyatini moliyaviy siyosat talqinida atroflicha ochib berishga harakat qilingan. Sobiq ittifoq iqtisodchi olimi V.V.Lavrov moliyaviy siyosatni iqtisodiy mazmuniga ta'rif berar ekan, bunday siyosat mahsulotni taqsimlash va mehnat soni, ishlab chiqarish ustidan nazorat qilish va uni hisobga olish bilan bog'liq, deb ko'rsatadi. Albatta, bunday yondashuv negizida moliyaviy siyosatning asosiy maqsadi yashiringan bo'lib, bu o'z navbatida davlatning pul muomalasini nazorat qilish, soliqlarni kiritish va tashqi savdoda mutloq hukmronlikni o'rnatishga qaratilgan. Moliyaviy iqtisodiyotni tarkibiy o'zgartirish, moliyaviy resurslarni markazlashtirish va davlatning iqtisodiyotni tartiblash borasidagi asosiy dastagi sifatida ko'rsatiladi. I.V.Levchuk moliyaviy siyosat – ishlab chiqarishni o'stirishda juda katta rol o'ynashini ta'kidlab, bunday siyosat moliyaviy resurslardan foydalanish va taqsimlashdagi boshqaruvning markazlashtirilgan va quyi tizimlarini to'g'ri uyg'unlashuvini vujudga keltiradi, deb ko'rsatadi⁸.

Moliyaviy siyosat haqida V.S.Pavlov o'z davri uchun ancha ahamiyatli fikrni bildiradi. Uning qarashicha, bu siyosat davlat boshqaruvining moliya-kredit tizimi bo'lib, mamlakat real iqtisodiy-moliyaviy holatini aks ettirib, moliya-kredit tizimini qayta qurish usullari va iqtisodiy tarkibiy o'zgartirishlardagi muammolarni yangicha yo'nalishda yechishdagi muhim omildir⁹.

Qarab chiqilayotgan muammoni ancha to'liq tadqiqot qilishda sobiq ittifoq iqtisodchi olimi M.K. Shermetev o'zining tadqiqot ishida atroflicha yondashadi. U davlatning moliya siyosatini yanada aniqlashtirish maqsadida uni ikki yo'nalishga bo'lib o'rganadi. Birinchi yo'nalishni davlat moliyasidan foydalanish sohasi deb ko'rsatsa, ikkinchi yo'nalish moliyaviy siyosat bo'lib, bu mamlakat iqtisodiyotining ichki holatidagi moliyaviy jarayonlar natijasi bo'lib yuzaga

⁸ Левчук И.В. Денежное обращение и кредит СССР. М.: Финансы и статистика 1986г, стр 16.

⁹ Павлов В.С. Оздоровление финансов – задача общая. Финансы СССР, 1990г, №4 стр 4.

chiqadi, deb ta'kidlaydi¹⁰.

Shunday qilib, sobiq ittifoq iqtisodchi olimlari fiskal siyosatning mohiyatini ma'muriy-buyruqbozlik tizimi sharoiti uchun moliyaviy siyosat talqinida ochib berishga harakat qilganlar.

Hozirgi zamon davlat moliyasi to'g'risidagi iqtisodiy ta'limotlarni to'laqonli ochib berish uchun, dastlab g'arb iqtisodchilari tomonidan XIX – XX asr boshlarigacha bo'lgan davrda amalga oshirilgan tadqiqotlarni, atroflicha tahlil qilib chiqish zarur. Chunki, ular bozor iqtisodiyoti vujudga kelishining dastlabki davrdagi umumiy qonuniyatlari va g'arb davlatlari milliy iqtisodiyotining taraqqiyot darajasi hamda xususiyatlari mujassamlashgan. XX asrning 20-yillari oxirlariga kelib, bu davlat moliya siyosatining negizida neoklassik oqim vakillarining konsepsiyasi yotgan bo'lib, ularning asosiy yo'nalishi quyidagilardan iborat bo'lgan: davlatning iqtisodiyotga aralashmasligi; erkin raqobatni saqlash, xo'jalik faoliyati jarayonlarini tartiblashda bozor mexanizmidan samarali foydalanish. XX asrning 20-30 yillarida bu iqtisodiy nazariy konsepsiyalarni real iqtisodiy talablardan kelib chiqib yanada atroflicha qarab chiqish zaruriyati tug'ildi.

Davlat monopolistik kapitalizmining rivojlanishi oqibatida, 30-60 yillarga kelib moliyaviy siyosat negizida asosan keynschilik va neokeynschilik oqim maktablarining iqtisodiy konsepsiyalari joy oldi.

Keynschilik yo'nalishining asoschisi D.M.Keynsning moliyaviy konsepsiyasida quyidagi asosiy yo'nalishlar ustuvorlikni egalladi:

1. Kengaytirilgan takror ishlab chiqarish jarayonining barcha muhim muammolarini resurslar taklifini o'rganish bilan emas, balki resurslarni sotilishini ta'minlovchi talab nuqtai nazaridan qarab chiqish zarur;

2. Kapitalistik iqtisodiyot har doim ham o'zini-o'zi tartibga solishga layoqatli emas. Shunday ekan, mehnat va kapitalning yuqori darajada umumlashgan sharoitda davlatning iqtisodiy jarayonlarga aralashuvi muqarrardir. Bunda davlat tomonidan tartibga solishni iqtisodiyotni baholar yordamida

¹⁰ Шерметьев М.К. Финансы СССР. М.: Финансы, 1977г., стр. 35.

tartiblash mexanizmi orqali to'ldirib borish zarur;

3. Takror ishlab chiqarish jarayonida yuzaga kelayotgan ortiqcha ishlab chiqarish, iqtisodiy beqarorlik holatlarining, inqirozlarning sababi talabning yetishmasligidandir, shunday ekan iqtisodiyotdagi muvozanatlikni ta'minlash muammosini talab nuqtai nazaridan yechish zarur. Buning uchun Keyns «samarali talab» terminini kiritadiki, u daromad va bandlik, iste'mol va ishlab chiqarish o'rtasidagi muvozanatlikni o'zida mujassamlashtiradi;

4. Davlatning iqtisodiyotni tartibga solishdagi muhim dastagi bu budjet siyosatidir. Davlat budjeti va moliyaviy siyosatning asosiy maqsadi ishchi kuchi va ishlab chiqarish uskunalarning bandligini ta'minlashdan iboratdir¹¹.

Davlat tomonidan iqtisodiyotning siklik rivojlanishi va krizislarni bartaraf etishdagi asosiy dastagi bu – davlat xarajatlaridir. Keynsning fikricha, ularning shakllanishi, tuzilishi va o'sishi, “samarali talab”ga erishishdagi muhim omildir.

Davlat talabi (soliq va zayomlar bilan ta'minlangan) tadbirkorlik faoliyatini jonlantirishga, milliy daromad va bandlikning o'sishiga olib kelishi zarur. Shuningdek, davlat xarajatlari va soliq siyosatining o'zgarishi yalpi talabning asosiy tarkibiy qismlaridan bo'lgan shaxsiy iste'mol va investitsiyalarga ta'sir etadi. Keyns tomonidan davlat moliyasi nazariyasiga kiritilgan yangilik shundan iboratki, u zayomlar yordamida moliyalashtirish orqali davlat xarajatlarini oshirib borish zarur, deb hisoblaydi. Keynsning izdoshlari buni “taqchilli moliyalashtirish prinsiplari” deb nomlashadi. Keyns fikricha davlat investitsiyalari va joriy xarajatlarni qarzlar hisobiga moliyalashtirish mumkin. Qarzlar hisobiga moliyalashtirilgan davlat investitsiyalari “investitsiyalarga bo'lgan moyillikni”, joriy xarajatlarni moliyalashtirish esa “iste'molga bo'lgan moyillikni” kengaytirishga olib keladi. Keyns davriga kelib budjet xarajatlari va daromadlarining mos kelishi muqarrarligi, “sog'lom moliya” konsepsiyasining tugatilishiga olib keldi. Shu davrdan ssuda kapitallari bozori “samarali talab”ni ta'minlashda asosiy dastak bo'lib yuzaga chiqqan bo'lsa, davlat budjet taqchilligi esa davlat tomonidan tartibga solishning muhim omiliga aylandi.

¹¹ Кейнс Дж.М. Общая теория занятости, процента и денег – М.: Прогресс, 1978. стр. 142

Shunday qilib, Keyns davlat monopolistik, kapitalistik iqtisodiyotni tartibga solishda yangi moliya nazariyasining ustuvor yo‘nalishini ishlab chiqdi. Moliyaviy siyosat Keyns izdoshlari tomonidan (Amerikada – R.Xarrod, A.Ouken, U.Xeller, Buyuk Britaniyada – J.Vaysman, Fransiya – F.Perru, Yaponiyada – K.Emi, X.Itolar) amaliyotga joriy etildi. Bu 40-60 yillarda iqtisodiyotni tartibga solishda ijobiy natijalarni berdi. 70-yillargacha ko‘pchilik yetakchi g‘arb davlatlarining moliya nazariyasi va amaliyoti asosida Keyns nazariyasining qoidalari yotadi.

Keyinchalik texnika taraqqiyoti ta’sirida iqtisodiyotning rivojlanishi va intensiv usullarga asoslangan iqtisodiy o‘sish sharoitida Keyns tomonidan ishlab chiqilgan “davlat moliyasi” modeli yangicha yondashuvni taqozo etdi. Shu bilan birga “davlat tomonidan tartibga solish nazariyasi” bo‘yicha ham yangi ta’limotga zaruriyat tug‘ildi. Kengaytirilgan takror ishlab chiqarish jarayonining o‘zgarishi oxir oqibatda “neoklassik sintez” konsepsiyasini ya’ni pul omili asosiy o‘rinni egallaydigan, to‘liqsiz bandlikka asoslangan muvozanatlik nazariyasini vujudga keltirdi. Keyns nazariyasi rivojidadagi bunday yangicha yondashuv Nobel mukofoti laureatlari, ingliz iqtisodchilari J.Xiks va amerikalik P.Samuelsonlar tomonidan amalga oshirildi. Ular Keynsning fiskalcha yondashuvini neoklassik konsepsiya bilan qo‘shilgan holda, davlat tomonidan tartibga solishning pul-kredit siyosati yordamida (hisob foizining o‘zgarishi) amalga oshirilishini yoqlab chiqishdi.

P.Samuelson “jamiyat ijtimoiy ne’matlari” tushunchasini muomalaga kiritib, negizida davlat va xususiy sektor o‘rtasidagi resurslarni taqsimlash, davlat sektorida iqtisodiy va ijtimoiy infrastrukturani moliyalashtirish masalalarini ilgari surdiki, ular pirovard natijada foyda miqdorini oshishiga olib kelsin.

Samuelson moliyaviy siyosatning asosiy maqsadi, “jamiyat ijtimoiy ne’matlari” taklifini tartiblashni ta’minlashdan iborat, deb ko‘rsatadi¹². Bunda mikroko‘lamga davlat aralashuvining asosiy maqsadi – davlat xarajatlarini optimalligini ta’minlash davlat, korxona va jamiyat a’zolari o‘rtasidagi resurslarni samarali taqsimlash va qayta taqsimlashga qaratiladi, deb hisoblanadi.

70-yillarga kelib Buyuk Britaniya, AQSh, Germaniya va boshqa bir qator

¹² Самуэльсон П. Экономикс М.: Издательства «Алгон», 1992.

mamlakatlarda davlat moliyaviy siyosatining asosiy negizida neoklassik oqim namoyandalari g'oyalari bilan to'ldirilgan neokonservativ iqtisodiy konsepsiyalari ustuvorlikni egalladi. Bu oqim namoyandalari qarashlari "taklif nazariyasi" deb nom olib, ularning asosida davlatning iqtisodiyotga, asosan ijtimoiy hayotiga aralashuvini chegaralash g'oyasi yotadi. Mazkur konsepsiyada davlat mulkini qayta xususiylashtirish, ishlab chiqarishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, uning samaradorligini oshirish, iqtisodiyotdagi taklif muammosini qayta ko'rib chiqish kabi masalalar ilgari suriladi. Bunda asosiy e'tibor tadbirkorlik faoliyatiga qaratilib, uning faolligini yanada oshirish va ishlab chiqaruvchilarni rag'batlantirishga ustuvorlik beriladi.

Neokonservatorlar Keyns ta'limotining ayrim kamchiliklarini topib, unga qarshi o'z konsepsiyalarini ilgari suradilar. Bular asosan quyidagilardan iborat:

- Neokonservatorlar Keyns konsepsiyasida inflyatsiyadan, ishlab chiqarish va bandlikni kengaytirishda foydalanish to'g'risidagi fikriga qarshi o'zlarining muomaladagi pul miqdorini kamaytirish haqidagi g'oyalarini ilgari surishdi;

- Ular soliqlarning tez o'sishiga qarshi chiqib, bu ishlab chiqaruvchilar va tadbirkorlarning moddiy manfaatdorligini susaytirib yuborishini ko'rsatib o'tadilar va taklifni rivojlantirish orqali iste'molchilik talabini muvozanatlashtirish, soliqlarni ratsional darajada pasaytirib, erkin xususiy tadbirkorlik va bozor raqobatini rivojlantirish tadbirlarini taklif etadilar;

- Keyns konsepsiyasi tanqidchilari davlatni iqtisodiyotga aralashuviga qarshi chiqib, davlat faqatgina ayrim xizmatlar, xo'jalik faoliyatini himoya qilish bilan cheklanishi kerak, degan fikrni ilgari suradilar;

- Moliyaviy siyosatni ishlab chiqish va unga tizimli yondashish ko'p jihatdan kapitalizmning rivojlanishi bilan bog'liq.

1929-1933 yillardagi jahon xo'jaligini qamrab olgan iqtisodiy inqiroz moliyaviy siyosat dasturlarini ishlab chiqishga turtki bo'ldi. Bunda klassiklar tomonidan tavsiya etilgan «xususiy mulkka asoslangan bozor iqtisodiyoti davlatning iqtisodiyotga aralashuvisiz, o'zi iqtisodiyotni tanazzullarsiz ishonchli boshqara oladi», degan ta'limotining asossiz ekanligini isbotladi.

Moliyaviy siyosatning nazariy prinsiplariga D.M.Keyns va uning izdoshlari tadqiqotlarida atroflicha yondashildi. 30-40 yillarga kelib esa moliya siyosatining asosiy maqsadi iqtisodiyotdagi takror ishlab chiqarish jarayonida ro'y beradigan krizislarni yumshatish, xo'jalik faoliyati va to'lovga layoqatli talabni kengaytirishni qo'llab-quvvatlashdan iborat, deb qaralgan. 60-yillarda bu siyosatning ustuvor maqsadi asosan to'liq bandlikka erishish va iqtisodiy o'sish darajasini oshirib borishni rag'batlantirishga qaratildi. 70-yillarda moliyaviy siyosatga yangicha yondashilib, bunda asosiy ustuvor vazifa inflyatsiyaga qarshi kurashish bilan birgalikda, yuqori bandlikni ta'minlash, iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish, deb hisoblangan.

Maxalliy iqtisodchi olimlarimizdan, Sh.Qobilov fikricha "Fiskal siyosat - bu davlatning soliq-budjet siyosatidir, unga binoan soliqlar belgilanadi, budjet mablag'lari aniq maqsadlar yo'lida ishlatiladi. Soliq siyosati soliqlar vositasida budjetga pul to'plashga qaratiladi. Unga binoan soliq turlari aniqlanadi, soliq stavkalari, soliq solinadigan ob'ektlar, soliq imtiyozlari, soliq undirish tartibi belgilanadi"¹³.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8-yanvardagi "Iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va iqtisodiy siyosat samaradorligini oshirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5614-sonli Farmonida fiskal siyosat quyidagicha e'tirof etilgan: "Fiskal siyosat-davlat faoliyatini moliyaviy qo'llab-quvvatlash, davlat daromadlari va xarajatlarini muayyan iqtisodiy va ijtimoiy maqsadlar uchun tartibga solishga qaratilgan chora-tadbirlar tizimini o'z ichiga oluvchi moliyaviy siyosatning ajralmas qismi hisoblanadi"¹⁴.

Hukumatning soliqlarni belgilash va mablag'larni sarflash huquqlaridan foydalanishiga asoslanadi". Iqtisodchi olimlardan T.Shodiev fikricha: "Xorijiy mamlakatlar fiskal siyosat namoyondalari davlat budjetiga soliq va tushumlarni yig'ish, ularni sarflashga tizimli yondashib, murakkab qarorlar qabul qilishda aynan yuqorida keltirilgan "Data Analysis" hamda "Big Data" dasturlaridan

¹³ Qobilov Sh.R.(2013) Iqtisodiyot nazariyasi: Darslik.- T.:O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 775 b.

¹⁴ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8-yanvardagi "Iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va iqtisodiy siyosat samaradorligini oshirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5614-son.

foydalanadilar¹⁵. Shu asnoda samarasiz bo'lgan loyihalar rad etiladi. Bunday tizimli qarorlar qabul qilish besh bosqichda amalga oshiriladi: muammoni aniqlash, muammoni hal etishning muqobil yechimlarini ifodalash, loyihani amalga oshirishga qo'yilgan iqtisodiy va ijtimoiy maqsadning mezonini belgilash, ko'p variantlardan muqobilini tanlash va joriy etish. Nihoyat kompyuterda dastur va algoritmi yordamida kelajakdagi ssenariylar tuziladi va undan eng samarali bitta yechim topiladi. Birlashgan millatlar tashkiloti taraqqiyot dasturi (BMTTD) va O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining "O'zbekistonda barqaror rivojlanishni moliyalashtirish" qo'shma loyihasini amalga oshirish dasturi (2020) doirasida tayyorlangan "Fuqarolar uchun 2021 yil budjet" loyihasida fiskal siyosat quyidagicha aks ettirilgan: "Fiskal siyosat – bu davlatning soliq solish va budjet xarajatlari sohasidagi iqtisodiyotni tartibga solish maqsadida olib boradigan siyosatidir"¹⁶.

Yana boshqa ko'zga ko'ringan va aynan davlat moliyasi bo'yicha ko'plab ilmiy tadqiqotlar olib borgan iqtisodchi olimlarimizdan T.Malikov va P.Jalilovlar fikricha, fiskal siyosat: "bir tomondan, budjet daromadlarini (oqilona) shakllantirish, Ikkinchi tomondan, budjet xarajatlarini (samarali) sarflash bilan bog'liq. Shuningdek, fiskal siyosat ikkita siyosat (budjet va soliq)lar turidan iborat"¹⁷.

MDH iqtisodchi olimlaridan V.Kashin va I.Merzlyakovlarning fikricha: "Davlatning fiskal siyosati – iqtisodiyotga ta'sir o'tkazish maqsadida soliqlar va hukumat xarajatlarini boshqarishdir. Fiskal siyosat mexanizmi shunga asoslanganki, soliq yig'implari va davlat xarajatlari hajmining o'zgarishi yalpi talabga va o'z-o'zidan, yalpi milliy maxsulot, bandlik va baho darajasiga ta'sir ko'rsatadi"¹⁸.

Xorijlik iqtisodchi olimlardan M.Ibraxim "Davlatning fiskal siyosati – davlat

¹⁵ Shodiev T. Fiskal institut: Uchinchi Renessansning tamal toshi. Xalq so'zi gazetasi. <https://xs.uz/uzkr/post/fiskal-institut-uchinchi-renessansning-tamaltoshi>. 16.01.2021.

¹⁶ O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi «Fuqarolar uchun byudjet 2021» loyihasi. Toshkent, 2020.© UNDP, 2020 (www.uz.undp.org).

¹⁷ Malikov T.S, Jalilov P.T. (2011) Byudjet-soliq siyosati. O'quv qo'llanma - T.Akademnashr, 6-bet.

¹⁸ Кашин В., Мерзляков И. (2017) Фискальная политика и оздоровление экономики России // Аудитор. № 9. С.34-37.

umumiy siyosatining muhim qismidir. O‘z mohiyatiga ko‘ra, bozor munosabatlari sharoitida, aynan fiskal siyosat iqtisodiyot rivojlanishining yo‘nalishi va sur‘atlarini belgilaydi. Agar iqtisodiyot rivoji oqsaydigan bo‘lsa, birinchi navbatda, davlat fiskal siyosatining asosi bo‘lmish soliq tizimini tahlil qilish lozim” deb ta’riflaydi¹⁹.

Ta’kidlash o‘rinliki, iqtisodchi olimlardan X.Asatullaev tomonidan davlat fiskal siyosatining makroiqtisodiy muvozanatlikni ta’minlashdagi o‘rni maslalasi ancha chuqur taxlil qilingan. Lekin, uning tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqotda makroiqtisodiy muvozanatlikning iqtisodiy mazmuniga mualliflik yondashuviga keltirilgan bo‘lsada davlat fiskal siyosati bo‘yicha aniq bir mualliflik yondashuvi berilmagan²⁰.

Yosh iqtisodchi olimlardan S.Allayarovning fikricha: “Fiskal siyosat – davlatning budjetga soliqlar, yig‘imlar, ajratmalar va budjetdan tashqari fondlarga boshqa majburiy to‘lovlar turlari va stavkalarini o‘zgartirish orqali davlat daromadlari manbalari tarkibi orqali hamda davlat boshqaruvining barcha darajalarida davlat xarajatlari, to‘lovlar, dotatsiyalar, transfertlar, subsidiyalar, maqsadli dasturlarni moliyalashtirish ko‘rinishida davlatning majburiy xarajatlari hajmi va tarkibini aniqlash orqali iqtisodiyot samaradorligini oshirish va iqtisodiy o‘shishni rag‘batlantirishga qaratilgan tadbirlari kompleksidir.”²¹

Shunday ekan moliyaviy siyosat oldiga qo‘yilgan maqsad va vazifalardan kelib chiqib, uning uchta yo‘nalishini, ya’ni iqtisodiy o‘shishni rag‘batlantirish, barqarorlashtirish va iqtisodiy faoliyatni chegaralash siyosatlarini alohida ajratib ko‘rsatish mumkin.

Iqtisodiy o‘shish maqsadlaridan kelib chiqib, moliyaviy siyosat bandlik darajasini va shu orqali YaMM real hajmini oshirishga yo‘naltiriladi. Bunda rag‘batlantiruvchi moliyaviy siyosat dastaklari bo‘lib:

¹⁹ Ибрахим М.А. (2016) Аспекты фискальной политики государства / Научный журнал «Вестник университета». №7-8. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/aspekty-fiskalnoy-politikigosudarstva>.10.03.2021.//

²⁰ Asatullaev X.S. Makroiqtisodiy muvozanatlikni ta’minlashda davlat fiskal siyosatining o‘rni. – T.: «IQTISOD-MOLIYA», 2010, 20-32-бетлар.

²¹ Allayarov, S. (2020) «IMPLEMENTATION OF FINANCIAL POLICY OPTIMIZED IN THE CONDITIONS OF ECONOMIC GROWTH» International Finance and Accounting: Vol. 2020 : Iss. 2 , Article 7. Available at: <https://uzjournals.edu.uz/interfinance/vol2020/iss2/7>. 10.03.2021.

- davlat xarajatlarning o'sishi;
- soliq stavkalarining pasayishi hisoblanadi.

Boshqacha aytganda, hozirgi vaqtda davlat budget barqarorligini ta'minlashga qaratilgan moliyaviy siyosat iqtisodiy inqiroz yoki turg'unlik davrida budget taqchilligini bartaraf etish maqsadlariga qaratilishi zarur. Agar davlat o'zining fiskal va xarajatlar siyosatidan foydalanib, mahsulot ishlab chiqarish hajmini bir me'yorda ushlab turishga va narxlarning barqarorligini ta'minlashga intilsa, bunda u iqtisodiyotda barqarorlashtirish siyosatini olib borishga intilayotgan bo'ladi. Bunda barqarorlashtirish siyosatiga davlatning iqtisodiy jarayonlarini rag'batlantirish yoki ushlab turishga qaratilgan moliyaviy siyosat, deb qarash kerak emas, chunki ular turlicha maqsadni ko'zlab bir-biridan farqlanadilar.

Davlatning iqtisodiy faoliyatni chegaralash siyosati o'z navbatida potensial darajasidan keskin farq qilayotgan real YaMM hajmini kamaytirishga yo'naltirilgan bo'lib, bu davlatning iqtisodiy o'sish va uning pasayish davrlari inflyatsiya va takror ishlab chiqarish jarayonlaridagi inqirozlardan qochishidir. Davlatning ushlab turuvchi moliyaviy siyosatiga quyidagi tadbirlarni kiritish mumkin:

- davlat sarflarni qisqartirish;
- soliq stavkalarini oshirish.

Davlatning moliyaviy siyosatini tahlil qilishda, uning milliy iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlar jarayoniga ta'sir etish tartibi va ustuvor yo'nalishlarini qarab chiqish muhim ahamiyatga ega. Hozirgi sharoitda davlatning moliyaviy siyosatini amalga oshirishning uchta vazifasini alohida ajratib ko'rsatish mumkin.

1. Fiskal siyosat rivojlanish konsepsiyasining ilmiy asosli yondashuvini ishlab chiqish. Bu aholi iste'mol darajasi, ishlab chiqarishni takomillashtirish va iqtisodiy qonunlar talablarini hisobga olishni taqozo qiladi;

2. Joriy davrda va uzoq istiqbolda moliyaviy vositalardan foydalanishning ustuvor yo'nalishlarini aniqlash. Bunda fiskal siyosatning konsepsiyasi va strategiyasini ishlab chiqish ko'zda tutiladi. Shu bilan birgalikda ko'rib o'tilgan maqsadlardan kelib chiqib, moliyaviy resurslarning qisqarish va o'sish

imkoniyatlari hisobga olinadi, tashqi va ichki siyosiy-iqtisodiy omillar ham o'rganiladi.

3. Amaliy harakatlar natijasida fiskal siyosat sohasidagi qo'yilgan maqsad va vazifalarga erishish. O'z-o'zidan aniqki, iqtisodiyotga moliyaviy siyosatning to'g'ridan-to'g'ri ta'siri faqatgina shu bosqichdan boshlanadi, biroq uning samaradorligi oldingi ikki bosqichning mazmuni bilan belgilanadi. Shu bilan birga fiskal siyosatning bunday mexanizmi qisman to'g'ri amal qiladi, chunki u moliyaviy tartibga solishning barcha imko-niyatlarini hisobga olmaydi.

1.2-§ Monetar siyosatni amalga oshirishning zamonaviy instrumentlari va ulardan foydalanish yo'nalishlari

Iqtisodiy adabiyotlarda “monetar siyosat”, “monetar siyosat instrumentlari” hamda “pul-kredit siyosati konsepsiyalar”i xususida ko'pchilik olimlar tomonidan fikrlar bildirilgan, jiddiy tarzda amalga oshirilgan tadqiqotlar natijalariga asoslangan holda xulosalar shakllantirilgan.

“Iqtisodiy adabiyotda va xalqaro bank amaliyotida “pul-kredit siyosati” va “monetar siyosat” tushunchalarini sinonim tushunchalar sifatida talqin qilish keng tarqalgan. Masalan, rossiyalik taniqli iqtisodchi-olimlar – S.Moiseev, O.Lavrushin, I.Mamonova, M.Malkina, G.Fetisovlar “pul-kredit siyosati” tushunchasidan keng foydalanadilar”²². AQShlik, yaponiyalik va yevropalik iqtisodchi olimlar tomonidan nashr etilgan darsliklar, chop etilgan ilmiy maqolalarda “monetar siyosat” (monetary policy) tushunchasidan foydalaniladi. Masalan, taniqli iqtisodchi olim, AQSh FZT Prezidenti B.Bernanke o'zining ilmiy-tadqiqot ishlarida va ilmiy maqolalarida faqat “monetar siyosat” tushunchasidan foydalangan.

“M.Malkina pul-kredit siyosatiga quyidagicha ta'rif beradi: “Pul-kredit siyosati – Markaziy bank tomonidan pul massasi va pullar qiymatini boshqarish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar bo'lib, mamlakatda baholar, milliy valyutaning barqarorligini ta'minlash va iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish maqsadida amalga

²² Azizov U.O', Qoraliyev T.M. va boshqalar. Bank ishi. T.: «Fan va texnologiya» nashriyoti, 2016. – 640 b..

oshiriladi”²³.

“S.Moiseevning fikriga ko‘ra, pul-kredit siyosati – bu davlatning iqtisodiyotni tartibga solish borasidagi siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, pul bozoridagi talab va taklif uning obyekti hisoblanadi”²⁴.

“R.Miller va D. Van-Xuz hammuallifligida yozilgan “Zamonaviy pullar va bank ishi” mavzusidagi darslikda monetar siyosat pul emissiyasi va pul massasi ustidan nazorat qilishga qaratilgan tadbirlar majmui sifatida talqin qilingan.

“Monetar siyosat - Markaziy bank tomonidan milliy valyuta va narxlar barqarorligini ta‘minlashga, pul massasi, bank tizimining likvidliligi hamda to‘lov balansini tartibga solishga, makroiqtisodiy va moliyaviy barqarorlikni, iqtisodiy o‘shishni mustahkamlashga yo‘naltirilgan vositalar, usullar hamda chora-tadbirlar yig‘indisidir”²⁵

Monetar siyosat instrumentlaridan foydalanishning nazariy masalalari xususidagi qarashlarga xos bo‘lgan umumiy xususiyatlardan biri shundaki, ularning deyarli barchasi asosida keynschilik va monetarizm asosiy konsepsiyalar ekanligi amalda e‘tirof etilgan.

J. Keyns va uning izdoshlari o‘zlarining pul-kredit konsepsiyasida asosiy e‘tiborni budjet siyosati dastaklaridan faol va ustuvor tarzda foydalanishga qaratganlar. Shuni alohida ta‘kidlash lozimki, ikkinchi jahon urushiga qadar bu konsepsiya jiddiy qarshiliklarga uchramadi.

Ammo, XX-asrning 50-yillaridan boshlab monetaristik pul nazariyalarining qoidalari keynscha konsepsiyaning asosiy qoidalarini inkor qila boshladi.

Keynschilik maktabi vakillarining mustaqil pul-kredit siyosatiga nisbatan salbiy munosabati J. Keynsning makroiqtisodiy tahlil monetar bo‘lishi mumkin emas, degan xulosasiga asoslanadi. J. Keynsning fikriga ko‘ra, tarmoqni yoki alohida korxonani o‘rganishda foydalaniladigan resurslar umumiy miqdorini

23 Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat‘iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. – Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2017. – 104 b.

24 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2020-2025 yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to‘g‘risida”gi 2020 yil 12 mayda PF–5992-sonli Farmoni. qabul qilindi. Toshkent: O‘zbekiston, 2020.

²⁵Bobokilov T.I., Abdullayev U.A., Isaqov J.Ya Monetar siyosat, darslik Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2019.

o'zgaras miqdor sifatida ko'rib chiqishni taqozo qiladi. Bunda boshqa tarmoqlar va korxonalarning sharoitlari o'zgarasdan qoladi, degan mulohazaga asoslaniladi. Bunda pul tavsifi muhim ahamiyatga ega bo'lmaydi. J. Keynsning bunday tarzda fikr yuritishining asosiy sababi shundaki, u umumiy talab ishlab chiqarishni belgilaydi, ishlab chiqarishning darajasi esa to'liq bandlikka erishish uchun yetarli bo'lmisligi mumkin, deb hisoblaganligidir.

Bunda pullar strategik rol o'ynaydi va umumiy talabni aniqlashga imkon beradi: pul miqdorining yetishmasligi yoki ortiqchaligi muvofiq tarzda ishsizlikni yoki inflyatsiyani yuzaga keltirishi mumkin.

Monetar siyosat makroiqtisodiy siyosatining tarkibiy va ajralmas qismi sifatida iqtisodiyotni samarali tartibga solishning eng muhim vositasi hisoblanadi. Markaziy bank zimmasiga yuklangan funksiya va vazifalarni bajarish maqsadida milliy valyuta, narxlar, pul massasi, bank tizimi va pul bozori likvidliligini ta'minlaydi. Shuningdek, iqtisodiy o'sishni, to'lov balansi, makroiqtisodiy va moliyaviy barqarorlikni mustahkamlashga yo'naltirilgan vositalar, usullar hamda chora-tadbirlardan foydalanadi.

Hukumat tomonidan belgilangan maqsadli ko'rsatkichlarni bajarishda Markaziy banklar o'z ixtiyoridagi monetar siyosat instrumentalardan foydalanadi. Buning uchun ushbu maqsadli ko'rsatkichlarga erishishga samarali imkon beradigan vositalar turi tanlab olinadi va tegishli qaror qabul qilinadi. Monetar siyosat vositalarining turi, soni va ulardan bank tizimida foydalanish xususiyatlari ko'pincha mamlakat iqtisodiyoti, bank tizimi, moliya, xususan, pul va valyuta bozorlarining rivojlanish darajasi, hukumat iqtisodiy siyosati, monetar va fiskal siyosatning maqsad va vazifalariga bevosita bog'liq bo'ladi.

Taniqli iqtisodchi olimlarning monetar siyosatning turlari xususidagi fikrlarini o'rganish va umumlashtirish natijasida shunday xulosaga keldikki, monetar siyosatning ikki asosiy turi mavjud:

1. Restriksion monetar siyosat.
2. Ekspansionistik monetar siyosat.

Restriksion monetar siyosat deganda, odatda, muomaladagi pul massasining

o'sish sur'atlarini jilovlashga qaratilgan monetar siyosat tushuniladi.

Ekspansionistik monetar siyosat deganda muomaladagi pul massasining multiplikativ kengayishini ta'minlash asosida to'lovga qobil talabni rag'batlantirishga qaratilgan monetar siyosat tushuniladi.

“Monetar siyosat instrumentlari - Markaziy bank tomonidan pulga bo'lgan talab va taklifni tartibga solish hamda monetar siyosatni amalga oshirish mexanizmidir. O'z navbatida, ushbu vositalar bevosita va bilvosita turlarga bo'linadi. Bevosita vositalar - Markaziy bank tomonidan tijorat banklariga nisbatan foiz stavkalarini yoki kredit miqdorini belgilash va cheklashdan iborat bo'lgan ma'muriy usullardir”²⁶.

Bilvosita vositalar - Markaziy bank va tijorat banklari o'rtasida ixtiyoriy ravishda foydalaniladigan, ya'ni bozor orqali pulga bo'lgan talab va taklifni o'zgartirish, muomaladagi pul massasi miqdorini va banklarning to'lovga qobiliyatligini tartibga solish usulidir.

Bevosita vositalarga - foiz stavkalarini chegaralash, maqsadli kreditlar, har bir bank uchun kreditning yuqori chegarasini belgilash kabi ma'muriy usul va choralar kiradi.

Bilvosita vositalarga - ochiq bozordagi operatsiyalar, qayta moliyalash siyosati, majburiy zaxira talablari, valyuta siyosati, kredit auksionlari, valyuta svoplari, veksellarni qayta hisobga olish mexanizmi, lombard yoki overdraft mexanizmlari va boshqalar kiradi. Xalqaro bank amaliyotida iqtisodchilar ushbu vositalarni bozor mexanizmlari ham deb ataydilar.

Bilvosita vositalar bozor iqtisodiyoti talablariga mos keladi va bevosita vositalarga nisbatan bir qator afzalliklarga ega. Jumladan, ular Markaziy bankka monetar siyosat samaradorligini oshirish, pul massasi, moliya bozorlari va bank tizimi likvidligini samarali tartibga solish, davlatning kreditni taqsimlash va pul-kredit orqali boshqarish jarayonlariga aralashuvini kamaytirish, moliya bozorining rivojlanishi va kengayishiga, banklarning vositachiligini oshirish, kapital qo'yilma

²⁶Pul-kredit siyosatini amalga oshirish <https://hozir.org/pul-kredit-siyosatini-amalga-oshirish-i-kirish-v2.html?page=3>

va moliyaviy jamg'armalarning ko'payishiga qo'shimcha qulayliklar yaratadi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida pul muomalasini barqarorlashtirish doimo iqtisodiyotni krizis xolatidan qutqarishning eng dolzarb shartlaridan biri hisoblanadi. Iqtisodiy krizislar esa turli mamlakatlarda o'zining ko'lami turlicha bo'lishi bilan birga mamlakatning moliya, pul kredit tizimiga chuqur tasir ko'rsatadi. Shunday ekan, mahalliy iqtisodchi olimlarimizdan bo'lgan Omonov A.A. va Qoralievlar tomonidan ta'kidlanganidek, "moliya pul-kredit tizimi va siyosatlarining takomillashib borishi mamlakat iqtisodiy hayotining muhim bo'g'ini bo'lib qoladi"²⁷. "Ayniqsa iqtisodiy globallashuv, mamlakatlar o'rtasidagi iqtisodiy integrallashuvining o'sib borishi sharoitida pul muomalasining barqarorligini taminlash masalasi e'tiborli ahamiyat kasb etadi"²⁸. Pul muomalasini ilmiy asoslangan ravishda boshqarishni zarurligi quyidagilar orqali belgilanadi:

1. Pul muomalasini barqarorligini (qadrini) ta'minlash (pulni xarid qilish quvvati). Inflyatsiya jarayonini jilovlash.
2. Iqtisodiyotni muntazam (barqaror) o'sishini ta'minlash.
3. Axolini bandligini ta'minlash.
4. Tovarlar, xizmatlar narxlarini asossiz o'sishini keskin cheklash.
5. Mamlakatni to'lov balansining xolatini yaxshilash.

Markaziy bankning bosh maqsadi milliy valyutaning barqarorligini ta'minlashdan iborat bo'lib, ushbu maqsadni amalga oshirish uchun qator vazifalarni bajaradi. Ushbu vazifalar ichida eng muhimlaridan biri uning pul – kredit siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish hisoblanadi.

Pul – kredit siyosatining qator usullari mavjud bo'lib, ularning asosiylari quyidagilardan iborat:

- tijorat banklariga nisbatan o'rnatilgan majburiy zaxira siyosati;
- tijorat banklarini qayta moliyalash siyosati (hisob stavkasi);
- ochiq bozordagi siyosati;
- valyuta va depozit siyosati.

²⁷ Omonov A.A.,Qoraliev T.M "Pul-kredit va banklar" darslik Toshkent: O'zbekiston, 2012

²⁸ Omonov A.A.,Qoraliev T.M "Pul-kredit va banklar" darslik Toshkent: O'zbekiston, 2012

Iqtidodchi olimlarimizdan Sh.Abdullaeva “Monetar siyosatni va valyutani tartibga solish sohasidagi siyosatni shakllantirish, samarali hisob-kitob tizimini tashkil etish va ta’minlash, banklar faorliyatini tartibga solish va nazorat qilish, oltin va valyuta zaxiralarini saqlash va boshqarish davlat budjetining kassa ijrosini Moliya vaziriligi bilan birgalikda tashkil etishdan iborat”²⁹-deb ko‘rsatib o‘tadi.

Yana boshqa bir mahalliy iqtisodchi olimlar A.A.Omonov, T.M.Qoralievlar “Iqtisodiy adabiyotlarda va xalqaro bank amaliyotida Markaziy banklarning pul – kredit siyosati monetar siyosat, monetar instrumentlar tarzida ham yuritiladi. Biroq, Markaziy bankning pul – krediti siyosati qanday tarzda yuritilishiga qaramasdan, ularning maqsadi bitta masalaga, ya’ni mamlakat milliy valyutasining barqarorligini ta’minlashga qaratiladi”³⁰.

“Xalqaro bank amaliyoti va xo‘jalik yuritish tajribasidan ma’lumki, milliy valyuta sotib olish qobiliyatining tushib ketishi iqtisodiyotda inflyatsiya darajasining oshishiga va mamlakatda ishsizlik darajasining pasayishiga olib keladi va aksincha. Ya’ni, inflyatsiya darajasining pasayishi esa mamlakatda ishsizlik darajasining oshishiga olib keladi”³¹.

Markaziy bank aynan shu iqtisodiy jarayonni milliy iqtisodiyotga salbiy ta’sir etmaydigan darajada ushlab turish va milliy valyutaning barqarorligini ta’minlash uchun pul – kredit siyosati usullarini amaliyotga joriy etadi.

“O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining pul – kredit siyosati O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki to‘g‘risida”gi Qonunning 23 – moddasiga binoan kelgusi yil uchun mamlakat monetar siyosatining asosiy yo‘nalishlari sifatida ishlab chiqiladi”³².

“Xususan, ushbu siyosat:

– iqtisodiy kon’yunkturaning tahlili va istiqbol ko‘rsatkichlarini;

muomalada bo‘lgan pul massasining iqtisodiy jihatdan asoslangan

²⁹ Pul, kredit va banklar. Darslik. (Sh.Abdullaeva) Toshkent, Toshkent moliya instituti, 2003. 276-bet.

³⁰ Pul, kredit va banklar: “Bank ishi” ta’lim yo‘nalishi talabalari uchun darslik. A.A.Omonov, T.M.Qoraliev. Soliq akademiyasi, Toshkent moliya instituti-Toshkent. “Iqtisod-moliya” nashriyoti 243-bet


³¹ T.M. Qoraliev tahriri ostida “Pul kredit orqali muvofiqlashtirish” 2007 yil.

³² Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2017. – 56 b.

chegaralarini; pul massasi yillik o'sish sur'atining aniq maqsadli ko'rsatkichlarini, shu jumladan"³³, Markaziy bank ichki aktivlarining o'zgarishini;


- valyuta hamda foiz siyosatining asosiy yo'nalishlarini;
- pul – kredit sohasini tartibga solishga doir harakatlarning aniq maqsadli asosiy ko'rsatkichlarini o'z ichiga oladi.

2021–2022 yillarda pul-kredit siyosatining transmission mexanizmi samaradorligini oshirish Markaziy bankning eng asosiy maqsadlaridan biri bo'ladi. "Inflyatsion targetlash rejimiga o'tishda foiz kanalining muhimligini inobatga olgan holda Markaziy bank transmission mexanizmning mazkur kanalini rivojlantirishga asosiy e'tibor qaratadi"³⁴. Tahliliy baholashlarga ko'ra, keyingi yillardagi bank tizimi likvidliligida tarkibiy profitsit yuzaga kelishi kutilayotganligini inobatga olgan holda Markaziy bank ortiqcha likvidlilikni sterilizatsiya qilishda pul-kredit siyosatining foiz instrumentlaridan faol foydalanadi.



³³ O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Monetar siyosatning 2019 yil va 2020–2021 yillar davriga muljallangan asosiy yo'nalishlari

³⁴ O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Monetar siyosatning 2019 yil va 2020–2021 yillar davriga muljallangan asosiy yunalishlari



1.1-rasm. Monetar siyosat konsepsiyasining yakuniy va oraliq maqsad hamda vazifalari³⁵

Markaziy bank tomonidan kunlik likvidlilik taqdim etishda overnayt hamda kunlik valyuta svop operatsiyalari, likvidlilik olishda esa kunlik depozit operatsiyalaridan foydalaniladi. Markaziy bankning kunlik depozit operatsiyalari bo'yicha foiz stavkasi foiz koridorining quyi chegarasini, overnayt kreditlari yoki valyuta svop operatsiyalari bo'yicha foiz stavkasi esa uning yuqori chegarasini belgilab beradi. Foiz koridorining quyi va yuqori chegaralari Markaziy bankning oraliq stavkasiga nisbatan bir xil tafovutda, ya'ni simmetrik tarzda o'rnatiladi. Quyi va yuqori chegaralar hamda asosiy foiz stavkasi orasidagi simmetrik tafovut miqdori auksion operatsiyalari bo'yicha aniqlangan foiz stavkalaridan kelib chiqqan holda belgilanadi. Kelgusi yillarda kreditlash siyosatining qat'iylashtirib borilishi pul-kredit siyosati transmission mexanizmining kredit kanali orqali iqtisodiyotga ta'sir ko'rsata boshlaydi.

Maxalliy iqtisodchi olimlaridan bo'lgan M.Pardaev "Mamlakatimizda banklararo pul bozoridagi pul oqimlari tahlili va o'ziga xos xususiyatlari mazkur bozorda amalga oshirilayotgan operatsiyalarning aksariyat qismi 1–2 hafta (1 oygacha) oralig'iga to'g'ri kelayotganligini ko'rsatmoqda. Shu bois Markaziy bank tomonidan ikki haftalik/oylik depozit auksionlari amaliyoti joriy qilinadi"³⁶.

"Markaziy bank tomonidan tijorat banklari bilan depozit auksionlarining amalga oshirilishi transmission mexanizm foiz kanalini jadallashtirish bo'yicha

³⁵ Muallif tomonidan o'rganilgan manbalar asosida shakllantirilgan.

³⁶ Mamayunus Karshibayevich Pardayev Professor of Samarkand institute of yeconomics and service (SIES), Doctor of Yeconomics Special Issue on "Innovative yeconomy: challenges, analysis and prospecs for development

dastlabki qadam bo‘ladi”³⁷. Haftalik depozit auksionlari uchun eng yuqori foiz Markaziy bankning asosiy stavkasi miqdorida belgilanadi hamda savdolar ushbu stavka bilan boshlanadi. O‘zbekistonda asosiy stavka instrumentining amaliyotga tatbiq etilishiga qadar Markaziy bankning amaldagi qayta moliyalash stavkasi depozit auksionlari uchun maksimal foiz stavkasi sifatida xizmat qiladi.

“Bunda iqtisodiyotda rentabelligi past bo‘lgan loyihalarga kreditlar ajratish amaliyotiga batamom chek qo‘yish bo‘yicha choralar ko‘rilishi va ularning samaradorligi yuqori bo‘lgan yo‘nalishlarga ajaratilishiga alohida e‘tibor qaratiladi.

Hozirgi kunda milliy iqtisodiyotni moliyaviy-iqtisodiy, budget va bank-kredit tizimining barqaror hamda uzluksiz ishlashini ta‘minlash, iqtisodiyotning real sektori korxonalarini yanada rivojlantirish, aholini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash borasida ko‘rilgan chora-tadbirlar o‘zining amaliy samarasini bermoqda. Monetar siyosat bank tizimini isloh qilishda va inqirozli omillar ta‘sirini yumshatishda asosiy strategik vazifalar sifatida quyidagilarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir:

- bank va moliya-kredit tizimini rivojlantirish uchun makroiqtisodiy muhitni barqarorlashtirish;

- tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirish, bandlikni o‘stirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish, eksport potensialini barqarorlashtirish jarayoni orqali barqaror iqtisodiy o‘rtni ta‘minlash;

- bank va moliyaviy tashkilotlarni institutsional rivojlantirish va barqarorlashtirish;

- pul va kapital bozorini rivojlantirish.

Iqtisodiyotni liberallashtirish va bozor mexanizmlari rolini oshirishga qaratilgan iqtisodiy islohotlarning yangi bosqichi o‘rta muddatli istiqbolda bank tizimi va pul-kredit siyosatini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilab berdi.

³⁷ O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki Monetar siyosatning 2019 yil va 2020–2021 yillar davriga muljallangan asosiy yo‘nalishlari.

Ushbu yo‘nalishdagi muhim qarorlardan biri milliy valyuta almashuv kursining bozor mexanizmlari asosida shakllanish tamoyillarini joriy etish orqali ichki valyuta bozorini bosqichma-bosqich liberallashtirilishi bilan bog‘liq amaliy qadamlar bo‘ldi’³⁸.

“Valyuta kursi shakllanishida tamomila yangi yondashuvdan foydalanilishi, o‘z navbatida, Markaziy bankning asosiy e‘tiborini ichki bozordagi narxlar barqarorligiga qaratish asnosida pul-kredit siyosatini takomillashtirish imkoniyatini beradi.

Ayni vaqtda valyuta bozorini liberallashtirish borasidagi islohotlarning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi ko‘p jihatdan pul-kredit siyosatini takomillashtirish, tijorat banklari faoliyatini mustahkamlash hamda bank tizimini rivojlantirish choralari samaradorligi bilan chambarchas bog‘liq.

Markaziy bank monetar siyosatni amalga oshirishda uning an‘anaviy vositalaridan foydalanish muhim o‘rin tutadi. Nafaqat taraqqiy etgan mamlakatlarda, balki o‘tish iqtisodiyoti mamlakatlarida ham an‘anaviy monetar instrumentlardan foydalanish monetar siyosatni amalga oshirishning tayanch vositalari vazifasini bajarmoqda.

Markaziy bank tomonidan tijorat banklarini kreditlash bilan bog‘liq bo‘lgan tadbirlar majmui bo‘lib, ushbu siyosat quyidagi uch xil kreditlash usulidan foydalanilgan holda amalga oshiriladi:

– tijorat banklarini Markaziy bank tomonidan, ularning balansidagi trattalarni qayta hisobga olish yo‘li bilan kreditlash usuli. Mazkur usulda berilgan kreditlar hisob yoki diskont kreditlari hisoblanadi, ularning foiz stavkasi esa, hisob yoki diskont stavkasi deyiladi. Markaziy bank har bir moliyaviy yil uchun oldindan trattalarni, ya‘ni uzatma tijorat veksellarini o‘zida qayta hisobga olish kontingentini belgilaydi. “Qayta hisobga olish kontingenti hajmini belgilashda pul massasining o‘shish sur‘ati, inflyatsiya darajasi kabi muhim makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar hisobga olinadi. Trattalarni qayta hisobga olish kontingentini mamlakatdagi tijorat banklari soniga bo‘lish yo‘li bilan har bir bank uchun

³⁸ Pul-kredit siyosatini amalga oshirish Konsepsiyasi 21 May 2021 yil

belgilanadigan qayta hisobga olish limiti summasi aniqlanadi”³⁹. Bu esa, limitni aniqlashning adolatli usuli hisoblanadi. Chunki, ushbu usulda barcha tijorat banklariga, ularning katta yoki kichikligidan qat’iy nazar, bir xil limit belgilanadi. “Ammo ushbu usulning kamchiligi shundaki, bunda tijorat banklari aktivlari miqdori o’rtasidagi farq natijasida yuzaga keladigan likvidli mablag’larga bo’lgan talab o’rtasidagi farq hisobga olinmaydi”⁴⁰.

– tijorat banklarini Markaziy bank tomonidan, ularning balansidagi qimmatli qog’ozlarni garovga olish yo’li bilan, kreditlash usuli. Ushbu usulda berilgan kreditlar lombard kreditlari bo’lib, ularning foiz stavkasi esa, lombard stavkalari deyiladi.

– tijorat banklarini Markaziy bank tomonidan to’g’ridan – to’g’ri kreditlash usuli.

“Mazkur usulda berilgan kreditlar overdraft, overnayt, kunlik va muddatli kreditlar shaklida bo’ladi. Markaziy bankning overdraft kreditlari tijorat banklarining milliy valyutadagi “Nostro” vakillik hisobraqamida yuzaga kelgan pul mablag’lari yetishmasligi muammosini hal qilish maqsadida beriladi”.

“Overnayt kreditlari bir sutkaga beriladigan kreditlar bo’lib, ular tijorat banklarida favqulodda yuzaga keladigan juda qisqa muddatli likvidlilik muammosini hal qilish maqsadida beriladi”⁴¹.

Kunli kreditlar bir operatsion kun davomida beriladi. Dunyoning bir qator mamlakatlarida (Shvetsiya, Rossiya va boshqa.) kunlik kreditlar Markaziy banklar tomonidan qimmatli qog’ozlarni garovga olgan holda foizsiz beriladi va ular milliy to’lov tizimini qo’llab-quvvatlash maqsadida beriladi.

Ta’kidlash o’rinliki, fikrimizcha o’tgan davrlarda Markaziy banklar an’anaviy tarzda birinchi o’rinda pul-kredit siyosatini samarali faoliyati bilan shug’ullangan, faoliyatining asosan barcha operatsiyalarni nazorat qilishga

³⁹ Кузин, В. The inflation aversion of the Bundesbank: a state space approach//Journal of Economic Dynamics & Control 30, 2006. – P. 1671 – 1686.

⁴⁰ “Xalqaro moliya va hisob” ilmiy yelektron jurnali. № 6, dekabr, 2018 yil

⁴¹ Xabibullayev I.M “Markaziy bank monetar siyosatini pul bozori faoliyatiga ta’siri” “Iqtisodiy pandemiya sharoitida kichik sanoat zonalarida innovatsion axborot tizimini takomillashtirish” mavzusidagi onlayn ilmiy-amaliy konferensiya materiallari, 2020.

qaratilgan, uning barcha mexanizmlari inflyatsiyani jilovlashga qaratilgan bo'lsa, bugungi kunda moliyaviy barqarorlik va iqtisodiy faollikni ta'minlash vazifalari nihoyatda muhim bo'lmoqda. Shunday ekan, Markaziy bank narxlar barqarorligi masalasi bilan bir vaqtda. moliyaviy barqarorlik va iqtisodiy faollikni oshirish bilan ham mashg'ul bo'lishi kerak.

1.3-§ Iqtisodiy faollikni ta'minlashda davlat fiskal va monetar siyosatning xorij amaliy tajribasi

Fiskal siyosatni amalga oshirish borasidagi xalqaro tajriba - davlat moliyasini boshqarishga oid turlicha yondashuvlarni, shuningdek, budjet barqarorligiga erishish, biznesga erkinlik va ishbilarmonlik muhitini yaratish, soliq ma'murchiligini takomillashtirish va bu maqsadlarda iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish uchun turli vositalardan foydalanishni o'z ichiga oladi. Federal davlatlar misolida fiskal siyosatni amalga oshirilishi jarayonida ham to'xtalib o'tamiz. Misol tariqasida, Amerika Qo'shma Shtatlari (AQSh) soliq tizimi haqida gapirganda shuni ta'kidlash joizki, mamlakat 50 ta alohida shtat, Kolumbiya okrugi va mamlakat poytaxti Vashingtondan iborat bo'lib, ularning har biri o'z ichki siyosatini olib boradi. Bundan tashqari, Amerika Qo'shma Shtatlari Samoa, Puerto-Riko va boshqalar kabi ba'zi qo'shimcha yurisdiksiyalarni o'z ichiga oladi. Ammo AQShning umumiy fiskal tizimi u yerda ishlamaydi. Qo'shma Shtatlar federal davlat modeli bo'lganligi sababli, budjet to'lovlari bu yerda 3ta darajada amalga oshiriladi: federal darajada, shtat darajasida va munitsipal darajada. AQSh fiskal siyosatining asosiy xususiyati davlat darajasida har bir shtat o'zining soliq to'lovlarini (ya'ni, mustaqil soliq siyosatini) o'rnatish imkoniyatiga ega ekanligidir. Masalan, shtatlarda daromad solig'i savdodan olinadigan soliq bilan almashtirilgan va hokazo. Majburiy ijtimoiy badallar to'lovlari ham xodimlar, ham ish beruvchilar tomonidan amalga oshiriladi. Budjet to'lovlarini yig'ish Moliya vazirligining tarkibiy bo'linmasi hisoblangan Ichki daromadlar xizmati (IRS) tomonidan amalga oshiriladi.

AQShda soliq siyosatining xususiyatlarida to'xtalib o'tadigan bo'lsak, unda

amaldagi soliq siyosatiga muvofiq quyidagi soliqlar majburiy hisoblanadi:

- yuridik shaxslar va daromad solig‘i;
- majburiy ijtimoiy ajratmalar;
- yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq;
- ishsizlikni bartaraf etishga qaratilgan soliqlar;
- merosxo‘rlarning mol-mulkiga soliq;
- aksiz solig‘i;
- savdodan olinadigan soliqlar;
- atrof-muhitni muhofaza qilishga qaratilgan soliqlar;
- bojxona to‘lovlari;
- foydali qazilmalar va neft mahsulotlarini qazib olish, qazib chiqarish va

qayta ishlash uchun belgilangan soliqlar.

Davlat soliq tizimining bunday tuzilishi ko‘p bosqichli soliq yig‘ish tamoyilini aks ettiradi. Qo‘shma Shtatlarning moliyaviy siyosati anglosakson huquqiy tizimi va mamlakatning tarixiy an‘analariga asoslangan ko‘plab xususiyatlarni o‘z ichiga oladi. AQSh soliq tizimining ijtimoiy mohiyatini alohida qayd etib o‘tish zarur. Chunki, bunday yondashuv bugungi kunda dunyodagi eng rivojlangan iqtisodiyotlardan birini barpo etish va mahalliy aholisini yuqori turmush darajasini ta‘minlash imkonini berdi⁴².

O‘zbekistonda xalqaro tajribani amalda qo‘llashdagi ayrim muammolardan biri bu hududlarda mahalliy soliq va yig‘imlarni joriy etish kabi vakolatlar mavjud emasligi, ularning mazkur tushumlarni yig‘ishdan manfaatdorligi past daraja ekanligi, budjet jarayonidagi shaffoflik va keng jamoatchilik ishtirokining yetarli emasligidir. Demak, xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, fiskal siyosatni yuritishda AQSh va boshqa rivojlangan davlatlar ilg‘or tajribasini shak-shubhasiz mamlakatimizga, shu jumladan uning hududlari iqtisodiyotini rivojlantirish uchun tatbiq etilishi lozim. Mamlakatimizda budjet xarajatlarini oshib borishi yoki kamayib ketishi tashqi savdo hajmiga yalpi talabning o‘sishi yoki qisqarishi orqali

⁴² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentning 22.01.2018 yildagi PF-5308-son Farmoni.

ham ta'sir qiladi. Xususan, davlat budget xarajatlarining (transfertlar bilan birgalikda) oshishi yalpi talabni rag'batlantirishi muqarrar. Yalpi talabni o'sishi esa, o'z navbatida, respublikamizga import qilindigan tovarlarga bo'lgan talab hajmidayam o'sishga olib keladi. Mamlakatimizda oxirgi yillarda budget xarajatlari muntazam oshib borayotgani kuzatildi. Agar, YaIM daromad sifatida qaraydigan bo'lsak, uni tarkibidagi davlat xarajatlarining hissasi yilma-yil ortib bormoqda ekani bu faktdir. Raqamlarga qaraydigan bo'lsak, konsolidatsiyalashgan budget xarajatlarining YaIMdagi ulushi 2016 yilda 23,8 foizni tashkil etgani holda, bugungi kunga kelib ushbu ko'rsatkich 35 foizga yetganligini ko'rish mumkin⁴³. Ta'kidlash joizki, bu davrda budget defitsiti ham muttasil o'sib borgan. Yana bir masala, mamlakatimizda davlat mablag'larining iqtisodiyot tarmoqlari va sohalarida, shuningdek viloyatlar, shahar va tuman hududlarida sarflanishi to'g'risida ma'lumotlarning yetarli emasligi fuqarolar va jamoatchilik tashkilotlari tomonidan vakolati doirasida nazorat qilishni ma'lum darajada qiyinlashtirmoqda. Bundan tashqari, budget xarajatlarining samaradorligi va natijadorligi bo'yicha aksariyat xollarda davlat va aholi o'rtasida qayta aloqa mexanizmi mavjud emasligidir. Davlatimiz tomonidan soliq ma'murchiligini takomillashtirish, yoshlarni ish bilan ta'minlashdan korxona va tashkilotlarni soliq vositasida rag'batlantirish borasida berilgan yengilliklarni alohida ta'kidlash joizdir. Birgina misol, ijtimoiy soliq stavkalari optimallashtirilib 25 foizdan 12 foizgacha pasaytirilishi, ayrim ijtimoiy ahamiyatga ega korxonalarga pasaytirilgan 7 va 4,7 foizli ssoliq stavkalarini belgilanishi va soliq to'lovlari mexanizmini takomillashtirish borasida sezilarli o'zgarishlar kuzatilmoqda. Ma'lumot o'rnida aytish joizki, 25 yoshgacha bo'lgan yoshlarni ishga olgan korxonalarga ular 6 oy davomida uzluksiz mehnat faoliyatini amalga oshirishi sharti bilan to'langan ijtimoiy soliqni yettinchi oydan boshlab qoplab berish amaliyoti joriy etilgan edi⁴⁴. Ish beruvchi korxonalarga ijtimoiy soliq summasi budgetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga ajratiladigan transfertlar hisobidan qoplab berilmoqda. Bundan 9

⁴³<https://www.imf.org/en/News/Articles/2022/11/15/pr22385-imf-staffconcludes-visit-to-uzbekistan>

⁴⁴ <https://www.imf.org/en/News/Articles/2022/11/15/pr22385-imf-staffconcludes-visit-to-uzbekistan>

mingdan ziyod korxona foydalandi, ularga 150 milliard so'mlik ijtimoiy soliq qaytarildi, 100 ming yoshlar bandligi ta'minlandi⁴⁵. Shu bois ushbu tajriba Prezident farmoni bilan 2025 yilning 1 yanvariga qadar uzaytirildi, lekin ijtimoiy soliqni qaytarishni 2023 yil 1 maydan qo'llash belgilandi⁴⁶. Bu yerda 2023 yilning yanvar - aprel oylari uchun farmonga muvofiq 25 yoshdan oshmagan xodimlar uchun ijtimoiy soliq qaytariladigan me'yor mavjud emas. Lekin bu davr mobaynida my.soliq.uz va my3.soliq.uz saytlarida interaktiv xizmat ishlashi natijasida ijtimoiy soliqni qaytarish uchun berilgan arizalar qanoatlantirilgan. Hukumat fiskal siyosatni amalga oshirishda ijtimoiy yo'nalishdagi muammolarni hal etishda soliqni rag'batlantiruvchi funksiyalaridan foydalanishi ma'lum darajada samara berishi mumkinligidan dalolat beradi. Yuqorida qayd etilganlardan kelib chiqib, quyidagi taklif etiladi:

1. Soliq-budjet siyosatining samaradorligi turli omillarga bog'liq ekanidan kelib chiqib, Hukumat tomonidan puxta tahlil va boshqaruv tizimi amalga oshirilishi lozim;

2. Davlatning ijtimoiy yo'nalishdagi muammolar yechimida soliqni rag'batlantiruvchi funksiyalaridan foydalanish qamrovini yanada oshirish lozim;

3. Hududlarni iqtisodiy rivojlantirish maqsadida ayrim mahalliy soliq va yig'imlarni mustaqil joriy etish kabi vakolatlar berish masalasini ko'rib chiqish (AQSh shtatlari tajribasi).

4. Soliq tizimini rivojlangan davlatlardagi tizimlar modellariga yaqinlashtirish orqali modernizatsiya qilish.

5. Budjetda ulushi kichik bo'lgan va hajmi esa uni undirish xarajatlaridan uncha farq qilmaydigan soliqlarni bekor qilish (bu jamiyatga soliq solish bosimini birmuncha kamaytiradi).

Shuningdek, xalqaro tajribaning asosiy tamoyillaridan biri qatoriga budjet jarayonining shaffofligi, resurslardan samarali va oqilona foydalanish, biznes uchun optimal soliq siyosatini olib boish, aholining ustuvor ehtiyojlarini hisobga

⁴⁵ <https://www.gazeta.uz/uz/2023/04/11/fund/>

⁴⁶ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 26.04.2023 yildagi PF-61 son Farmoni

olish va ijtimoiy himoyani ta'minlash kiradi. Birlashgan Arab Amirliklarining (BAA) soliq qonunchiligi o'zining fiskal siyosatini an'anaviy fiskal tizimlardan ajratib turadigan o'ziga xos xususiyatlarga ega. Bu yerda soliq qonunchiligi normalari daromad solig'i va olingan daromaddan korporativ soliq kabi tushunchalarni istisno qiladi. Xalqaro ekspertlar va tahlilchilarning fikricha, Amirliklar o'zining progressiv soliq tizimi tufayli nisbatan qisqa vaqt ichida Yaqin Sharqdagi yirik biznes va moliyaviy markazga aylangan. Bir necha yildirki, BAA «The Heritage Foundation» xalqaro jamg'armasi tomonidan tuzilgan iqtisodiy erkinlik reytingida yetakchi o'rinni egallab kelmoqda. Soliq darajasi va moliyaviy erkinlik kategoriyasida BAA har yili 100 balldan 99,9 ball oladi. Avvalo, bu yutuqlar BAA biznes uchun eng maqbul fiskal siyosatlardan biriga ega ekanligini ko'rsatadi⁴⁷. BAA fiskal siyosatining asosiy xususiyati quyidagilardan iborat: u budjetga majburiy to'lovlarning ayrim turlarini istisno qiladi. Masalan, mahalliy fiskal siyosat shaxsiy daromad solig'ini majburiy to'lashni talab qilmaydi. Boshqacha qilib aytganda, boshqa mamlakatlarda olingan daromaddan (ish haqi, royalti va boshqalar) oylik soliq to'lash zarur bo'lsa, BAAda bunday majburiyat yo'q. BAAdagi korporativ soliqlarga kelsak, budjetga badallar faqat iqtisodiyotning bank va neft-gaz sohalarida ishtirok etadigan kompaniya va muassasalar uchun majburiydir. BAAda federal soliq qonunchiligi mavjud emas va har bir amirlik o'zining qonunchilik bazasini belgilaydi. Shuning uchun soliq stavkasi bir amirlikdan boshqasiga farq qilishi mumkin. Masalan, Dubayda neft va gaz sohasida faoliyat yurituvchi kompaniyalar uchun soliq stavkasi 50% ga yetishi mumkin. Shuni ham ta'kidlash joizki, Dubaydagi soliq stavkasi bevosita kompaniyaning yillik foydasiga bog'liq. Soliq solinadigan mahalliy korxonalar uchun soliq stavkalarini hisoblash quyidagi sxema bo'yicha amalga oshiriladi:

- 10% stavka – foyda miqdori 1 milliondan 2 million dirhamgacha;
- 30% stavka – foyda miqdori 2 milliondan 4 million dirhamgacha;
- 40% stavka – foyda miqdori 4 milliondan 5 million dirhamgacha;
- 50% stavka – foyda miqdori 5 million dirhamdan ortiq.

⁴⁷ . <https://www.heritage.org/index/>

Shu bilan birga, yuqorida ta’kidlanganidek, mahalliy soliq-budjet siyosatiga muvofiq, aksariyat faoliyat turlari soliqdan butunlay ozod qilingan. BAA va boshqa xorijiy davlat fiskal siyosati borasidagi ilg’or tajribasini respublikamizda tadbiq etish jahon miqyosida yuqori iqtisodiy ko’rsatkichlar ega bo’lgan xolda o’z o’rniga ega bo’lishga imkon yaratadi. Shuning bilan birga, O’zbekiston “Iqtisodiy erkinlik indeksi”da (2023 Index of Economic Freedom) 8 pog’onaga yaxshilangan holda 109-o’rinni egalladi. Avvalgi davrlarga e’tibor qaratsak, o’tgan 2022 yilda O’zbekiston reytingda 117-o’rinda, 2021 yilda 108-o’rinda, 2020 yilda 114-o’rinda edi. Indeksni shakllantirishda mulk huquqi dahlsizligi, sud tizimining samaradorligi, soliq yuki, tadbirkorlik va mehnat bozori erkinliklari, savdo va sarmoya kabi jami 12 omil baholanadi. Mamlakat soliq yuki, sarmoya va savdo erkinligi bo’yicha oldinga siljidi, lekin davlat xarajatlari va fiskal siyosat nuqtai nazaridan bir oz yomonlashdi⁴⁸. Reyting mualliflarining fikricha, soliq yuki yalpi ichki mahsulotga nisbatan 19,6 foizdan 18,7 foizgacha pasaygan, biroq so’nggi uch yilda o’rtacha budjet taqchilligi -0,6 foizdan -2,8 foizga, davlat xarajatlari esa 27 foizdan 28,9 foizga oshgan (YaIMga nisbatan %). Yangi reytingda O’zbekiston iqtisodiyoti asosan erkin bo’lmagan davlatlar guruhida qolishiga qaramay, ekspert mutaxassislarning fikriga ko’ra, O’zbekiston yanada ochiqlik va modernizatsiya sari intilib, iqtisodiy erkinlikni ta’minlovchi siyosatni amalga oshirmoqda va ijobiy o’zgarishlar tezlashmoqda.

Yana bir muammo – budjet mablag’laridan unumli foydalanilmayotgani, aholi ehtiyojlarining hisobini yetarli darajada inobatga olinmaganligidir. Bugungi kunda O’zbekistonda qabul qilingan Davlat dasturlari va loyihalarini amalga oshirishning ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligini tizimli baholash mexanizmi mavjud emas, bu esa mablag’larning nooqilona sarflanishiga va aholi ehtiyojlarining yetarli darajada qondirilmasligiga olib kelishi mumkin. O’zbekistonda mazkur yo’nalishda vaziyatni barqarorlashtirish uchun budjet jarayonining shaffofligini kuchaytirish, bu borada jamoatchilikning faol ishtirok etishi uchun yetarli shart-sharoitlar yaratish, davlat va aholi o’rtasida o’zaro aloqa mexanizmini ta’minlash

⁴⁸ <https://www.heritage.org/index/>

zarur bo‘ladi. Shuningdek, davlat resurslaridan samaraliroq foydalanishni ta’minlash maqsadida budget dasturlari va loyihalarini amalga oshirishning ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligini baholash mexanizmlarini ishlab chiqish zarur. Xulosa o‘rinda aytish mumkinki, fiskal siyosatini amalga oshirish borasidagi xalqaro tajriba – O‘zbekistonda davlat moliyasini boshqarish tizimini takomillashtirishda qo‘llanishi mumkin bo‘lgan bilimlar va amaliyot manbai hisoblanadi.

Rivojlangan va rivojlanayotgan xorijiy mamlakatlarda monetar siyosatni amalga oshirish, uning bilvosita vositalaridan samarali foydalanish, makroiqtisodiy va moliyaviy muammolarni hal etish borasida ko‘p yillik, nihoyatda boy tajriba to‘plangan. Bugungi kunga kelib ko‘pchilik rivojlangan mamlakatlarda davlatning iqtisodiyotdagi roli sezilarli darajada katta ekanligini hisobga olsak, davlatning iqtisodiy rivojlanish strategiyasini belgilash, bozor mexanizmlariga putur yetkazmagan holda iqtisodiyotni tartibga solishi muhim ekanligiga iqrar bo‘lamiz.

“Angliya Markaziy banki 1694-yilda tashkil etilgan. Garchi Shvetsiya Markaziy banki – Riksbank dunyoda birinchi bo‘lib tashkil etilgan bo‘lsada, muomalaga banknotalarni chiqargan va tijorat veksellarini hisobga olishni boshlagan birinchi Markaziy bank bo‘lib, Angliya Markaziy banki hisoblanadi. Riksbank birinchi bo‘lib muomalaga oltin tangalar bilan ta’minlangan depozit sertifikatlarini chiqargan”⁴⁹. Angliya Markaziy banki pul-kredit siyosatining quyidagi instrumentlaridan foydalanmoqda:

A. Qayta moliyalash siyosati. Angliya Markaziy banki hozirgi davrda mamlakat tijorat banklariga ikki xil usulda kreditlar bermoqda:

- tijorat banklarining balansidagi trattalarni Markaziy banklar qayta hisobga olish yo‘li bilan berilayotgan kreditlar;
- Angliya banklarining balansidagi qimmatli qog‘ozlarni garovga olish yo‘li bilan kreditlar.

B. Ochiq bozor siyosati.

“Angliya Markaziy banki ochiq bozor siyosati doirasida to‘g‘ri REPO

49 Azizov U.O‘, Qoraliyev T.M. va boshqalar. Bank ishi. T.: «Fan va texnologiya» nashriyoti, 2016. – 640 b.

va teskari REPO operatsiyalaridan foydalanmoqda. To'g'ri REPO operatsiyasida Angliya Markaziy banki qimmatli qog'ozlarni mamlakat banklariga qaytarib sotib olish sharti bilan sotadi. Teskari REPO operatsiyasida Angliya Markaziy banki qimmatli qog'ozlarni mamlakat tijorat banklaridan qaytarib sotish sharti bilan sotib oladi"⁵⁰.

V. Valyuta siyosati. Angliya Markaziy banki valyuta siyosati doirasida valyuta intervensiyasini amalga oshiradi, Angliya hukumatining tashqi qarzini to'lashga xizmat qiladi va o'zining balansidagi oltin-valyuta zaxiralarini boshqaradi. Angliyada Hukumat xorijiy valyutalarda zaxiralarga ega emas.

Davlatga tegishli barcha oltin-valyuta zaxiralari Angliya Markaziy bankining balansiga o'tkazilgan. Shu sababli, Hukumatning tashqi qarzi Angliya Markaziy bankining balansidagi valyuta zaxiralari hisobidan to'lanadi. To'langan tashqi qarzning funt sterlingdagi ekvivalenti Hukumatning joriy hisobraqamidan yechib olinadi.

G. Depozit siyosati. Angliya Markaziy banki Hukumatga va tijorat banklariga tegishli vaqtinchalik bo'sh turgan pul mablag'larini o'zining muddatli depozit hisobraqamlariga jalb qiladi va ularga foiz to'laydi. Angliya Markaziy banki majburiy zaxira siyosatidan pul-kredit siyosatining instrumenti sifatida foydalanmaydi.

AQShda monetar siyosatni Federal zaxira tizimi (FZT) amalga oshiradi. AQSh FZT monetar siyosatni amalga oshirishda qayta moliyalashtirish siyosati, ochiq bozor siyosati, valyuta siyosati va depozit siyosatidan faol tarzda foydalanadi. Majburiy zaxira siyosati FZT uchun monetar siyosat instrumenti hisoblanmaydi. FZTning kreditlari tijorat banklarining likvidligini ta'minlashda muhim o'rin tutadi. FZT tijorat banklariga bir vaqtning o'zida bir necha turdagi markazlashgan kreditlarni taklif etadi. Xususan, diskontli kreditlar, lombard kreditlari, overdraft va overnayt kreditlari keng qo'llaniladi. AQSh Hukumati qimmatli qog'ozlari emissiya hajmining katta ekanligi FZTga ochiq bozor

⁵⁰ Bobakulov T.I. Milliy valyutaning barqarorligini ta'minlash: muammolar va yechimlar. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2007. – 184 b.

siyosatidan monetar siyosatning asosiy instrumenti sifatida foydalanish imkonini beradi.

AQSh FZT monetar siyosat instrumentlaridan makroiqtisodiy o'sish sur'atlariga ta'sir etish maqsadida aktiv foydalanib kelmoqda. AQSh dollari kursining nobarqarorligi Yaponiya, Germaniya, Fransiya, Buyuk Britaniya va Xitoy kabi mamlakatlarni ham tashvishga solmoqda. Chunki, ularning xalqaro valyuta zaxiralarining asosiy qismi AQSh dollarida shakllangan. "Shu sababli, 1999-yil yanvarda Yaponiya va Germaniya Moliya vazirlari AQShga dollar, yevro va ienning kurslarini o'zaro bir-biriga bog'lashni taklif qildilar. Ammo AQSh Federal zaxira tizimining o'sha vaqtdagi rahbari A.Grinspen va Moliya vaziri R.Rubin ushbu taklifni qat'iyan rad etdilar. Ularning fikriga ko'ra, mazkur uch yetakchi valyuta kurslarini o'zaro bir-biriga bog'lashni joriy etish AQSh Federal zaxira tizimining ishsizlik va inflyatsiyaga qarshi kurashishga qaratilgan pul-kredit siyosatining mustaqilligiga putur yetkazadi"⁵¹.

FZTning yana bir boshqaruv organi bo'lib, ochiq bozordagi operatsiyalar bo'yicha Federal qo'mita bo'lib, u federal zaxira banklar savdo qiladigan davlat qimmatli qog'ozlarini sotib olish va sotish strategiyalarini ishlab chiqish bilan shug'ullanadi.

AQSh FZTning iqtisodiy va siyosiy mustaqilligining ta'minlanganligi monetar siyosatning samaradorligini ta'minlashda muhim o'rin tutadi. AQSh FZT inflyatsion targetlashni qo'llamaydi, balki pul massasining o'sish sur'atlarini nazorat qiladi. AQSh Kongressi 1978-yilda FZTga pul massasining o'sish sur'atlarini nazorat qilish majburiyatini yukladi. Unga ko'ra, mamlakatda baholar barqarorligiga erishish maqsadida har yili kelgusi yil uchun pul massasining o'sish sur'ati FZT tomonidan e'lon qilinadi. O'zbekiston Respublikasida monetar siyosatni isloh qilish jarayonlarini shartli ravishda besh bosqichga bo'lish mumkin. Birinchi bosqich 1991-1994-yillarni qamrab oladi. Ushbu bosqich monetar siyosatni shakllantirishning dastlabki bosqichi hisoblanadi va bunda asosiy e'tibor

51 Красавина Л.Н. Международные валютно-кредитные и финансовые отношения. –М.: Юрайт, 2016. – 543 с.

ikki pog‘onali bank tizimini yaratish uchun zarur bo‘lgan shart-sharoitlarni yuzaga keltirish, davlat iqtisodiyotining ustuvor tarmoqlarini, shu jumladan, sanoat potensialini kuchaytirish va rag‘batlantirishga qaratildi.

I-bob bo‘yicha xulosa

1. Xalqaro bank amaliyoti va xo‘jalik yuritish tajribasidan ma’lumki, milliy valyuta sotib olish qobiliyatining tushib ketishi iqtisodiyotda inflyatsiya darajasining oshishiga va mamlakatda ishsizlik darajasining pasayishiga olib keladi va aksincha. Ya’ni, inflyatsiya darajasining pasayishi esa mamlakatda ishsizlik darajasining oshishiga olib keladi.

2. Pul-kredit siyosatining transmission mexanizmi samaradorligini oshirish Markaziy bankning eng asosiy maqsadlaridan biri bo‘ladi. Inflyatsion targetlash rejimiga o‘tishda foiz kanalining muhimligini inobatga olgan holda Markaziy bank transmission mexanizmning mazkur kanalini rivojlantirishga asosiy e’tibor qaratadi.

3. Markaziy bank tomonidan kunlik likvidlilik taqdim etishda overnayt hamda kunlik valyuta svop operatsiyalari, likvidlilik olishda esa kunlik depozit operatsiyalaridan foydalaniladi.

4. Mamlakatda ichki narxlar barqarorligi ta’minlanishi makroiqtisodiy va ijtimoiy barqarorlikning kafolati bo‘lib, iqtisodiy islohotlarni jadallashtirish va rivojlantirish dasturlarini muvaffaqiyatli amalga oshirishda zaruriy sharoit hisoblanadi.

5. Rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlarning markaziy banklari tajribalari hamda xalqaro moliya institutlari izlanishlari natijalari pul-kredit siyosatini amalga oshirishda narxlar barqarorligini ta’minlash maqsadining shak-shubhasiz ustuvorligini ko‘rsatmoqda.

6. Markaziy bank monetar siyosatni amalga oshirishda uning an’anaviy vositalaridan foydalanish muhim o‘rin tutadi. Nafaqat taraqqiy etgan mamlakatlarda, balki o‘tish iqtisodiyoti mamlakatlarida ham an’anaviy monetar instrumentlardan foydalanish monetar siyosatni amalga oshirishning tayanch

vositalari vazifasini bajarmoqda. Ichki bozorda narxlar barqarorligini ta'minlash vazifasi pul-kredit siyosatini amalga oshirishning aniq strategiyasi va batafsil rejasi bo'lishini hamda maqsadli ko'rsatkichlarga erishish uchun samarali instrumentlar va mexanizmlarni talab etadi.

II BOB. O'ZBEKISTONDA IQTISODIY FAOLLIKNI TA'MIN-LASHGA QARATILGAN FISKAL VA MONETAR SIYOSATLARINING HOZIRGI HOLATI

2.1-§ Iqtisodiy faollikni oshirishga qaratilgan davlat fiskal siyosati holati taxlili

Bozor prinsiplariga asoslagan mamlakatlar iqtisodiyotida davlatning tartibga soluvchi iqtisodiy dastaklari sifatida fiskal (budjet-soliq) va monetar (pul-kredit) siyosatlar e'tirof etiladi. Fiskal siyosat - bu ishlab chiqarishning real hajmini va bandligini o'zgartirish, inflyatsiyani nazorat qilish va iqtisodiy o'sishni tezlashtirish maqsadida davlat xarajatlari, soliqlar va davlat budjetini o'zgartirish orqali iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish tizimi hisoblanadi. Soliqlar va yig'imlar turlaridan qo'shilgan qiymat solig'i bilvosita soliq hisoblanib, uning haqiqiy yuki mahsulotni ishlab chiqaruvchiga emas, balki shu mahsulotning oxirgi iste'molchisiga to'g'ri keladi, chunki bu soliq mahsulot qiymatiga kiritilib, xaridor tomonidan to'lab beriladi. 2019 yil 1 yanvardan o'tgan yil yakunlari bo'yicha yillik oboroti (tushumi) 1 milliard so'mdan oshgan yoki yil davomida belgilangan chegaraviy miqdorga yetgan korxonalarni umumbelgilangan soliqlarni to'lashga o'tkazish, bunda, yillik oborot (tushum)ning 1 milliard so'm etib belgilangan


chegaraviy miqdori 3 yilda kamida bir marta qayta ko‘rib chiqilishi belgilangan⁵².

2.1-jadval

Umumbelgilangan soliq rejminga o‘tishning miqdori kiritilgan davrdagi hisob-kitobi⁵³

1000 000 000 so‘m	Eng kam ish haqi	01.11.2018	202730 so‘m	4932,7 barobar
	AQSh dollari kursi	01.01.2019 8	336.25 so‘m	120000\$

Belgilangan chegaraviy miqdorga yetgan korxonalarni umumbelgilangan soliqlarni to‘lashga o‘tkazish yillik aylanmasining miqdori joriy etilgan davrdagi eng kam ish haqining 4,9 baravardan ortiq va yana bir asosiy ko‘rsatkichlardan bo‘lgan xorijiy valyuta nisbatan qiymati bilan taqqoslanganda 120 ming AQSh dollariga to‘g‘ri kelganligi ko‘rishimiz mumkin. Soliq konsepsiyasini amaliyotga joriy etilishi bilan bevosita soliqlar ulushining jami soliq tushumlarida oshganligini ko‘rishimiz mumkin, bu albatta ijobiy natija chunki ushbu soliqlarning ulushi soliq stavkalarining pasayganligi daromadlar ko‘payishiga xizmat qilganligini anglatadi hamda QQS to‘lovchilar sonining 2016 yilga nisbatan 22 baravarga o‘sib, 2023 yil 1 oktabr holatiga 190 mingtani tashkil etgan.



2.1-rasm. Soliq to‘lovchilarning 2016-2023 yildagi dinamikasi⁵⁴


⁵² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 29.06.2018 yildagi “O‘zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi to‘g‘risida”gi PF-5468-son Farmoni.

⁵³ Muallif tomonidan makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar asosida tayyorlandi.

⁵⁴ Muallif tomonidan Soliq qo‘mitasi ma‘lumotlari asosida tayyorlandi.

Soliq rejimlardagi soliq to'lovchilarga nisbatan soliq yuki yuqori bo'lsa tadbirkorlik sub'ektlari faoliyatiga salbiy ta'sir etib, ularning faoliyatini cheklab qo'yadi va "xufiyona iqtisodiyot"ga o'tib ketishi mumkin bo'ladi. Pirovard natijada davlat daromadlarini shakllantiruvchi soliqlar va yig'implarni tushumlarni pasayishiga, mamlakatda ishlab chiqarish hajmlarining qisqarishiga oxir oqibatda yalpi ichki mahsulotning kamayishiga olib keladi.

O'zbekistonda mehnatga haq to'lash, pensiya tayinlash hamda soliq, davlat bojlari, jarimalar, yig'implar va boshqa to'lovlarni undirish o'rtasidagi shartlarning bog'liqligini bartaraf etish maqsadida 2019 yil 1 sentabrdan boshlab, ish haqining eng kam miqdori o'rniga mehnatga haq to'lashning eng kam miqdori va bazaviy hisoblash miqdorlari joriy qilingan.



2.2-Rasm. Mehnatga haq to'lashning eng kam miqdori va bazaviy hisoblash miqdorlari dinamikasi⁵⁵

Oxirgi iste'molchilarning daromadlik darajasi, yillar davomida mamlakatdagi inflyatsiya darajasi va buning hisobiga umumiy talabga ta'sir etuvchi omillar tahlil qilgan holda tadbirkorlik sub'ektlarining faoliyatlari doirasida amalga oshirgan tovaraylanmalarning bog'liq soliq rejimini belgilash mezonlari ko'rib chiqishni lozim deb topdik. Ish haqining eng kam miqdori o'rniga mehnatga haq to'lashning eng kam miqdori va bazaviy hisoblash miqdorlari joriy

⁵⁵ Muallif tomonidan Soliq qo'mitasi ma'lumotlari asosida tayyorlandi.

qilinishi aholini talabiga nisbatan iste'mol qilish imkoniyatini oshirish orqali taklif etuvchi tadbirkorlik sub'ektlarining tovaraylanmalarini oshishiga olib keldi. Umumbelgilangan soliq rejimiga o'tish, ya'ni qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchisi sifatida faoliyat yuritish uchun miqdorning ushbu mezon kiritilgan davrdagi ko'rsatkichlar bugungi kundagi ma'lumotlar bilan hisob-kitob qilinganda farq borligi aniqlandi. Xususan, bugungi kundagi bazaviy hisoblash miqdoriga nisbatan 1,6 mlrd.so'mni, joriy qilingan ish haqining eng kam miqdoriga nisbatan 4,8 mlrd.so'mni va AQSh dollari ekvivalentida 1,5 mlrd.so'mni yoki o'rta hisobda 2,6 mlrd.so'mni tashkil etmoqda.

2.2-jadval

Umumbelgilangan soliq rejimiga o'tishning bugungi kundagi miqdorining hisob-kitobi⁵⁶, so'mda

4932,7 barobar	Bazaviy hisoblash miqdori	01.11.2023	330000 so'm	1627 000 000
	Eng kam miqdor		980000 so'm	4834 046 000
120000\$	AQSh dollari kursi	06.11.2023	12254 so'm	1 470 480 000
O'rta hisobda				2643 842 000


Xalqaro amaliyotda mavjud xolatlar tahlil qilinganda, xususan Rossiya Federatsiyasida soddalashtirilgan soliq rejimi tatbiq etiladigan korxona va yakka tartibdagi tadbirkorlar qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchisi hisoblanmaydi. Bunda, yillik tovar aylanmasi 251,4 mln.rublan (2,7 mln. AQSh dollari) va ishlovchi xodimlar soni 130 nafardan oshmasligi hamda Qozog'iston Respublikasi Soliq kodeksi 82-modda 4-bandiga asosan qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha ro'yxatdan o'tish miqdori eng kam ish haqining 20 000 baravari yoki 69 000 000 tenge etib

⁵⁶ Muallif tomonidan iqtisodiy ko'rsatkichlar asosida tayyorlandi.

(147 366.96 AQSh dollari) belgilangan (ma'lumot uchun 2023 yilda EKI 3450 teng). Yuqoridagi tahlillardan ko'rinib turibdiki, kichik tadbirkorlik sub'ektlariga soliq yukini teng taqsimlash maqsadida umumbelgilangan soliq rejimiga o'tish, ya'ni qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchisi sifatida faoliyat yuritish uchun amaldagi mezon miqdorning qayta ko'rib chiqish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Bunda, aylanmadan olinadigan soliq to'lash huquqini saqlab qolish uchun faoliyat joyida xuddi shu faoliyatni amalga oshiruvchi boshqa soliq to'lovchi bilan almashtirishni yoxud faoliyatni ikki yoki undan ortiq shaxslar o'rtasida bo'lishni amalga oshirish biznesni bo'lish deb tan olish lozim bo'ladi.

Soliq mexanizmidan foydalanish asosida innovatsion rivojlanishni ta'minlash odatda soliq imtiyozlari va yengilliklarining innovatsion korxonalar faoliyatiga rag'batlantiruvchi ta'siriga asoslanadi. Ayni paytda, soliqlar iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish vositasi sifatida foydalanilishi soliqlarning tartibga solish, shu jumladan rag'batlantirish, cheklash va qoplab berish funksiyalaridan foydalanishga asoslangan. Tartibga solish funksiyasining ta'siri soliq to'lovchilarning turli ob'ektlari va toifalarini notekis soliqqa tortilishi bilan asoslanadi. Soliq yukining notekisligi, o'z navbatida, kerakli samarani yaratadi. Bunda, ustuvor yo'nalishda soliq yukini yumshatish orqali davlat ushbu yo'nalishda iqtisodiy rivojlanish uchun yanada qulay sharoitlar yaratadi, boshqa yo'nalishda soliq yukining oshishi rivojlanish uchun qo'shimcha to'siqlarni keltirib chiqaradi. Ta'kidlash joizki, iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirishda nafaqat rag'batlantirish (pasaytirilgan soliq stavkalari, soliq ta'tillari, soliq chegirmalari va boshqa imtiyozlar) xususiyatiga ega choralarni qo'llash, balki innovatsion faollikni oshirish bo'yicha choralarni ko'rmayotgan sub'ektlarga nisbatan cheklash (soliq stavkalarini oshirish, qo'shimcha soliqlarni joriy etish, imtiyozlardan foydalanishga cheklovlar) hamda qoplab berish (0 stavkasini qo'llash) xususiyatiga ega mexanizmlarni qo'llash maqsadga muvofiq. Iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirishni soliqlar vositasida rag'batlantirishning samaradorligi avvalo rag'batlantirish ta'siri yo'naltirilishi kerak bo'lgan soliq to'lovchilar doirasini aniq belgilash va tegishli soliq mexanizmlari majmuiga bog'liq. Innovatsion iqtisodiyot

va uning ishtirokchilari bilan bog‘liq yagona terminologiyaning mavjud emasligi iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirishni soliqlar vositasida rag‘batlantirish samaradorligini sezilarli darajada pasaytiradi. Iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirishga qaratilgan soliq qonunchiligi tahlili shuni ko‘rsatdiki, «innovatsion korxona», uni aniqlash mezonlari va yagona reestri qonun hujjatlari bilan aniq belgilanmagan. Shuning uchun soliq to‘lovchilarga innovatsion korxona maqomini berish algoritmi taklif etilmoqda.



2.3-rasm. Soliq to‘lovchiga innovatsion korxona maqomini berish algoritmi⁵⁷

Shuningdek, innovatsion faoliyatni voqealar zanjiri sifatida ham ifodalash mumkin: yangi bilimlar (g‘oyalar) paydo bo‘lishi-g‘oyaning intellektual mahsulotga (innovatsiyalarga) aylanishi-innovatsiyalarning ishlab chiqarishga joriy etilishi-innovatsiyalarning tijoratlashtiruvi (innovatsion mahsulotni tijoriy jihatidan muvaffaqiyatli ishlab chiqarish)-innovatsion mahsulotning iste‘moli. Ushbu zanjirning quyidagi uch asosiy pog‘onasini soliqlar orqali rag‘batlantirish

⁵⁷ Tadqiqot davomidla muallif tomonidan olib borilgan izlaniшlar asosida shakllantirilgan.

mumkin:

innovatsiyalarni ishlab chiqarish; innovatsiyalarni ishlab chiqarishga joriy qilish; innovatsiyalarning tijoratlashtiruvi; innovatsion mahsulot iste'moli. Iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirishni soliqlar vositasida rag'batlantirishning belgilangan yo'nalishlari faoliyatini rag'batlantirish talab etiladigan sub'ektlar doirasini aniqlashga imkon berdi. Bularga quyidagilar kiradi:

1) Innovatsiyalarni yaratuvchi korxonalar. Hozirgi kunda iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirishni rag'batlantiradigan soliq vositalarining aksariyati ushbu toifadagi korxonalar faoliyatiga qaratilgan. Biroq, iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirishni soliqlar orqali rag'batlantirishning natijadorligi rag'batlantiruvchi ta'sirini boshqa toifadagi sub'ektlarga ham adekvat taqsimlashga bog'liq. Aks holda, iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirish uchun muhim bo'lgan «innovatsiyalarni ishlab chiqarish-joriy qilishtijoratlashtirish-iste'mol» zanjiri uziladi.


2) Innovatsion korxonalar yoki innovatsiyalarni ishlab chiqarishga joriy qiluvchi tashkilotlar. Fikrimizcha, ushbu toifadagi sub'ektlar ko'proq rag'batlantirishga muhtoj. Chunki, ishlab chiqarishga innovatsiyalarni joriy etish iqtisodiyotni innovatsion rivojlanishini ta'minlashning asosiy shartidir. Innovatsiyalar ishlab chiqarishni yoki innovatsion mahsulotlarni iste'mol qilishni alohida rag'batlantirish innovatsiyalarni eksport qilishga yoki innovatsion mahsulotlarni import qilishga olib kelishi mumkin.

3) Innovatsion mahsulot iste'molchilari bo'lgan korxonalar. Hozirgi kunda bunday korxonalar O'zbekistonda kam va ular ham innovatsion mahsulotlarga bo'lgan talabni oshirish uchun soliqlar vositasida rag'batlantirishga muhtoj.

4) Innovatsion infratuzilma korxonalari. Ushbu toifaning soliqlar vositasida rag'batlantirish talab etiladigan sub'ektlar tarkibiga kiritilishi innovatsion infratuzilma korxonalarning faoliyati innovatsion faoliyatning barcha bosqichlari bilan bog'liq bo'lib, innovatsion iqtisodiyotni normal ishlashi uchun muhimdir.

Innovatsion rivojlanishni rag'batlantirish bo'yicha amalga oshirilgan xorijiy tajriba tahlili natijasida innovatsion faoliyatning turli bosqichlarini qamrab olish

nuqtai nazaridan, shuningdek, nafaqat bevosita innovatsion korxonalarga, balki innovatsion faoliyatning boshqa sub'ektlariga ham rag'batlantiruvchi ta'siri nuqtai nazaridan soliq mexanizmlaridan foydalanishga kompleks yondashuvi aniqlandi. Rivojlangan mamlakatlarning bunday tajribasini soliqlar vositasida rag'batlantirish masalalarida qo'llanishi mamlakatimiz iqtisodiyotini innovatsion rivojlantirishga yordam beradigan samarali mexanizmga aylanishi mumkin. Innovatsion faoliyatning soliqlar vositasida rag'batlantirish samarasizligining eng muhim sababi soliq imtiyozlarini ishlab chiqish va taqdim etishga kompleks yondashuvning mavjud emasligidadir. Innovatsion faoliyatni rag'batlantiradigan mavjud soliq imtiyozlari orasida aksariyati innovatsion faoliyatning birinchi bosqichida, ya'ni innovatsiyalarni yaratish bosqichida amal qiladi. Ilmiy-tadqiqot natijalarini joriy etish va innovatsion mahsulotlarni iste'mol qilishni rag'batlantirishga qaratilgan samarali soliq mexanizmlar esa yetarli emas. Amalga oshirilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, innovatsion iqtisodiyotning turli sub'ektlaridan ba'zilar ko'proq, boshqalari kamroq darajada soliqlar vositasida rag'batlantirishga muhtoj. Demak, innovatsionlik darajasi past bo'lgan bilimlarning kelib chiqish bosqichida innovatsiyalarni yaratadigan korxonalarni rag'batlantirish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bilimlarni ishlab chiqarishga joriy qilish, ya'ni olingan bilimlarni aniq innovatsion mahsulotga yoki texnologiyaga aylanishi bosqichida innovatsiyalarni joriy qiluvchi korxonalarni rag'batlantirish zarur.



2.3-rasm. Korxonalarning innovatsion faoliyatiga taqdim etilgan soliq imtiyozlari va erishilgan natijalarning o'sish sur'atlari, %da

Shuningdek, O'zbekistonda ilmiy tadqiqot va innovatsion faoliyatni soliq mexanizmi orqali tartibga solish, shu jumladan rag'batlantirish amaliyotini tahlil qilish natijasida shunday xulosaga kelish mumkinki, rag'batlantirish ob'ektlari aniq bo'lmasdan, erishilishi lozim bo'lgan ko'rsatkichlar belgilanmasdan, mazkur faoliyatlar boshlanishi bilanoq, muayyan va nomuayyan muddatga asosan QQS, foyda solig'i va YaST (aylanmadan soliq) kabi soliq turlaridan to'liq ozod qilish shaklidagi soliq imtiyozlari qo'llanilib kelingan. Zero, hozirgi kunda xalqaro tajribada ushbu faoliyat turlarini samarali rag'batlantirish instrumentlari sifatida asosan soliq kreditlari, soliq chegirmalari, soliq ta'tillari, pasaytirilgan va tabaqalashtirilgan soliq stavkalari qo'llanilmoqda. 6-rasmdagi ko'rsatkichlar dalolat berishicha, innovatsion faoliyatga amalga oshirilgan xarajatlarning o'rtacha o'sish sur'atlari soliq imtiyozlarining o'rtacha o'sish sur'atlariga monand kelsada, innovatsiyaning asosiy sharti hisoblangan innovatsion mahsulotlar, xizmatlar va ishlarning hajmi hamda innovatsiyalar joriy qilinishining o'rtacha o'sish sur'atlari qariyb 3 baravar past bo'lgan. Bunga birinchi sabab soliq imtiyozlarining samarali

shaklidan foydalanilmagan bo'lsa, ikkinchi sabab soliq imtiyozlari innovatsion jarayonning barcha bosqichlarini qamrab olmaganligidir. Iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirishni soliqlar vositasida rag'batlantirishda rag'batlantirish mexanizmlari samaradorligini baholash muhim ahamiyat kasb etadi. Soliq imtiyozlari samaradorligini baholashning mavjud usullarini o'rganish shuni ko'rsatdiki, ularning aksariyati mamlakatimizda innovatsion korxonalar uchun taqdim etilgan soliq imtiyozlarining o'ziga xos xususiyatlari tufayli foydalanish uchun mos emas. Soliq imtiyozlari samaradorligini baholash uslubiyoti ko'plab iqtisodchi olimlar, tadqiqotchilar va mutaxassislar tomonidan tadqiq etilgan. Ulardan ayrimlari korxonalar innovatsion faolligini rag'batlantirishning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda, miqdoriy ko'rsatkichlar orqali baholash uslubini ilgari surgan. Mazkur uslubiyotlarni tadqiq etish asosida aynan korxonalarning innovatsion faolligini qo'llab-quvvatlashga taqdim etilgan soliq imtiyozlari samaradorligi, tadqiqotlar va ishlanmalarga qilingan xarajatlar samaradorligi, xarajatlarning innovatsion mahsulotga aylanishi darajasi hamda iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirishga soliq imtiyozlarining umumiy ta'sir etish samaradorligini baholashning takomillashtirilgan uch koeffitsienti taklif qilinadi (2.3-jadval).

Innovatsion rivojlanishni rag'batlantirish bo'yicha amalga oshirilgan xorijiy tajriba tahlili natijasida innovatsion faoliyatning turli bosqichlarini qamrab olish nuqtai nazaridan, shuningdek, nafaqat bevosita innovatsion korxonalarga, balki innovatsion faoliyatning boshqa sub'ektlariga ham rag'batlantiruvchi ta'siri nuqtai nazaridan soliq mexanizmlaridan foydalanishga kompleks yondashuvi aniqlandi. Rivojlangan mamlakatlarning bunday tajribasini soliqlar vositasida rag'batlantirish masalalarida qo'llanishi mamlakatimiz iqtisodiyotini innovatsion rivojlantirishga yordam beradigan samarali mexanizmga aylanishi mumkin.

2.3-jadval

Innovatsion korxonalar uchun soliq imtiyozlari samaradorligini baholash koeffitsientlari

Koeffitsient, iqtisodiy ahamiyati	Shartli belgilanishi	Me'yoriy
-----------------------------------	----------------------	----------

va hisob-kitob formulasi		chegarasi
K1 - O'ti / Yb Davlat tomonidan korxonalarining innovatsion faolligini qo'llabquvvatlashga taqdim etilgan soliq imtiyozlari (yo'naltirilgan har bir so'm) samaradorligi	O'ti – soliq imtiyozlari joriy qilinishi hisobiga korxonalarining tadqiqot va ishlanmalarga yo'naltirgan investitsiyalarining o'sishi (so'mda); Yb – soliq imtiyozlari joriy qilinishi natijasida budjetdagi (davlatning soliqli daromadlari qisqarishi) yo'qotishlar (so'mda)	Birdan katta yoki unga teng
K2 - O'Si / O'Sti Korxona-larning tadqiqot va ishlanmalarga qilingan xarajatlari samaradorligi, ularning innovatsion mahsulotga aylanishi darajasi (ulushi)	O'Si – soliq imtiyozlari taqdim etilishi natijasida innovatsion mahsulot hajmining o'sish sur'ati %; O'Sti – soliq imtiyozlaridan foydalanishi natijasida tadqiqot va ishlanmalarga xarajatlar hajmining o'sish sur'ati %.	Birdan katta yoki unga teng
K3 - STim / YaIM K3 - IHim / YaIM Iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirishga soliq imtiyozlarining umumiy ta'sir etish samaradorligi	YaIM – YaIM hajmi (so'mda); IHim - soliq imtiyozlaridan foydalangan korxonalarining innovatsion mahsulotlar, ishlar, xizmatlar hajmi (so'mda). STim - soliq imtiyozlaridan foydalangan korxonalarining innovatsion mahsulotlarini (tovar, ishlar, xizmat) sotishdan sof tushumi (so'mda).	$0 \leq K3 \leq 1$

Innovatsion faoliyatning soliqlar vositasida rag'batlantirish samarasizligining eng muhim sababi soliq imtiyozlarini ishlab chiqish va taqdim etishga kompleks yondashuvning mavjud emasligidadir. Innovatsion faoliyatni rag'batlantiradigan mavjud soliq imtiyozlari orasida aksariyati innovatsion faoliyatning birinchi bosqichida, ya'ni innovatsiyalarni yaratish bosqichida amal qiladi. Ilmiy-tadqiqot natijalarini joriy etish va innovatsion mahsulotlarni iste'mol qilishni rag'batlantirishga qaratilgan samarali soliq mexanizmlar esa yetarli emas. Amalga oshirilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, innovatsion iqtisodiyotning turli sub'ektlaridan ba'zilar ko'proq, boshqalari kamroq darajada soliqlar vositasida rag'batlantirishga muhtoj. Demak, innovatsionlik darajasi past bo'lgan bilimlarning kelib chiqish bosqichida innovatsiyalarni yaratadigan korxonalarni rag'batlantirish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bilimlarni ishlab chiqarishga joriy qilish, ya'ni olingan bilimlarni aniq innovatsion mahsulotga yoki texnologiyaga aylanishi bosqichida innovatsiyalarni joriy qiluvchi korxonalarni rag'batlantirish zarur.


2.2. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining monetar siyosati va uning iqtisodiy faollikka ta’siri

Monetar siyosat mamlakat yalpi ichki mahsulotining (YaIM) barqaror o‘shishini ta’minlashda, milliy bank tizimidagi likvidlik muammosini hal qilishda va inflyatsiyani jilovlashda muhim o‘rin tutadi. Ayniqsa, dunyoning ko‘plab mamlakatlarida moliyaviy inqiroz davom etayotgan hozirgi sharoitda monetar siyosatni takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Monetar siyosatning makroiqtisodiy o‘shish sur’atlarining barqarorligini ta’minlashdagi ahamiyati, avvalo, milliy valyutaning barqarorligini ta’minlash va inflyatsiya darajasining oshishiga yo‘l qo‘ymaslikda namoyon bo‘ladi. Milliy valyutaning qadrsizlanish sur’atining yuqori ekanligi importning qimmatlashishiga olib keladi va buning natijasida investitsiya me’yorining pasayishi yuz berishi mumkin. O‘z navbatida, investitsiya me’yorining pasayishi yalpi ichki mahsulotning o‘shish sur’atini pasayishiga va ayrim hollarda iqtisodiyotni retsessiya holatiga tushib qolishiga olib keladi.

Pul-kredit siyosati samaradorligi bir tomondan, moliyaviy vositachilikning yetarli darajada rivojlanmaganligi hisobiga aktivlar narxi shakllanishida pul bozoridagi foiz stavkalarining ta’sirchanlik darajasini pastligi bilan cheklansa, ikkinchi tomondan, bank tizimida depozitlar, kreditlar va majburiyatlar dollarlashuvining yuqoriligi, imtiyozli kreditlash amaliyoti va inflyatsion kutilmalarning jilovlanmaganligi kabi sabablar ta’sirida yuqori bo‘lmaydi.

O‘zbekistonda moliyaviy dollarlashuv darajasi aksariyat MDH davlatlaridagi kabi yuqori shakllangan bo‘lib, so‘nggi yillarda yuritilayotgan pul-kredit va fiskal siyosat ta’sirida pasayib bormoqda (1-rasm).




2.4-rasm. O'zbekiston Respublikasida depozitlarning dollarlashuvi dinamikasi⁵⁸

Xususan, iqtisodiy o'tish davrida amalga oshirilayotgan tarkibiy o'zgarishlar, islohotlar va loyihalarni moliyaviy qo'llab-quvvatlashda tashqi manbalardan keng foydalanilganligi, global foiz stavkalarining pastligi hisobiga 2018-2021 yillarda tijorat banklari tomonidan tashqi kredit liniyalari faol jalb etiladi. Biroq, global inflyatsiyaning yuqori darajada shakllanishiga javoban 2022 yilning ikkinchi yarmidan boshlab yetakchi davlatlar tomonidan bazaviy foiz stavkalarining sezilarli oshirilishi hisobiga tashqi resurslar narxi qimmatlashib (2.4-rasm), banklarning tashqi kredit liniyalarini jalb etish imkoniyati pasayib bormoqda. Natijada, kreditlar dollarlashuvi 2021 yilning dekabr oyidagi 47,7 foizdan joriy yilning sentabriga kelib 43,6 foizgacha pasaydi. Shu bilan birga, tashqi moliyaviy resurslar narxining yuqori saqlanishi va ochiq valyuta pozitsiyalari bo'yicha cheklovlar banklarning ichki resurslar hisobidan xorijiy

⁵⁸

https://cbu.uz/upload/medialibrary/51f/wnliwwq12skjw4tnbb78b4rmiztk04bw/Asosiy_yunalishlar_31.10.2023_loyi_kha.pdf. 59-bet.

valyutada kredit berish imkoniyatini qisqartirishi sababli kelgusi yillarda kreditlar dollarlashuvining yanada pasayishi kutilmoqda. Iqtisodiyotda valyuta kursi qadrsizlanishi va kutilmalar o'rtasida assimetriyaning mavjudligi, uzoq yillar davomida depozitlar dollarlashuvining yuqori (2018-2021 yillarda o'rtacha 40-42 foiz) shakllanishiga sabab bo'lgan (2.5-rasm).




2.5-rasm. O'zbekiston Respublikasida valyutadagi kreditlar bo'yicha foiz stavkalari⁵⁹

So'nggi yillarda nisbatan qat'iy pul-kredit sharoitlarining ta'minlanishi hisobiga milliy valyutadagi muddatli depozitlar bo'yicha yuqori ijobiy real foiz stavkalarining shakllanishi va so'mdagi muddatli omonatlar foiz stavkalarining valyuta kursining yillik qadrsizlanishidan ham yuqoriligi (2.5-rasm) aholining so'mda jamg'arish kayfiyatiga ijobiy ta'sir o'tkazdi. Natijada, depozitlar dollarlashuvi 2021 yil yakunidagi 38,9 foizdan 2023 yil 1 oktabr holatiga 30,4 foizgacha, shu jumladan, aholi omonatlarining dollarlashuvi 22,3 foizgacha pasaydi. Kelgusida iqtisodiyotda foiz stavkalarining real hisobda ijobiy saqlanishi, valyuta kursining kutilayotgan barqaror shakllanishi va bank tizimida ichki resurslarga bo'lgan talabning yuqoriligi milliy valyutadagi depozitlarning yuqori sur'atlarda o'sishiga va depozitlar dollarlashuvning yanada pasayishiga xizmat qiladi. Pul-kredit siyosati samaradorligini cheklovchi yana bir muhim omil

⁵⁹

https://cbu.uz/upload/medialibrary/51f/wnliwwq12skjw4tnbb78b4rmiztk04bw/Asosiy_yunalishlar_31.10.2023_loyi_kha.pdf. 59-bet.


imtiyozli kreditlash amaliyoti hisoblanadi. Imtiyozli kredit deganda, milliy valyutada Markaziy bank asosiy stavkasi yoki undan past darajada va xorijiy valyutada davlat kafolati asosida jalb etilgan resurslar hisobidan ajratilgan kreditlar tushuniladi. Hozirgi paytda aholi turmush darajasini yaxshilash, ularning kichik tadbirkorlik g'oyalarini qo'llab-quvvatlash va investitsion loyihalarni moliyalashtirish maqsadida turli davlat dasturlari doirasida imtiyozli kreditlash amaliyotini bosqichma-bosqich bozor tamoyillariga o'tkazish bo'yicha choralar ko'rilmogda.



2.6-rasm. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan ajratilgan kreditlarda imtiyozli kreditlar ulushi⁶⁰

Bu tadbirlar doirasida imtiyozli kreditlarning ulushi yildan-yilga pasayib borayotgan bo'lsa ham, nisbatan yuqoriligicha saqlanib qolmoqda. Xususan, ajratilgan jami kreditlar hajmida imtiyozli kreditlar ulushi 2018 yildagi 49,1 foizdan joriy yilning dastlabki 9 oyida 17,5 foizgacha pasaygan bo'lsa, imtiyozli kreditlarning jami kredit qo'yilmalaridagi ulushi 2018 yil yakunidagi 55,8 foizdan joriy yil 1 oktabr holatiga 29,5 foizgacha qisqardi (2.6-2.7-rasmlar).

⁶⁰ https://cbu.uz/upload/media/wnliwwq12skjw4tnbb78b4rmiztk04bw/Asosiy_yunalishlar_31.10.2023_loyikha.pdf.



2.7-rasm. Kredit qo'yimalari qoldig'ida imtiyozli kreditlar ulushi⁶¹

Bu tadbirlar doirasida imtiyozli kreditlarning ulushi yildan-yilga pasayib borayotgan bo'lsa ham, nisbatan yuqoriligicha saqlanib qolmoqda. Xususan, ajratilgan jami kreditlar hajmida imtiyozli kreditlar ulushi 2018 yildagi 49,1 foizdan joriy yilning dastlabki 9 oyida 17,5 foizgacha pasaygan bo'lsa, imtiyozli kreditlarning jami kredit qo'yimalaridagi ulushi 2018 yil yakunidagi 55,8 foizdan joriy yil 1 oktabr holatiga 29,5 foizgacha qisqardi (5-6-rasmlar). Umuman olganda, pul-kredit siyosati transmissiyasi samaradorligini oshirishda inflyatsiyani pasaytirish bo'yicha chora-tadbirlarning davom ettirilishi, milliy valyutadagi ijobiy real foiz stavkalarining saqlanib qolishi, kapital bozorlarini va alternativ jamg'arish instrumentlarini rivojlantirish bo'yicha tizimli choralarning amalga oshirilishining dolzarbligi kelgusi yillarda ham saqlanib qoladi.

Bugungi kunda ko'plab Markaziy banklar samarali pul-kredit siyosatini yuritish maqsadida iqtisodiyot sub'ektlarining inflyatsion kutilmalarini o'rganib, unga ta'sir qiluvchi asosiy omillarni doimiy ravishda tahlil qilib boradilar. Inflyatsiya darajasi shakllanishida aholi va tadbirkorlarning inflyatsion kutilmalari asosiy omillardan biri hisoblanib, uy xo'jaliklarining iste'mol, investitsiya hamda ish haqi bo'yicha kutilmalari, shuningdek, tadbirkorlarning narx siyosati bo'yicha qarorlarini qabul qilishda muhim ahamiyatga ega. Shu sababli, markaziy banklar

⁶¹ https://cbu.uz/upload/media/wnliwwq12skjw4tnbb78b4rmiztk04bw/Asosiy_yunalishlar_31.10.2023_loyikha.pdf.

uchun past va barqaror inflyatsiya darajasiga erishishda iqtisodiy agentlarning uzoq muddatli inflyatsion kutilmalarini jilovlashlari muhim ahamiyat kasb etadi.

Makroiqtisodiy omillarning inflyatsion kutilmalarga ta'sirini baholash bo'yicha ko'plab tahlillar olib borilgan. Xususan, Jonung (1981) oddiy regressiya modelidan (Ordinary Least Squares - OLS) foydalangan holda Shvesiya aholisining inflyatsion kutilmalariga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni tahlil qilgan. Natijalar sezilgan inflyatsiya darajasining 1 foiz bandga oshishi shved aholisig inflyatsion kutilmalarining 0,5 foizga oshishiga olib kelishini ko'rsatgan. Shuningdek, Sommer va Troyong (2009) ham ushbu davlat misolida tizimli vektorli avtoregressiya (Vector Autoregressive - VAR) modelini qo'llagan holda inflyatsiya darajasi o'zgarishining inflyatsion kutilmalarga ta'siri yuzasidan tahlillar o'tkazgan. Model natijalariga ko'ra, inflyatsiya darajasining 1 foiz bandga o'sishi, shved aholisi narxlar bo'yicha kutilmalarining 0,4 foizga ko'tarilishiga sabab bo'ladi. Mamlakatimizda ham iqtisodiy agentlarning inflyatsion kutilmalariga ta'sir ko'rsatuvchi makroiqtisodiy omillarni aniqlash bo'yicha tahlillar amalga oshirib boriladi. Model tenglamalariga almashuv kursi o'zgarishi, tartibga solinadigan narxlar, sezilgan hamda umumiy inflyatsiya darajasi, qisqa muddatli foiz stavkalari, YaIMning real hajmi hamda tashqi qarz kabi o'zgaruvchilar kiritiladi. Tahlillarda o'zgaruvchilarning koeffitsientlari 2018 yilning yanvar oyidan 2023 yilning sentabr oyigacha bo'lgan davrdagi ma'lumotlar asosida OLS va VAR modellaridan foydalanib miqdoriy baholash amalga oshirildi.

OLS modelining aholi inflyatsion kutilmalari tenglamasi:

$$hh_E\pi t = \gamma_0 + \gamma_1 Per_inft + \gamma_2 Inft + \gamma_3 Excht + \gamma_4 Regt + \gamma_5 Inter_ratet + \gamma_6(L)rgdpt + \gamma_7(L)debt + \varepsilon_t$$

OLS modelining korxonalar inflyatsion kutilmalari tenglamasi:

$$bs_E\pi t = \gamma_0 + \gamma_1 Per_inft + \gamma_2 Inft + \gamma_3 Excht + \gamma_4 Regt + \gamma_5 Inter_ratet + \gamma_6(L)rgdpt + \gamma_7(L)debt + \varepsilon_t$$

2.4-jadval

Model tenglamalariga kiritilgan o'zgaruvchilar ro'yxati

Inflyatsion kutilmalar omillari	Shartli belgisi
---------------------------------	-----------------

Aholining inflyatsion kutilmalari	$hh \ E\pi_t$
Tadbirkorlik sub'ektlarining inflyatsion kutilmalari	$bs \ E\pi_t$
Sezilgan inflyatsiya darajasi	$Per \ inf_t$
Inflyatsiya	In_t
Almashuv kursi	$Exch_t$
Tartibga solinadigan narxlar o'zgarishi	Reg_t
Qisqa muddatli foiz stavkasi	$Inter \ rate_t$
YalMning real o'sishi	$rgdp_t$
Tashqi qarz	$debt_t$

Empirik natijalar valyuta kursi hamda tartibga solinadigan narxlar o'zgarishining aholi va tadbirkorlarning inflyatsion kutilmalariga statistik jihatdan sezilarli va ijobiy ta'sir ko'rsatishini ko'rsatmoqda. Valyuta kursining 1 foiz bandga qadrsizlanishi aholi inflyatsion kutilmalarining 0,1 foizga, tadbirkorlar inflyatsion kutilmalarining 0,15 foizga oshishiga olib kelishi aniqlandi. Tartibga solinadigan narxlarning 1 foiz bandga oshirilishi esa biznes vakillari kutilmalarining 0,13 foizga ko'tarilishiga sabab bo'ladi. Shuningdek, sezilgan inflyatsiyaning 1 foiz bandga o'sishi aholi va tadbirkorlar inflyatsion kutilmalarining mos ravishda 0,54 va 0,56 foizga oshishiga olib keladi. Tahlillar joriy inflyatsiyaning 1 foiz bandga tezlashishi natijasida uy xo'jaliklari kutilmalarining 0,2 foizga, biznes vakillari kutilmalarining esa 0,4 foizga oshishiga sabab bo'lishini ko'rsatmoqda.

2.5- jadval

Inflyatsion kutilmalar regressiya modeli natijalari⁶²

Inflyatsion kutilmalar omillari	Aholi	Tadbirkor
Sezilgan inflyatsiya darajasi	0.537***	0.564***
Inflyatsiya	0.185**	0.394***
Almashuv kursi	0.112***	0.145***
Tartibga solinadigan narxlar o'zgarishi	0.128***	0.133***
Qisqa muddatli foiz stavkasi	-0.165	-0.02
YalMning real o'sishi	2.993***	2.114***
Tashqi qarz	-2.063*	-1.761
Kuzatuvlar soni	60	60
R-kvadrati ⁶³	0.85	0.88

Shuningdek, inflyatsion kutilmalarning iqtisodiy o'sish bilan to'g'ri bog'liqlik, qisqa muddatli foiz stavkasi o'zgarishi bilan esa teskari bog'liqlik

⁶² Muallif hisob-kitoblari

⁶³ Regressiya modelida R-kvadrat koeffitsiyenti mustaqil o'zgaruvchilarning tanlangan kombinatsiyasi qaram o'zgaruvchidagi dispersiyani qanchalik darajada tushuntirib berishini ko'rsatadi. R-kvadrat koeffitsiyenti qiymatining diapazoni 0 dan 1 gacha.

mavjudligi aniqlandi. Vektorli avtoregressiya modeli (VAR) natijalari Iqtisodiy agentlarning inflyatsion kutilmalari valyuta kursi va tartibga solinadigan narxlar o'zgarishiga ta'sirchanligi VAR modeli orqali baholandi.

VAR modelining tenglamasi:


$$Y_t n = \alpha X_t n + \beta Z_t n + \varepsilon_t, n \in 1, 6$$

Bunda:

$Y_t n$ - endogen o'zgaruvchilarning vektori;

$X_t n$ - n guruhi uchun endogen o'zgaruvchilarning ajratilgan qiymatlari matritsasi;

$Z_t n$ - ekzogen o'zgaruvchilarning vektori.



2.8-rasm. Aholi inflyatsion kutilmalarining makroiqtisodiy ko'rsatkichlar o'zgarishiga ta'sirchanligi⁶⁴

Model natijalari milliy valyuta kursining o'rtacha qiymatidan 1 birlik standart chetlanishi aholi inflyatsion kutilmalarini bir chorakda 0,25 foiz bandga oshishiga olib kelsa, tartibga solinadigan narxlarning o'rtacha qiymatidan 1

⁶⁴ Muallif tomonidan dasturiy ta'minot orqali hisob-kitob qilingan..

standart chetlanishi kelgusi chorakda kutilmalarni 0,2 foiz bandga o'sishiga sabab bo'ladi. Iqtisodiy sub'ektlarning inflyatsion kutilmalari va umumiy inflyatsiya o'rtasida uzoq muddatli ijobiy bog'liqlik mavjud bo'lib, inflyatsiya darajasining o'rtacha qiymatidan 1 standart chetlanishi aholi kutilmalarini 0,2 foiz bandga oshishiga olib keladi. Bunda to'liq ta'sir ikki chorakdan keyin vujudga keladi. Milliy valyuta kursining o'rtacha qiymatidan 1 standart chetlanishi mahalliy tadbirkorlar inflyatsion kutilmalarining bir chorak davomida 0,4 foiz bandga oshishiga sabab bo'ladi. Shuningdek, tartibga solinadigan narxlarning o'rtacha qiymatidan 1 standart chetlanishi kelgusi 2 oyda tadbirkorlarning narxlar bo'yicha kutilmalarini 0,2 foiz bandga o'sishiga ta'sir ko'rsatadi. Joriy inflyatsiyani o'rtacha qiymatidan 1 standart chetlanishi korxonalarining inflyatsion kutilmalarini 0,1 foiz bandga oshiradi va bu ta'sir 12 oygacha davom etadi.

2.3-§ Soliqlarning korxonalar iqtisodiy faollikni ta'minlash holati taxlili

Davlatning qator vazifalarini mablag' bilan ta'minlashda, uning ijtimoiy-iqtisodiy funksiyalarini moliyalashtirishda asosiy moliyaviy manba - soliqlar hisoblanadi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida davlatning tadbirkorlik sub'ektlari bilan yuzaga keladigan munosabatlarida soliqlar muhim ahamiyatga ega. Bunda umumbelgilangan tartibda soliq tulovchilarning bevosita moliyaviy natijalariga ta'sir etuvchi foyda solig'i ular investitsion faoliyatini rag'batlantirishda samarali dastak bo'lib hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoev ta'kidlab o'tganlaridek, "mamlakatimizga investitsiyalarni jalb qilish borasidagi ishlarning samaradorligi, bu sohadagi muammolar, to'siq va g'ovlarni bartaraf etish, investitsiyaviy muhitni yaxshilash bo'yicha tegishli idoralarning mas'uliyatini oshirish choralari ko'rishi maqsadga muvofiq bo'ladi"⁶⁵. Bu o'z navbatida, korxonalar "bo'yicha maqsadli dasturlar, ustuvor investitsiya loyihalari va boshqa

⁶⁵ Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. - Toshkent: «O'zbekiston» NMIU, 2017. – 92 b.

dolzarb vazifalar bajarilishini tanqidiy tahlil qilish yuzasidan amaldagi mavjud tizim samaradorligini oshirishimiz lozim”⁶⁶.

Iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirishda taqdim etiladigan soliq imtiyozlari muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu yunalishda real sektor korxonalarga foyda solig‘i buyicha berilayotgan investitsion soliq imtiyozlarni aloxida ta’kidlab o‘tish joizdir. Investitsion soliq imtiyozi xo‘jalik yurituvchi sub’ektning o‘z ishlab chiqarish bazasini rivojlantirish uchun foydasini investitsiya qilishga undovchi faol elementlardan biri xisoblanib, investitsiya natijasida soliq bazasi va keyinchalik davlat budjetiga tushadigan foyda solig‘i tushumlarining oshishiga xizmat qiladi. Mamlakatimizda korxonalar faoliyatiga soliqlarning ta’siri, soliq imtiyozlaridan foydalanish xolati qator maxalliy tadqiqotchilar tomonidan urganilgan bulib, jumladan, Sh.Toshmatov, N.Xaydarovlarning ilmiy izlanishlari muhim urin tutadi⁶⁷. Xorij iqtisodchi olimlari fikricha, soliq chegirmalari undiriladigan soliqlarning kam miqdorda bulishi, korxonalarning jamgarma va investitsion jarayonlarning jadallashuvini ragbatlantiradi va buning pirovardida iqtisodiy usishni ta’minlanadi, deya qayd etadi⁶⁸.

Global integratsiyaning o‘shishi tovar va xizmatlar eksport-importida namoyon bo‘lib, AQShning to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalari zaxirasi 30 yil ichida qariyb ikki barobarga o‘sgan, YaIMning 14 foizidan 25 foizigacha o‘shishi ta’minlagan, portfel investitsiyalari 13 birlikka o‘shishi YaIMning 2,3 foizidan 29 foizigacha qismini tashkil etishi e’tirof etiladi⁶⁹. Raqamli iqtisodiyot sharoitida mamlakatimizda xususiy mulk huquqini himoya qilish va uning ustuvor mavqeini yanada kuchaytirish, mulkdorlarning o‘rta sinfini shakllantirish, yangi ish o‘rinlari yaratish va shu asosda aholi daromadlarini ko‘paytirishning muhim omili sifatida

⁶⁶ Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. - Toshkent: «O‘zbekiston» NMIU, 2017. – 152 b..

⁶⁷ Xaydarov N. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida korxonalar investitsion faoliyatidagi moliya-soliq munosabatlarini takomillashtirish masalalari (xorijiy investitsiyali korxonalar misoli]. I.f.d. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. Toshkent, 2003.;Toshmatov Sh.A. Korxonalarni rivojlantirishda soliqlar roli. Monografiya. - T.: “Fan texnologiyalari”nashriyoti. 2008..

⁶⁸ Ergete Ferede and Bev Dahlby,”The Impact of tax cus on yeconomic growth: Yevidence from the CanadianProvinces”. Source: National Tax Journal, Vol. 65, No. 3 (September, 2012], pp. 563-594. <http://www.jstor.org/stable/41791138>

⁶⁹ Peter R. Merrill Corporate Tax Policy for the 21st Century. National Tax Journal, Vil.63, No. 4, Part 1: TaxPolicy in a time of Gridlock (December, 2010], pp.623-633. [http:// www.jstor.org/stable/41791071](http://www.jstor.org/stable/41791071)

kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatini yanada rivojlantirish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Shunga ko'ra, mamlakatimizda aholining tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishlari uchun qulay shart-sharoitlar, shuningdek kichik biznesga yangi imkoniyatlar yaratish borasida islohotlar izchil amalga oshirilib kelinmoqda. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-21-sonli Farmoniga⁷⁰ asosan tegishli mezonlar asosida tadbirkorlik sub'ektlari kichik, o'rta va yirik toifalarga ajratildi va ularning har biri bilan alohida yondashuvlar asosida ishlash tizimi yo'lga qo'yildi. PF-287-sonli Farmon⁷¹ bilan respublika tuman va shaharlari 5 ta toifaga ajratildi va 5-toifadagi 20 ta tumanda ro'yxatdan o'tgan va shu hududlarda faoliyat yuritadigan yakka tartibdagi tadbirkorlar 2026 yil 1 yanvarga qadar jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining qat'iy belgilangan summalarini to'lashdan ozod qilindi. 60 ta tumanga alohida soliq, kredit va moliyaviy yordam rejimlari joriy qilindi. Natijada bu tumanlardagi tadbirkorlar 2023 yilning o'tgan olti oyda qariyb 1 trillion so'mlik imtiyozlardan foydalandi. Buning hisobiga, 20 ta tumandagi tadbirkorlarning daromadi o'tgan yilga nisbatan 1,5-2 baravargacha oshdi. Umuman, o'tgan bir yilda kichik tadbirkorlar soni 40 mingga ko'paydi, o'rta tadbirkorlar soni 2 mingga oshib, 10 mingga yetdi.³ Islohotlar natijasida aholining tadbirkorlik faoliyatiga qulay sharoitlar yaratilishi, yangi imkoniyat va yengilliklarning joriy qilinishi oqibatida iqtisodiyotning barcha sektorlarida xodimlar soni oshishi, mehnatga haq to'lash fondini legallashtirib borilishi, ish haqi miqdorlarining oshishi hisobiga davlat budjetiga jismoniy shaxslar hamda yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan to'lanadigan daromad solig'i tushumi o'sish sur'atlariga ega bo'ldi.

O'zbekiston Respublikasida soliq va boshqa majburiy to'lovlar yig'iluvchanligining zarur darajasini ta'minlash, yirik soliq to'lovchilar faoliyatini tashkil etish, soliq to'lovchilarning soliq ma'muriyatchiligini amalga oshirish

⁷⁰ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. Respublika hududlarini toifalarga ajratish va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashning tabaqalashtirilgan tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida. PF-287-son, 2022 yil 30 dekabr.


⁷¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. Respublika hududlarini toifalarga ajratish va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashning tabaqalashtirilgan tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida. PF-287-son, 2022 yil 30 dekabr

hamda soliq majburiyatlarini bajarish bo'yicha o'zaro hamkorlik asosida servis-texnik xizmat ko'rsatilishini tubdan takomillashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu borada bosqichma-bosqich olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar sezilarli darajada o'z samarasini ko'rsatmoqda. 2023 yildagi statistik raqamlarga e'tibor qaratadigan bo'lsak, o'tgan yilning olti oyida tekshirishlar 2022 yilning mos davriga nisbatan 40 foiz yoki 104 mingtadan 64 mingtaga kamaygan. Bu degani aksariyat tadbirkorlar to'g'ri ishlash "soyada" ishlashdan ko'ra afzal ekanini tushunib yetmoqda. O'tgan bir yilda kichik tadbirkorlar soni 40 mingtaga ko'payib, 490 mingga, o'rta tadbirkorlar soni 2 mingtaga oshib, 10 mingga yetgan. Yirik korxonalar soni esa bir yilda 400 taga ko'payib, 1,5 mingtani tashkil etgan. Soliq ma'muriyatchiligini tashkil etishda soliq to'lovchilarga berilgan yengilliklar, yaratilgan imkoniyatlar natijasida 2023yilda 155 ta korxonaning yillik aylanmasi 100 million dollardan oshgan. Kiritilgan yillik xorijiy sarmoyalar hajmi esa ilk bor 10 milliard dollarga yetgan. Bu –2017 yilganisbatan 3 barobar ko'p demakdir. Shuningdek, 2021-2023 yillar davomida milliy korxonalarimiz tomonidan 25 milliard dollarlik mahsulotlar eksport qilindi va avval import qilingan 10 milliard dollarlik mahsulotni o'zimizda ishlab chiqarish yo'lga qo'yilganligini ham olib borilayotgan islohotlarning natijasi sifatida keltira olamiz⁷². Soliq sohasida amalga oshirilishi ko'zda tutilgan islohotlarning negizi sifatida insofli, halol soliq to'lovchilarni rag'batlantirish, yashirin faoliyat yuritadiganlarni esa jazolash belgilangan edi. Shu bois, bir necha yildan beri an'ana tusiga aylanib kelayotgan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tadbirkorlar bilan ochiq muloqotining 2023-yilgi tadbirida davlatimiz rahbarining "Biz to'g'ri ishlayotgan, ish o'rni yaratayotgan, ilg'or texnologiyalar joriy qilib, yangi mahsulotlarni o'zlashtirayotgan, eksportini oshirayotgan biznes vakillari uchun barcha sharoitlarni yaratib berishga tayyormiz. Lekin, soliqlardan qochib, o'zining majburiyatlarini bajarmasdan kelayotgan

⁷² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 18.08.2023 yildagi mamlakatimiz tadbirkorlari bilan ochiq muloqot shaklida o'tkazilgan uchrashuvdagi nutqi..

qo'shtirnoq ichidagi tadbirkorlarga biz albatta murosasiz bo'lamiz"⁷³ degan ta'kidini soliq islohotlarining davomi deya ayta olamiz. Soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish borasida amalga oshirilgan islohotlar bir qator normativ-huquqiy asoslar negizida boshlangan edi. Xususan: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 18 iyuldagi PF-5116-son "Soliq ma'muriyatchiligini tubdan takomillashtirish, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning yig'iluvchanligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018yil 26 iyundagi "Davlat soliq xizmati organlari faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-3802-son qarori, 2018yil 29 iyundagi PF-5468-son "O'zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi to'g'risida"gi, 2019 yil 10iyuldagi PQ-4389-son "Soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori va 2018 yil 13fevraldagi F-5214-son "Soliq qonunchiligini tubdan takomillashtirish bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoyishi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 17 apreldagi "Davlat soliq xizmati organlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 320-sonli qarori, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2019 yil 12 iyulda ro'yxatdan o'tgan 3172-sonli Yuridik shaxslarni yirik soliq to'lovchilar toifasiga kiritishning mezonlarini belgilash to'g'risidagi Nizom hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalar bosqichma-bosqich amalga oshirilib kelinmoqda. Yuqorida sanalgan me'yoriy-huquqlar asosida yirik soliq to'lovchilarning soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirilishi bo'yichamuhim qadamlar qo'yilgan edi. Lekin bugungi kunga qadar ushbu kategoriyadagi soliq to'lovchilarning soliq ma'muriyatchiligi bilan bog'liq bir qator o'z yechimini kutib turgan muammo va kamchiliklar ushbu mavzuga tadqiqot ob'ekti sifatida yondashishni talab qiladi hamda ushbu mavzuning dolzarbligini belgilab beradi.

⁷³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 18.08.2023 yildagi mamlakatimiz tadbirkorlari bilan ochiq muloqot shaklida o'tkazilgan uchrashuvdagi nutqi.



2.9-rasm. Yirik soliq to'lovchi korxonalarning iqtisodiy-ijtimoiy maqomi⁷⁴


Yirik soliq to'lovchilarga oid soliq ma'murchiligini tashkil qilishda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 17 apreldagi 320-son "Davlat soliq xizmati organlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroribilan tasdiqlangan "Yirik soliq to'lovchilar bo'yicha hududlararo davlat soliq inspeksiyasi to'g'risida Nizom" alohida ahamiyat kasb etadi. Unda Yirik soliq to'lovchilar bo'yicha hududlararo davlat soliq inspeksiyasining yirik soliq to'lovchilar faoliyatini tartibga solish masalalari ko'rsatilgan va "joylashgan joyi va amalga oshirayotgan faoliyatidan qat'iy nazar, yirik soliq to'lovchilarning soliq ma'muriyatchiligini amalga oshirish vazifasi yuklangan"⁷⁵. Soliq to'lovchilarni yirik soliq to'lovchilar toifasiga kiritish mezonlarini belgilash Davlat soliq qo'mitasi vakolatiga kiritilgan. Shu maqsadda, Davlat soliq qo'mitasi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2019 yil 12 iyulda 3172-raqam bilan ro'yxatdan o'tkazilgan "Yuridik shaxslarni yirik soliq to'lovchilar toifasiga kiritishning mezonlarini belgilash to'g'risidagi nizom" tasdiqlandi. Unda esa, yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan

⁷⁴ Jumayev Sh. (2022) "Yirik soliq to'lovchilarga oid soliq ma'murchiligini takomillashtirish masalalari" Diss.avtoreferati..

⁷⁵ "Yirik soliq to'lovchilar bo'yicha hududlararo davlat soliq inspeksiyasi to'g'risida Nizom".

yirik soliq to'lovchilar toifasiga kiritishning mezonlari belgilab berilgan. Soliq munosabatlarini tartibga soluvchi Soliq kodeksida yirik soliq to'lovchi va ularni ajratish mezonlariga oid aniq tushunchalar keltirilmagan. Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar hozirgi kunda quyidagi mezonlar asosida yirik soliq to'lovchilar kategoriyasiga ajratiladi: a) aksiz solig'iga tortiladigan tovarlarni ishlab chiqaruvchi va aksiz to'lanadigan xizmat ko'rsatuvchi korxonalar; b) tijorat banklari, tovar-xom ashyo, fond va valyuta birjalari v) «Navoiy KMK» DK, «Olmaliq KMK» AJ hamda ularning tarkibiga kiruvchi tashkilotlar; g) mahsulot taqsimotiga oid bitim bo'yicha ishlarni bajarishda ishtirok etayotgan tashkilotlar; d) mahsulot (tovar, ish va xizmat) larni sotishdan olingan sof tushumi o'tgan kalendar yil yakuni bo'yicha 100,0 milliard so'mdan yuqori bo'lgan yoki ketma-ket keladigano'n ikki oylik davr yakuni bo'yicha ushbu miqdordan oshgan yuridik shaxslar, chet el yuridik shaxslarining O'zbekiston Respublikasidagi doimiy muassasalari (bo'linmalari); ye) uglevodorod hom ashyosi va mineral resurslarni qazib oluvchi, qayta ishlovchi, yetkazib beruvchi va sotuvchi hamda elektr energiyasini ishlab chiqaruvchi va yetkazib beruvchi yuridik shaxslar va ularga tovar (ish va xizmat) yetkazib beruvchi chet el yuridik shaxslarining O'zbekiston Respublikasidagi doimiy muassasalari (bo'linmalari), bundan avtomobillarga yoqilg'i quyish shahobchalari mustasno; j) O'zbekiston Respublikasining havo bo'shlig'idan yo'lovchilarni tashish maqsadlarida foydalanuvchi, xalqaro havo aloqalarini amalga oshiruvchi va ularning tarkibiga kiruvchi yuridik shaxslar. z) realizatsiya qilish joyi O'zbekiston Respublikasi bo'lgan elektron shakldagi xizmatlarni realizatsiya qilishni amalga oshiruvchi chet el yuridik shaxslari. Yirik soliq to'lovchilar bo'yicha hududlararo davlat soliq inspeksiyasi tomonidan xizmat ko'rsatiladigan yirik soliq to'lovchilar tarkibi 2019 yilda 1416 ta, 2020 yilda 836 ta va 2021 yilda soliq to'lovchilar soni 1149 tani tashkil etgan. 2020 yilda soliq to'lovchilar sonining keskin pasayishi aynan shu davrda tijorat banklari va ularning respublika miqyosidagi filiallarini transformatsiya qilinishi hisobiga to'g'ri keladi. 2020 va 2021 yillarda mezon talablariga qator o'zgartirishlar kiritilgan. Jumladan, O'zbekiston Respublikasining havo bo'shlig'idan yo'lovchilarni tashish maqsadlarida foydalanuvchi, xalqaro

havo aloqalarini amalga oshiruvchi va ularning tarkibiga kiruvchi yuridik shaxslar ham yirik soliq to'lovchilar hisoblanadigan bo'ldi. Bundan tashqari, uglevodorod xom-ashyosi va mineral resurslarni qazib oluvchi, qayta ishlovchi, yetkazib beruvchi va sotuvchi hamda elektr energiyasini ishlab chiqaruvchi va yetkazib beruvchi yuridik shaxslar, bundan avtomobillarga yoqilg'i quyish shahobchalari mustasno deyilgan mezonga o'zgartirish kiritilib, ushbu mezon quyidagitahrirda "uglevodorod hom ashyosi va mineral resurslarni qazib oluvchi, qayta ishlovchi, yetkazib beruvchi va sotuvchi hamda elektr energiyasini ishlab chiqaruvchi va yetkazib beruvchi yuridik shaxslar va ularga tovar (ish va xizmat) yetkazib beruvchi chet el yuridik shaxslarining O'zbekiston Respublikasidagi doimiy muassasalari (bo'linmalari), bundan avtomobillarga yoqilg'i quyish shahobchalari mustasno" deb o'zgartirildi. Shu bilan birgalikda, nizomga realizatsiya qilish joyi O'zbekiston Respublikasi bo'lgan elektron shakldagi xizmatlarni realizatsiya qilishni amalga oshiruvchi chet el yuridik shaxslari degan band qo'shilib, elektron shakldagi xizmatlarni realizatsiya qilishni amalga oshiruvchi chet el yuridik shaxslari yirik soliq to'lovchilar toifasiga kiritildi. 2023-yilda yiriksoliq to'lovchilar korxonalar soni 2022-yilga nisbatan keskin oshib, 1631 tani tashkil qilganligini quyidagi rasmdan ko'rish mumkin.



2.10-rasm. O'zbekistonda yirik soliq to'lovchilar toifalari kiruvchi korxonalar sonining dinamik o'zgarishi tahlili⁷⁶

Aksariyat hollarda, yirik soliq to'lovchilarni ajratishda amaldagi mezonlarning d-bandiga asosan mahsulot (tovar, ish va xizmat) larni sotishdan

⁷⁶ O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

olingan sof tushumi o'tgan kalendar yil yakuni bo'yicha 100,0 milliard so'mdan yuqori bo'lgan yoki ketma-ket keladigan o'n ikki oylik davr yakuni bo'yicha ushbu miqdordan oshgan yuridik shaxslar, chet el yuridik shaxslarining O'zbekiston Respublikasidagi doimiy muassasalari (bo'linmalari) yirik soliq to'lovchilar bo'yicha hududlararo soliq inspeksiyasining soliq to'lovchisi sifatida ro'yxatga kiritiladi. Mazkur mezon bo'yicha soliq to'lovchilarni ajratishda nafaqat sof tushum, balki korxonalarning jami aktivlari qiymati, rentabellik darajasi hamda uning moliyaviy ahvoli ham juda muhimdir. Shu nuqtai nazardan yirik soliq to'lovchilar toifasi bo'yicha mezonning dkichik bandini qayta ko'rib chiqish maqsadga muvofiq bo'ladi. Budjet daromadlari ko'p jihatdan yirik soliq to'lovchi korxonalar iqtisodiy holatiga bog'liq bo'ladi va 2020-2023 yillar davomida ularning davlatbudjeti tushumlaridagi ulushini quyidagi jadvalda keltirilgan.

Mamlakatimizda soliq to'lovchilarni soliq to'lash maqomiga ko'ra, konsolidatsiyalashgan guruhga kiruvchi soliq to'lovchilar, kontragen guruhlar va yirik soliq to'lovchilar qatoriga kiritish mumkin. Bundan tashqari donor soliq to'lovchilar guruhi va yirik soliq to'lovchilarni farqlash kerak bo'ladi. Donor soliq to'lovchilar o'z imkoniyatlariga ko'ra, ularga yuklatilgan soliq majburiyatlarini bajarish doirasida katta miqdordagi soliq to'lovlarini to'lash orqali tegishli budjetga soliq to'lovlari bo'yicha boshqa soliq to'lovchilarga nisbatan keskin ajralib turishi orqali ular "donor" maqomini oladi. Bunday soliq to'lovchilar ko'pincha, yirik soliq to'lovchilar toifasiga ham kiradi. Masalan, bunday soliq to'lovchilar qatoriga "Navoiy kon-metallurgiya kombinati" AJ, "Olmaliq kon-metallurgiya kombinati" AJ, "O'ztransgaz" AJ, "O'zbekneftgaz" AJ, "O'ZBAT" AJ QK, "Lukoil" "O'zavto Motors" AJ, "O'zbektelekom" AJ, "Hududgazta'minot" AJ kabilarnikiritish mumkin. Shuningdek, yirik soliq to'lovchi korxonalarning iqtisodiy-ijtimoiy maqomini belgilovchi bir qator elementlarni ko'rsatib o'tish mumkin. Yirik soliq to'lovchilarga xos xususiyatlardan biri ularning aksariyati yirik va tabiiy monopol mavqega ega bo'lgan korxonalar hisoblanadi. Ularning yillik mahsulot ishlab chiqarish (xizmat ko'rsatish) hajmi boshqa soliq to'lovchilarga anchayin katta miqdorni tashkil

qiladi. Bu kabi korxonalar milliy iqtisodiyotda yalpi mahsulotni yaratishda, turli darajadagi budjetlarning daromadlarini shakllanishida, aholini band qilishda katta ham iqtisodiy ham ijtimoiy maqomga egadir.

2.6-jadval


Yirik soliq to'lovchilarning davlat budjeti soliq tushumlarining shakllantirishdagi ulushi tahlili(foizda)⁷⁷

№	Ko'rsatkichlar	Yillar			
		2020	2021	2022	2023
1	Davlat byudjeti daromadlari (soliq tushumlari)	100,0	100,0	100,0	100,0
2	Davlat byudjeti soliq tushumlarida egri soliqlarning ulushi	32,8	31,9	34,2	32,6
3	Davlat byudjeti soliq tushumlarida yirik soliq to'lovchilarining ulushi	65,4	64,0	59,5	58,8
4	Jami egri soliqlar bo'yicha soliq tushumida yirik soliq to'lovchilarining ulushi	57,8	61,6	57,1	59,9
5	Davlat byudjeti soliq tushumlarida to'g'ri soliqlarning ulushi	42,3	49,0	48,0	48,6
6	Jami to'g'ri soliqlar bo'yicha soliq tushumida yirik soliq to'lovchilarining ulushi	65,8	66,3	58,1	56,6
7	Davlat byudjeti soliq tushumlarida resurs soliqlarning ulushi	18,8	19,1	17,8	18,7
8	Jami resurs soliqlar bo'yicha soliq tushumida yirik soliq to'lovchilarining ulushi	89,0	77,3	70,6	66,6

Keltirilgan jadval ma'lumotlari asosida tahlil qilinganda, quyidagilarni ko'rishimiz mumkin bo'ladi. Davlat budjeti soliq tushumlarida yirik soliq to'lovchilarning ulushi tahlil qilinayotgan yillar davomida barqaror o'sish yoki kamayish tendensiyasiga ega emasligini ko'rishimiz mumkin. Yirik soliq to'lovchilar tomonidan to'langan soliq tushumlari yillar kesimida qaraydigan bo'lsak, 2020-yilda 65,4 foizdan 2023-yilga kelib 58,8 foizga kamayishini soliq to'lovchilar sonining barqaror emasligi, hamda soliq qonunchiligiga kiritilgan o'zgarishlarga bog'lash mumkin. Yirik soliq to'lovchilarning davlat budjeti solikli daromadlar kesimidagi ulushida 2021-2022 yillarda vomida uning fiskal xususiyati egri soliqlarga nisbatan to'g'ri soliqlar doirasidagi yuqori ahamiyat kasb etmagan bo'lib, 2023-yilda egri soliqlarning ulushi to'g'ri soliqlarga nisbatan 3,3 foiz o'sishi kuzatilmoqda. Yirik soliq to'lovchilarning davlat budjeti solikli daromadlar

⁷⁷ O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Davlat soliq qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan..

kesimidagi ulushining soliq turlari guruhlari bo'yicha ahamiyatida resurs soliqlari hamda boshqa soliqlar guruhlari kesimidagi ulushida esa teskari holatni kuzatish mumkin. Jami resurs soliqlar bo'yicha soliq tushumida yirik soliq to'lovchilarning ulushi 2021-yilda 89 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2023-yil ko'rsatkichlariga ko'ra, ularning ulushi 66,6 foizni tashkil etgan.




2.11-rasm. Yirik soliq to'lovchilarning O'zbekiston Respublikasi davlat budjetidagi ulushi, 2023 yilgi ijrosi, foizda⁷⁸


Buning asosiy sabablari sifatida yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq stavkalarining yillar davomida pasaytirilishi bo'lib, vaholanki, bu soliq turi soliq to'lovchilarining aksariyati yirik soliq to'lovchilar maqomidagi soliq to'lovchilar sanaladi. Qayd etish lozimki, bugungi kunda O'zbekiston soliq tizimiga oid qonunchilikka ko'ra, yirik soliq to'lovchilar toifasiga kiruvchi soliq to'lovchilar soni qariyb 2023-yilda 1630 dan ortiqni tashkil etadi. Biroq, tahlillar shuni ko'rsatadiki, yuqorida keltirilgan jadvalda ularning Davlat budjeti soliq tushumlaridagi ulushida bu toifaga kiruvchi soliq to'lovchilarning ulushi ham keng tabaqalanadi. Shu boisdan biz ularning birinchi o'ntaligi doirasidagi ulushini tahlil qilishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Yirik soliq to'lovchilar toifasiga kiruvchi "donor soliq to'lovchi"larning budjet daromadlari soliq tushumlariga

2022-yilda to'langan soliqlar tahlili hamda 2023-yil uchun prognoz qilingan tushumlar miqdori hisob-kitobini ko'radigan bo'lsak, davlat budjeti soliq tushumlarida 10 ta yirik soliq to'lovchilarning ulushi 2023-yilda 1,9 foiz kamayishi prognoz qilinganligini ko'rishimiz mumkin. Xususan, ushbu ko'rsatkich 2022-yilda 33,1 foizni tashkil qilgan bo'lsa, 2023-yilga kelib ulardan kutilayotgan tushum 31,2 foizni tashkil qilgan. Ushbu ko'rsatkichni soliq islohotlaridan oldingi davr ko'rsatkichlari ya'ni 2018-yil bilan solishtiradigan bo'lsak, 2018-yilda prognoz daromadlarining 34 foizi 20 ta yirik soliq to'lovchilar hisobiga to'g'ri kelgandi, ya'ni davlat budjeti daromadlari manbalari ko'proq diversifikatsiya qilingandi. O'sha vaqtda «O'ztransgaz» ulushi 5,1 foiz, Navoiy KMKAJ – 5 foiz, Olmaliq KMKAJ-3,1 foizni tashkil etgandi.

2022 yil soliq tushumlari ulushi (prognoz)



2023 yil soliq tushumlari ulushi (prognoz)



2.12-rasm. Yirik soliq to'lovchilar toifasiga kiruvchi “donor soliq to'lovchi”⁷⁹larning budjet daromadlari soliq tushumlaridagi fiskal ahamiyati tahlili⁸⁰(foizda)

Shuningdek, ro'yxatga «Qizilqumsement»-1,2 foiz, Farg'ona neftni qayta ishlash zavodi - 1,2 foiz, Coscom (Ucell)-1foiz, «O'zbekiston-Xitoy» gaz quvuri operatori Asia Trans Gas-1,2foiz, Ohangaransement -0,6 foiz, Toshkentvino-1,1 foiz va boshqalar kiritilgandi. O'tgan davr mobaynida bu kompaniyalarning bir

⁷⁹ Yirik soliq to'lovchilar orasida eng katta fiskal ahamiyatga ega bo'lgan 10 ta yirik korxonalar: Navoiy KMK AJ, Olmaliq KMK AJ, O'zbekneftgaz AJ, Lukoil, O'ztransgaz AJ, Hududgazta'minot AJ, O'zbat QK AJ, O'zavtomotors AJ, Sho'rtangazkimyo MCHJ, O'zkorgazchemikal MCHJ QK..

⁸⁰ O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Davlat soliq qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

qismi xususiylashtirilgandi. Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, 2018-yilda davlat budjeti daromadlarida 20 ta korxonaning ulushi 34 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilga kelib 10 ta yirik korxonadan 31,2 foiz soliq tushumlari kutilgan. Demak, 2023yilgi davlat budjeti 2018-yilga nisbatan yirik davlat kompaniyalariga ko'proq qaram bo'lib qoldi.

Biroq, ushbu ko'rsatkichni 2022-yil yakunlari bilan solishtiradigan bo'lsak, 2023-yilda Navoiy KMKAJdan kutilayotgan soliq tushumlari 1,5 foizga, Olmaliq KMKAJ-0,5 foizga, O'zbekneftgaz AJ-0,4 foizga kamayganligini ko'rishimiz mumkin.

II bob bo'yicha xulosa

1. Olib borilgan amaliy taxlillar shuni ko'rsatadiki, yirik soliq to'lovchi korxonalarda soliqlarning fiskallik funksiyasini to'liq ishlashini ta'minlash hamda budjetga to'lanadigan soliqlar samaradorligini oshirish bo'yicha quyidagi ishlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz: Birinchidan, yirik soliq to'lovchi tushunchasining mazmun mohiyatini va ularni belgilash mezonlariga oid talablarni Soliq kodeksiga soliq to'lovchi uchun tushunarli tarzda kiritish; Ikkinchidan, soliq ma'murchiligining samaradorligini oshirish maqsadida va eng kam ish haqining oshib borilishini inobatga olib, inflyatsiya darajasi muvozanatni ta'minlash hamda yirik soliq to'lovchilarni daromadlarning umumiy miqdori yuqoriligini inobatga olib mahsulot (tovar, ish vaxizmat) larni sotishdan olingan sof tushum miqdorini qayta ko'rib chiqish kerak. Uchinchidan, yirik soliq to'lovchilarni sof tushum bo'yicha aniqlashda ularning rentabelligi, jami aktivlari qiymati va moliyaviy holatini aniqlab beruvchi boshqa ko'rsatkichlarini ham inobatga olganholda blgilangan mezonni qayta ko'rib chiqish lozim.

III BOB. IQTISODIY FAOLLIKKA ERISHISHNING DAVLAT FISKAL VA MONETAR SIYOSATLARINI TAKOMIL-LASHTIRISH YO'NALISHLARI

3.1-§ Milliy iqtisodiyotda iqtisodiy faollikni ta'minlashda davlat fiskal siyosatini takomillashtirish yo'nalishlari

O'zbekistonda hokimiyat almashgandan so'ng deyarli barcha hayotiy jabhalar, jumladan siyosat, iqtisodiyot, moliya, sog'liqni saqlash, ta'lim va boshqa ko'plab sohalar modifikatsiya va islohotlarga duch keldi. 2017 yilda yangi hukumat mamlakatni beshta yirik yo'nalish bo'yicha rivojlantirishning besh yilga mo'ljallangan Harakatlar strategiyasini (2017-2021) e'lon qildi. Mazkur bosh rejaning uchinchi yo'nalishi iqtisodiyotni takomillashtirish va liberallashtirish bo'lib, undan ko'zlangan asosiy maqsad barqaror iqtisodiy o'sishga erishish edi. Shu maqsadda, so'nggi besh yil mobaynida iqtisodiyotning barcha sohaları, shu jumladan, fiskal siyosat ham tubdan isloh qilindi.

Harakatlar strategiyasining asosiy maqsadlaridan kelib chiqib, 2018 yilda soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi tasdiqlandi. Unda iqtisodiy o'sishni yanada rag'batlantirish va ijtimoiy farovonlikka erishish jarayonini yaxshilashga qaratilgan soliq islohotlariga oid aniq vazifalar belgilangan bo'lib, asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat edi:

- soliq yukini kamaytirish va adolatli taqsimlash;
- soliqlar va soliq qonunchiligini soddalashtirish;
- soliq hujjatlaridagi nomuvofiqliklarni bartaraf etish;
- soliqlar va majburiy to'lovlar sonini kamaytirish;
- soliq ma'murchiligini soddalashtirish va samaradorligini oshirish;
- Soliq kodeksining bevosita qo'llanilishini ta'minlash va qonunosti hujjatlarni maksimal darajada cheklash;
- intizomli soliq to'lovchilarni qo'llab-quvvatlash;
- biznesni «soya»dan chiqarish va iqtisodiyotning investitsiya jozibadorligini oshirish.

Yuqorida ta'kidlangan maqsadlarga erishish borasida O'zbekiston sezilarli yutuqlarga erishdi. Biroq, shu bilan birga, bugungi kunda fiskal siyosatning qator

bo'shliqlari mavjudki, ularning bartaraf etilishi mamlakatda samarali moliya tizimini shakllantirishga imkon beradi.

O'zbekiston Respublikasining 2020 yil 25 dekabrda "2021 yil uchun O'zbekiston Respublikasining davlat budjeti to'g'risida"gi O'RQ-657-son Qonuni, va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 30 dekabrda "O'zbekiston Respublikasining "2021 yil uchun O'zbekiston Respublikasining davlat budjeti to'g'risida"gi qonuni ijrosini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4938-son qarori bilan 2021-2023 yillarga mo'ljallangan fiskal strategiya, fiskal va soliq siyosatlarining asosiy yo'nalishlari va O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti daromadlari prognozi ko'rsatkichlari belgilab berildi.

2021 yil va kelgusi ikki yilga mo'ljallangan Fiskal siyosat iqtisodiy o'sishni qayta tiklash va davlat moliyasi barqarorligini ta'minlashga qaratiladi.

Uning asosiy instrumentlari:

Davlat budjeti daromadlari.

Davlat budjeti xarajatlari.

2021–2023 yillarga mo'ljallangan Fiskal strategiyaning eng muhim yo'nalishlari:

o'rta muddatli budjet asoslarini ishlab chiqish hamda yangi "natijaga yo'naltirilgan budjet" tizimini joriy etish makrofiskal loyihalar

Tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, asosan uchta yirik soliq (daromad solig'i, QQS, foyda solig'i) bo'yicha islohotlarning ijtimoiy farovonlikka ta'siri keskin ijobiy o'zgarishlarga olib kelganligiga qaramay, bu borada hali-hanuz tadqiqot talab qiladigan va bartaraf etilishi lozim bo'lgan sezilarli muammolar mavjud.

Soliq islohotlari natijasida qo'lga kiritilgan yutuqlar hamda soliq tizimining hal qilinishi lozim bo'lgan muammolari maqolaning keyingi bo'limlarida chuqur tahlil qilinadi.

Mamlakatimizda olib borilayotgan soliq siyosatining 2022-2023 yillarda bajarilishini tahlil qilib ko'ramiz (3.1-jadval).

3.1-jadval


**O‘zbekiston Respublikasi Davlat budgetining 2022-2023 yillardagi
ijrosi⁸¹, (mlrd.sum)**

Daromadlar	2022 yil ijro	2023 yil ijro	Farq	Foiz
ЖАМИ	201 863,7	231 720,7	29 856,9	114,8
Bevosita soliqlar	64 447,1	73 103,6	8 656,5	113,4
Foyda solig‘i	37 649,9	40 778,9	3 129,0	108,3
Aylanmadan olinadigan soliq	2 512,7	2 407,3	-105,4	95,8
Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	24 284,5	29 917,4	5 632,9	123,2
Bilvosita soliqlar	71 390,2	83 325,8	11 935,6	116,7
Qo‘shilgan qiymat solig‘i	52 191,9	58 091,5	5 899,6	111,3
Aksiya solig‘i	13 455,0	15 834,4	2 379,3	117,7
Bojxona boji	5 745,7	9 400,0	3 654,3	163,7
Resurs to‘lovlari va mol-mulk solig‘i	23 912,8	27 079,8	3 167,0	113,2
Mol-mulk solig‘i	8 015,4	9 579,1	1 563,7	119,5
Yer solig‘i	5 305,9	6 890,1	1 584,2	129,9
Yer qa‘ridan foydalanganlik uchun soliq	8 794,5	9 819,3	1 024,8	111,7
Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	797,0	791,4	-5,6	99,3
Boshqa daromadlar	42 113,7	47 211,8	5 098,1	112,1

2015 yilda davlat budgetiga 36 493,3 mlrd.so‘m soliq va yig‘imlar tushgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 2016-2020 yillarda mos ravishda 41 043,5, 49 684,7, 62 126,9, 112 165,4 va 128 460 mlrd. so‘mni tashkil qilgan. Umumiy tushumda bevosita soliqlarning ulushi 2015 yilda 24,1 foiz, 2020 yilda esa 31,6 foizni tashkil qilgan. Bilvosita soliqlarning ulushi mos ravishda 52,6 va 45,4 foiz bo‘lgan. Resurs va mol-mulk soliqlarining ulushi esa 2015 yilda 13, 2 foiz va 2020 yilda 16,2 foizni tashkil qilgan(Qarang: 1-Ilova). Bundan ko‘rinib turibdiki, yildan yilga bilvosita soliqlarning ulushi kamayish va resurs soliqlarining ulushi esa oshib borish tendensiyasiga ega bo‘lmoqda. 2023 yilda qo‘shilgan qiymat solig‘i, aksiz solig‘i va aylanmadan olinadigan soliq bo‘yicha tushumlarning 2022 yilga nisbatan o‘sish sur‘atlari kam bo‘lishiga quyidagi omillar ta’sir ko‘rsatdi. Qo‘shilgan qiymat solig‘ini qoplab berish haqiqatda 21 646,0 mlrd so‘mni tashkil etib, 2022 yilga nisbatan 2 334,3 mlrd so‘mga ko‘p qaytarilgan. Energoresurs qazib chiqarish, qayta ishlash hajmining kamayishi, dunyo bozorida paxta tolasi, don va kimyoviy

⁸¹ https://api.mf.uz/media/document_files/IB_2023_uz.pdf Fuqarolar uchun byudjet: 2023 yil ijrosi. Toshkent-2024 y. 7-bet

o'g'itlar narxi pasayishi hamda yil boshida kuzatilgan anomal sovuq sharoitida korxonalar xarajatining oshishi va korxonalar faoliyatining vaqtincha to'xtatilganligi soliq tushumlari yo'qotilishiga olib keldi. Shu bilan birga, mahalliy korxonalar tomonidan ishlab chiqariladigan va tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan yakuniy iste'molchilarga sotiladigan AI-80 rusumli avtobenzin mahsuloti uchun aksiz solig'ining "nol" stavkasi belgilanishi hisobiga 2023 yilda tadbirkorlik sub'ektlari ixtiyorida 1 300,0 mlrd so'm qoldirildi.



3.1-rasm. 2022-2023 yillarda davlat budjeti daromadlarining manbalar kesimida ijrosi, mlrd so'm⁸²

Davlat budjeti daromadlari tarkibida bevosita soliqlarning ulushi 31,6%, bilvosita soliqlar budjet daromadlarining 35,9 foizini tashkil etdi. Resurs to'lovlari va mol-mulk solig'i 12,1 foizni, boshqa daromadlar esa jami daromadning – 20,4 foizini tashkil etdi.

Bevosita soliqlar bo'yicha tushumlar 2022 yil bilan solishtirganda 8 656,5 mlrd so'mga yoki 13,4 foizga oshib, 73 103,6 mlrd so'mni tashkil etdi. Soliq turlari kesimida tushumlar. Foyda solig'i – 40 778,9 mlrd so'mni tashkil qildi, shundan jami tushumning 21656,7 mlrd so'm yoki 53,1 foizi oltin va mis qazib chiqaruvchi korxonalarga to'g'ri keldi.

⁸² https://api.mf.uz/media/document_files/IB_2023_uz.pdf Fuqarolar uchun byudjet: 2023 yil ijrosi. Toshkent-2024 y. 7-bet

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i – 29 917,4 mlrd so'm, shu jumladan ish beruvchilar tomonidan ushlab qolinadigan – 28 096,8 mlrd so'm. Ushbu soliq tushumlarining 2022 yilga nisbatan o'sishi 5 632,9 mlrd so'm yoki 23,2% ni tashkil etdi. 2023 yilda ish beruvchilar tomonidan ushlab qolinadigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'idan tashqari tushumlar:


Aylanmadan olinadigan soliq – 2 407,3 mlrd so'm, 2022 yilga nisbatan tushumlar 105,4 mlrd so'mga (4,2%) kam bo'ldi. Aylanmadan olinadigan soliq to'lovchilar soni 2022 yilga nisbatan 9,4 ming yoki 2,6%ga kamayib, 360,0 mingtani tashkil etdi.

Albatta, soliq tushumlarining bunday kamay tendensiyasiga quyidagi omillar sabab bo'lgan:

- soliq to'lovchilarning QQSga o'tishi hisobiga – 6 foizga;
- qat'iy soliqni joriy qilinishi bilan ushbu to'lovchilar bo'yicha 2022 yilga nisbatan to'lovlarning kamayishi hisobiga – 9 foizga;
- yil boshidan boshlab 4 foizdan yuqori bo'lgan stavkalar bekor qilinib yagona 4 foiz stavka o'rnatilishi hisobiga – 7 foizga;
- respublika hududlarining 4 va 5-toifalaridagi tumanlar hisobiga – 3 foizga.

QQS bo'yicha 2023 yilda 6 701 ta tadbirkorlik sub'ektlariga 21 646,0 mlrd so'm miqdordagi mablag' QQS manfiy summasining qoplab berilishi uchun qaytarildi (QQS tushumining 27,2% i). Taqqoslash uchun, 2022 yilda soliq to'lovchilarga 19 311,7 mlrd so'm qaytarib berilgan bo'lsa, 2021 yilda 14 417,0 mlrd so'mni tashkil etgan. Ma'lumki, farovonlikning muhim ko'rsatkichlaridan biri bu mamlakatning iqtisodiy o'sishi va milliy daromadidir. Klassik iqtisodiy ta'limot yetakchisi Adam Smitning "Xalqlar boyligi" kitobida⁸³ ta'kidlaganidek, mamlakat farovonligining o'rtacha darajasini hisoblashda aholi jon boshiga daromad yoki YaIMdan foydalanish maqsadga muvofiq. Umuman olganda YaIM asosan ikkita omil, ya'ni yalpi qo'shilgan qiymat va mahsulot hamda xizmatlarga sof soliqlar asosida shakllanadi.

⁸³ Смит А. Теория нравственных чувств / Адам Смит; [перевод с английского П. Бибикова]. — Москва: Издательство АСТ, 2022. — 512 с.



3.2-rasm. 2021-2024 yillarda soliq yuki (yaim ga nisbatan ulushi) va davlat budjeti daromadlari dinamikasi⁸⁴


2000 yildan 2020 yilgacha bo. 'lgan davrda tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati va sof soliqlar real narxlarda aks ettirilgan. Diagrammaga nazar tashlaydigan bo'lsak, O'zbekistonda oxirgi yillarda iqtisodiy o'sishning tezlashuvi, xususan, 2019 yildan YaIM hajmining keskin ortganligini ko'rish mumkin. Bu holatga mamlakatda soliq islohotlarining ta'sirini YaIM tarkibida mahsulot va xizmatlarga sof soliqlar ulushining o'zgarishini tahlil qilish orqaligina fikr bildirish mumkin(Qarang: 2-ilova).



3.3-rasm. 2021-2022 yillarda soliq organlari tomonidan yig'ilgan aksiz solig'i tushumlarining aksizosti mahsulotlari kesimidagi summasi⁸⁵

⁸⁴ https://api.mf.uz/media/document_files/Budjet_P_24_uz.pdf 2024 byudjet fuqarolar uchun. Toshkent-2024 y. 11-bet..

3.1-rasmdagi diagrammadan ko‘rinib turibdiki, tahlil qilinayotgan 2000-2020 yillar davri mobaynida YaIM hajmi real narxlarda muntazam o‘shish sur‘atlari tendensiyasiga ega bo‘lib kelgan bo‘lsada, 2019 yilda bu tendensiyada keskinlik kuzatiladi. Bunga sof soliqlar YaIMdagi ulushining kamayishi sabab bo‘lishi mumkin. Shu maqsadda, quyidagi 3.2-rasmda yalpi qo‘shilgan qiymat va sof soliqlarning YaIMdagi ulushining o‘zgarishini tahlil qilamiz.



3.4-rasm. YaIMda yalpi qo‘shilgan qiymat va sof soliqlar ulushining o‘zgarish tendensiyalari⁸⁶

3.4-rasmdan ko‘rish mumkinki, sof soliqlarning YaIMdagi ulushi 2017 yilda keskin ko‘payib, so‘nggi yillardagi eng yuqori ko‘rsatkichga – 11,5 foizga yetgan. Undan keyingi davrda bu ko‘rsatkich barqaror kamayib borgan va 2020 yilga kelib soliq islohotlari natijasida u qariyb 7,5 foizga tushgan. Bunga, so‘nggi yillarda mahsulot va xizmatlarga soliqlar (sof soliqlar) yukining kamaytirilishi ijobiy ta’sir ko‘rsatgan deya olamiz. Xususan, 2019 yilda QQS stavkasining 20 foizdan 15 foizga tushirilishi, respublikada ishlab chiqariladigan mahsulotlardan o‘simlik

⁸⁵ https://api.mf.uz/media/document_files/Budjet_P_24_uz.pdf. 2024 byudjet fuqarolar uchun. Toshkent-2024 y. 13-bet.

⁸⁶ O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan olib borilgan hisob kitoblar asosida ishlab chiqilgan..

yogʻi, texnik moy, qimmatbaho metallar, paxta tolasi, shuningdek, import qilinadigan oziq-ovqat, dori-darmon, gigiena va elektrotexnika mahsulotlarining qariyb barcha turlari boʻyicha aksiz soligʻi bekor qilinishi isteʼmolga soliqlar yukini kamaytirishga imkon berdi. Bu esa tarmoqlar yalpi qoʻshilgan qiymatining YaIMdagi ulushi ortishiga olib kelgan.


Bundan tashqari, oxirgi yillarda amalga oshirilgan soliq islohotlari nafaqat sof soliqlar YaIMdagi ulushining qisqarishiga, balki davlat budjeti daromadlari shakllanishida bevosita va bilvosita soliqlar nisbatining oʻzgarishiga ham sabab boʻldi. Xususan, bir tomondan, QQS stavkasining pasaytirilishi va aksizlarning qisqartirilishi, ikkinchi tomondan, daromad soligʻining progressiv mexanizmidan yagona stavkali mexanizmga oʻtkazilishi, foyda soligʻi stavkasining oshirilishi hamda mulkiy soliqlar qamrovining kengaytirilishi toʻgʻri va egri soliqlar nisbatini optimallashtirishga xizmat qildi.

Tadbirkorlik subʼektlari soliq yukidagi nomutanosiblikni bartaraf etish maqsadida tadbirkorlik subʼektining soddalashtirilgan soliq rejimida qolishi yoki umumbelgilangan soliq rejimiga

Natijada 2019 yildan tushumi 1 mlrd. soʻmdan oshgan tadbirkorlik subʼektlari umumbelgilangan soliq rejimiga, yaʼni foyda soligʻi va QQS toʻlashga oʻtkazildi. Shu orqali, birinchidan, tadbirkorlik subʼektlari oʻrtasida soliq yukini adolatli (yaratgan qiymatiga mos) taqsimlashga, ikkinchidan, “kichik biznes subʼekti” maqomining suiisteʼmol qilinishini oldini olishga erishildi. Mazkur islohot QQS va foyda soligʻi toʻlovchilari sonining 2019 yildan keskin koʻpayishiga olib keldi. QQS toʻlovchilari sonining keskin koʻpayishida tushumi 1 mlrd. soʻmdan kam boʻlgan taqdirda ham tadbirkorlik subʼektlariga ixtiyoriy ravishda QQSGa oʻtish imkoniyati berilganligi muhim rol oʻynadi.

Qoʻshilgan qiymat soligʻi – 57 885,3 mlrd soʻm, 2022 yilga nisbatan 5 695,9 mlrd soʻm yoki 10,9% ga oshgan. Bojxona organlari tomonidan undiriladigan qoʻshilgan qiymat soligʻi (QQS) 17,7% ga, soliq organlari tomonidan undiriladigani – 3,6% ga oshdi.

QQS bo'yicha 2023 yilda 6 701 ta tadbirkorlik sub'ektlariga 21 646,0 mlrd so'm miqdordagi mablag' QQS manfiy summasining qoplab berilishi uchun qaytarildi (QQS tushumining 27,2% i). Taqqoslash uchun, 2022 yilda soliq to'lovchilarga 19 311,7 mlrd so'm qaytarib berilgan bo'lsa, 2021 yilda 14 417,0 mlrd so'mni tashkil etgan. QQS solig'i ma'murchiligining takomillashtirilishi uning samaradorligini (yig'uvchanligini) 2022 yilda 53,7 %dan 2023 yilda 62,1 %ga oshishiga olib keldi.



3.5-rasm. Umumbelgilangan soliq rejimida mol-mulk, yer va suv solig'i to'lovchilar sonining o'zgarishi⁸⁷

Bundan tashqari, mulkiy soliqlar va resurs to'lovlari fiskal ahamiyatini oshirish, mulk, yer va suv resurslardan foydalanishni tartibga solish hamda samaradorligini oshirish maqsadida yuridik maqomi, tushumi va boshqa mezonlaridan qat'i nazar 2019 yildan barcha tadbirkorlik sub'ektlariga mol-mulk, yer va suv resurslardan foydalanganlik uchun soliqlarning tatbiq etilishi bunday soliqlarni to'lovchilar sonining keskin ortishini ta'minladi. Umuman olganda, bular turli xil soliq turlarining davlat daromadlari umumiy ulushini o'zgartirishdagi asosiy sabablardir. Hukumat daromadlarni shakllantirish jarayonida har xil soliq turlarining hissasi o'zgargan bo'lsa ham umumiy soliq tushumlari o'sish tendensiyasini nominal va real ravishda saqlab turdi.

⁸⁷ O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan olib borilgan hisob kitoblar asosida ishlab chiqilgan..


Shuni aytish mumkinki, XXI-asrning birinchi o'n yilligidagi ba'zi tebranishlardan so'ng O'zbekistonda davlat budjeti real daromadlarining o'sish sur'atlari so'nggi 3 yil ichida keskin ko'tarilgan. Bunday o'sishga deyarli barcha turdagi soliqlar bazasining kengayishi sabab bo'lganligini ta'kidlash mumkin. Biroq, davlat daromadlarining o'sish sur'atlaridagi bu tezlashish iqtisodiy o'sishni yetarli darajada ta'minlay olmadi.

Masalaning ahamiyatini yanada aniqroq ko'rsatish uchun biz YaIM va davlat daromadlari o'sish sur'atlari o'rtasidagi farqni (real qiymatda) ham hisoblab chiqdik.

Biroq, tahlillar shuni ko'rsatdiki, so'nggi 3 yil ichida ushbu tendensiya salbiy bo'lib chiqdi va eng past daraja -22,3 ga yetdi (2018 yil). Buning asosiy sabablari davlat sektorida korrupsiyaning kuchayishi yoki budjet xarajatlari rejalashtirilishi va sarflanishidagi nomutanosiblik bo'lishi mumkin.

Jumladan, davom etayotgan global siyosiy va iqtisodiy vaziyatlar fonida O'zbekiston iqtisodiyotining o'sish sur'ati 2023-2024 yillarda 5,6-5,8 foizni tashkil etib, 2025 – 2026 yillarda mos ravishda 6,2–6,4 foizgacha yetishi prognoz qilingan. Xalqaro valyuta jamg'armasining prognozlariga ko'ra, dunyo bo'ylab markaziy banklar tomonidan inflyatsiya oshishiga qarshi choralarning ko'rilishi natijasida global inflyatsiya darajasi 2022 yilgi o'rtacha 8,7 foizdan 2023 yilda 6,9 foizgacha va 2024 yilda 5,8 foizgacha tushishi, biroq pandemiyadan oldingi davrdan (2017 – 2019 yillardagi 3,5 foiz) yuqori darajada bo'lishi kutilmoqda. Global inflyatsiya darajasining tushishiga asosiy omil sifatida jahon bozoridagi oziq-ovqat va boshqa turdagi asosiy tovarlarning narxlarida pasayish kuzatilayotgani bilan izohlangan. Yuqoridagilar natijasida O'zbekistonda inflyatsiya darajasi 2022 yildagi 12,3 foizdan 2023 yilda 9,0 foiz atrofiga tushishi kutilmoqda. Ikkinchi bo'limda O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti va davlat maqsadli jamg'armalari budjetlari hamda Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasining 2023 yilgi kutilayotgan ijrosining, shu jumladan Davlat budjeti daromadlarining daromad turlari bo'yicha, xarajatlarining sohalar va iqtisodiy tasnifi bo'yicha ijrosi tahlili, keyingi yillarda soliq-budjet siyosatida amalga

oshirilgan islohotlar to‘g‘risida ma’lumotlar keltirilgan. Tashqi iqtisodiy va siyosiy vaziyatning mamlakatimiz iqtisodiyotiga ta’siri va uni yumshatish maqsadida biznesga berilayotgan imtiyoz va preferensiyalarga qaramasdan, O‘zbekistonning asosiy eksport tovarlari hisoblanadigan oltin, mis va tabiiy gaz narxlarining dunyo bozorida barqaror qolishiga va keyingi yillarda soliq ma’murchiligi kuchaytirilishi natijasida budget daromadlari 2023 yilda kutilayotgan ijrosi tasdiqlangan prognozga nisbatan 993,0 mlrd so‘mga ko‘p bajarilishi kutilmoqda.



3.6-rasm. O‘zbekiston Respublikasida 2022-2023 yillarda yaim hajmi va o‘sish sur‘atlari⁸⁸

Xulosa o‘rnida ta’kidlash joizki bugungi kunda iqtisodiy faollikni ta’minlashga yo‘naltirilgan davlat fiskal siyosatini takomillashtirish uchun fikrimizcha quyidagi tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

Birinchidan, iqtisodiy faolikka qaratilgan iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishda xarajatlar siyosatidagi o‘zgartirishlar samaradorlikni oshirish va xarajatlarni oqilona sarflashga yo‘naltirilishi lozim. Shu bilan bir qatorda, davlat daromadlari bilan bog‘liq choralar budget yo‘qotishlarini minimallashtirish va soliqqa tortish bazasini kengaytirishga qaratilgan bo‘lishi kerak.

Ikkinchidan, fiskal islohotlar, xususan, soliq stavkalari va mexanizmlarini optimallashtirish qisqa va uzoq muddatli istiqbolda ham uy xo‘jaliklari, ham firmalarning investitsiya qarorlariga katta ta’sir ko‘rsatadi. Xususan, individual

⁸⁸ https://api.mf.uz/media/document_files/IB_2023_uz.pdf. Fuqarolar uchun byudjet. Toshkent – 2024 yil.

daromad solig'i, QQS va foyda solig'i investitsiyalar va kapital qo'yilmalarga ta'sir ko'rsatadigan asosiy soliq turlari hisoblanadi.

Uchinchidan, soliq yengilliklari vositasida kapitaldan daromad solig'ini isloh qilish va undan kutiladigan budjet yo'qotishlarini kamaytirish orqali xususiy investitsiyalarni rag'batlantirish mumkin. Bundan tashqari, soliq imtiyozlarining samarali shakllari orqali ham xususiy investitsiyalarni rag'batlantirish imkoniyatiga ega bo'lish mumkin.

To'rtinchidan, mehnatga soliqlar tarkibini takomillashtirish, ish haqi bilan bog'liq soliq yukini kamaytirish va ijtimoiy imtiyozlar tizimidan oqilona foydalanish, ayniqsa, aholining kam daromadli qatlami uchun chegirmalar amaliyotini qo'llash ishchi kuchi taklifini rag'batlantiradi. Shu orqali iqtisodiyotda norasmiy bandlik darajasini qisqartirishga erishish mumkin.

Beshinchidan, QQS inflyatsion soliq turi bo'lganligi sababli, u iste'mol qilishga bo'lgan moyillikka va o'z-o'zidan, investitsiya qilishga bo'lgan moyillikka ham bevosita ta'sir qiladi. QQSning haqiqiy to'lovchilari oxirgi iste'molchilar bo'lishiga qaramay ushbu soliq qo'shimcha ishlab chiqarish xarajatlari sifatida ham qaraladi. Bu asosan, QQSning mahsulot narxini ko'tarishi va shu sababli raqobatli bozorlarda mahsulotga bo'lgan talabni pasayishi bilan bog'liq. Bu esa, o'z navbatida, korxonalar rentabellik darajasiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Oltinchidan, so'nggi yillarda O'zbekistonda amalga oshirilgan soliq islohotlari qator ijobiy makroiqtisodiy o'zgarishlarga olib kelgan bo'lsada, tahlillar davlat tomonidan soliq tushumlarining iqtisodiy o'sishga yetarlicha yo'naltirilmayotganligini ko'rsatdi. Buni YaIM va davlat budjeti daromadlari o'sishi o'rtasida farqning so'nggi uch yilda qisqarib borganligi orqali asoslash mumkin. Shu sababli soliq islohotlari barobarida davlat budjeti xarajatlari taqsimotini ham optimallashtirish tavsiya etiladi.

3.2-§ O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki monetar siyosatining iqtisodiy faollikni oshirishdagi rolini takomillashtirish

Mamlakatimizni 2017 — 2021 yillarda rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi-doirasida o‘tgan davr mobaynida davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini tubdan isloh etishga qaratilgan 300 ga yaqin qonun, 4 mingdan ziyod O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorlari qabul qilindi.

“Milliy iqtisodiyotni isloh qilish borasida tashqi savdo, soliq va moliya siyosatini liberallashtirish, tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash va xususiy mulk daxlsizligini kafolatlash, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishlashni tashkil etish hamda hududlarni jadal rivojlantirishni ta‘minlash bo‘yicha ta‘sirchan choralar ko‘rildi.

Iqtisodiyot tarmoqlarida barqaror yuqori o‘sish sur‘atlarini ta‘minlash orqali kelgusi besh yilda aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulotni — 1,6 baravar va 2030 yilga borib aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan daromadni 4 ming AQSh dollaridan oshirish hamda “daromadi o‘rtachadan yuqori bo‘lgan davlatlar” qatoriga kirish uchun zamin yaratish.

Makroiqtisodiy barqarorlikni ta‘minlash va yillik inflyatsiya darajasini 2023 yilgacha bosqichma-bosqich 5 foizgacha pasaytirish.

Davlat budjeti taqchilligini qisqartirish va 2023 yildan yalpi ichki mahsulotga nisbatan uning 3 foizdan oshib ketmasligini ta‘minlash.

Har bir tuman budjetining kamida 5 foizini “Fuqarolar budjeti” dasturi doirasida aholining takliflari asosida eng dolzarb muammolarni yechishga sarflashni tashkil qilish.

Davlat qarzini boshqarishda yiliga yangi jalb qilingan tashqi qarz miqdori 4,5 milliard AQSh dollaridan oshib ketmasligini ta‘minlash masalalari ko‘rib chiqildi.

Markaziy bank tomonidan samarali pul-kredit siyosati yuritilishi natijasida iqtisodiyotda inflyatsiyaning barqaror past darajasi ta‘minlanishi va narxlardagi

keskin tebranishlarning oldi olinishi, o'z navbatida, aholi turmush farovonligini oshirish va biznes yuritish uchun qulay muhitni yaratishga asosiy poydevorlardan biri bo'lib xizmat qiladi.

Mamlakatda ichki narxlar barqaror bo'lgan sharoitda aholi va biznes vakillari uchun ish haqi, nafaqa va boshqa daromadlar, shuningdek, milliy valyutadagi jamg'armalarning qadrini saqlab qolish imkoniyati mavjud bo'ladi. Bu esa ularning qisqa va uzoq muddatli davrlar uchun xarajatlarni rejalashtirishda ishonch hissini uyg'otadi.

Yuqori inflyatsiya darajasi aholi daromadlarining qadsizlanishiga hamda jamiyatda ijtimoiy tabaqalashuvning kuchayishiga olib keladi. Shu nuqtai nazardan, past inflyatsiya darajasini ta'minlash ijtimoiy barqarorlikning muhim sharti hisoblanadi. Iqtisodiyotda ichki narxlar barqarorligining ta'minlanishi tadbirkorlik faoliyati uchun ham qulay sharoit hisoblanadi.

Inflyatsiya darajasi past bo'lgan holatda korxonalarning qarz olish imkoniyatlari kengayadi. Yuqori va o'zgaruvchan inflyatsiya banklarning samarali faoliyat olib borishlari uchun ham noqulay sharoitlarni yuzaga keltiradi.

Pul-kredit siyosatining o'ta qat'iylashtirilishi iqtisodiyotdagi investitsion faollikning susayishiga olib kelishi mumkin. "Uning asossiz yumshatilib, kreditlash hajmlarining keskin oshirilishi esa iste'mol va investitsion talabni rag'batlantirish bilan bir qatorda inflyatsiya darajasining keskin oshib ketishiga ham sabab bo'ladi.

Ta'kidlash zarurki, birgina pul-kredit siyosatining o'zi mamlakat iqtisodiy salohiyatini barqaror oshirishning asosiy manbai bo'la olmaydi. Uzoq muddatli istiqbolda iqtisodiyotda raqobat muhitini yaxshilash, mehnat unumdorligi va energiya iste'moli samaradorligini oshirish, infratuzilmani rivojlantirish orqali iqtisodiyotning ichki va tashqi raqobatbardoshligini kuchaytirish, biznesni tashkil etish va yuritishni yengillashtirishga qaratilgan davomli tarkibiy islohotlarni amalga oshirish iqtisodiy o'sishni ta'minlovchi asosiy omillar hisoblanadi.

"Markaziy bank pul-kredit siyosati instrumentlarini qo'llash orqali ishlab chiqarish omillari samaradorligini oshirishga yoki texnologik rivojlanishga

to'g'ridan-to'g'ri ta'sir qila olmaydi.

Bunda pul-kredit sohasidagi choralar asosan iqtisodiyotni qisqa muddatli tartibga solish, mavsumiy va davriy tebranishlarni muvozanatlashtirish hamda o'sish sur'atlarining iqtisodiy salohiyatidan og'ib ketishi oldini olishga qaratilgan bo'lib, qisqa muddatli ta'sirga ega bo'ladi.

Yuqorida keltirilgan omillar ta'sirida yuzaga kelgan bugungi makroiqtisodiy sharoitlar qisqa davr ichida iqtisodiyotni kreditlash hajmlarining keskin o'sishi, investitsiya hajmlari va iste'mol talabining oshishini rag'batlantirib, inflyatsion jarayonlarning kuchayishiga olib kelganligini ko'rsatmoqda.

“Xususan, yalpi talabning oshishiga mos ravishda taklif hajmlarini oshirish maqsadida yangi ishlab chiqarish quvvatlarini ishga tushirish va mehnat unumdorligini oshirish ma'lum bir davrni talab etadi, aynan mana shu muddat davomida iqtisodiyotda inflyatsion bosimning kuchayishi kuzatiladi.

“Bunda mahalliy ishlab chiqarilgan tovarlar taklifi yetarli emasligi sharoitida (ish haqi o'sishi va kreditlashning kengayishi hisobiga) ichki talabning oshishi narxlarning o'sishiga sabab bo'ladi.

Shuningdek, mahalliy tovarlar miqdorining ichki bozorda yetarli emasligi import tovarlariga bo'lgan va bu orqali valyuta bozoridagi talabni oshirib, milliy valyuta kursining qadrsizlanishiga va pirovardida inflyatsiya kuchayishiga olib keladi.

O'z navbatida, inflyatsiyaning o'sish sur'atlari tezlashishi aholi va biznes vakillari daromadlarining real qiymatini pasaytiradi, daromadlarning ko'proq iste'molga yo'naltirilishiga sabab bo'ladi, shuningdek, iqtisodiy qarorlar qabul qilish uchun oldindan aniqlash qiyin bo'lgan vaziyatlarni yuzaga keltiradi.


“Shuningdek, iqtisodiyotda narxlarning muttasil oshib borishi sharoitida omonatchilar o'z mablag'larini past foiz stavkalarida bank depozitlariga joylashtirishni ma'qul ko'rmaydilar va banklar depozit foiz stavkalarini ko'tarishga majbur bo'ladi. Natijada bank majburiyatlari qiymati aktivlari daromadligiga qaraganda tezroq sur'atlarda o'sadi.

Jalb qilingan depozitlar bo'yicha xarajatlar oshishini qoplash maqsadida

banklar ham mos ravishda biznes xatarlarni kamaytirish uchun kreditlarni yuqori foiz stavkalarda hamda qisqa muddatlarga ajratishni afzal ko‘radi. Bu esa iqtisodiyotda investitsiyalarni moliyalashtirish imkoniyatlarini cheklaydi va iqtisodiy o‘rishga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi. Shu bilan birga, bugungi kunda mamlakatimizda uzoq muddatli resurslar bozorining rivojlanmaganligi sababli investitsiyalarni moliyalashtirish imkoniyatlarini yanada cheklab qo‘yishi mumkin.

Past va barqaror inflyatsiya esa foiz stavkalari shakllanishida inflyatsiya uchun to‘lovlarni kamaytiradi hamda kreditorlar tomonidan uzoq muddatli kreditlar taklifini oshirishga imkon yaratadi. Bunda nafaqat tijorat banklari, balki mahalliy va xorijiy investorlar ham uzoq muddatli moliyaviy resurslarni past inflyatsiya darajasiga ega bo‘lgan iqtisodiyotlarga yo‘naltirishni afzal ko‘radi. Umuman olganda, yuqoridagi omillarning barchasi milliy iqtisodiyotimizning o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib o‘rta va uzoq muddatli rivojlanish modelini yaratishni, makroiqtisodiy siyosatning samarali muvofiqlashtirilishini, pul-kredit siyosatini yuritishda ehtiyotkorona yondashuvni taqozo etadi.

Tahlillarimiz ko‘rsatishicha, 2018-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasi joriy hisob balansining defitsit bilan chiqishi kuzatilgan. Biroq mazkur davrda milliy valyuta – so‘mning AQSh dollariga nisbatan almashuv kursi sezilarli darajada devalvatsiya qilingan (2-rasmga qarang). Nazariy jihatdan devalvatsiya tashqi savdo qoldig‘iga ijobiy ta‘sir etishi, xususan eksportni rag‘batlantiruvchi xarakter kasb etishi kerak edi. Fikrimizcha, mazkur holat mamlakatimiz savdo rejimi bilan bog‘liq bo‘lib, turli bojlar va boshqa cheklovlar bois, importning keskin tushishi va eksportning oshishini yetarlicha rag‘batlantirmagan.




3.7-rasm. So'mning AQSh dollariga nisbatan devalvasiyasi va joriy hisob balansi saldosi dinamikasi⁸⁹

Shu boisdan ham hozirgi kunda mamlakatimizda valyuta siyosatini erkinlashtirishda nafaqat valyuta siyosatining bozor mexanizmlarini joriy qilish amaliyotini takomillashtirishga, balki xo'jalik sub'ektlari eksport salohiyatini yuksaltirishni rag'batlantirishning muqobil usullariga ham e'tibor qaratilmoqda. Xususan, mahalliy ishlab chiqaruvchilarning tashqi bozorlardagi raqobatbardoshligini oshirish uchun tijorat banklari tomonidan eksport kreditlarini ajratish amaliyoti shular jumlasidandir. Shuningdek, savdo rejimini erkinlashtirish bo'yicha ham muhim qadamlar tashlanayotganligi, respublikamizning Jahon savdo tashkilotiga a'zoligi bo'lishi uchun yetarli shart-sharoitlarni ta'minlashga jiddiy yondashuv ham kelgusida valyuta siyosati mexanizmlarining ta'sirchanligini oshirishga xizmat qiladi.

2018-2020 yillarda O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining valyuta bozoridagi intervensiyasi hajmida ham o'sish tendensiyasi kuzatilgan. Xususan, intervensiya mazkur davrda 1,7 barobarga oshgan. Ayni paytda, 2021 yilga kelib, Markaziy bank intervensiyasi hajmi 40 foizga kamaygan va 3,2 mlrd. AQSh dollarini tashkil etgan (3.2 -rasmga qarang). 2021 yilda oltin eksporti 4,1 mlrd. AQSh dollarini yoki umumiy eksportning 24,7 foizini tashkil etganligini hisobga

⁸⁹ O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

olsak, Markaziy bank tomonidan valyuta intervensiya-sini amalga oshirishda oltin-valyuta zaxiralarining «neytralligi» tamoyiliga amal qilayotganligini ko‘rish mumkin. 2021 yilda respublika valyuta bozorida yuz bergan muhim o‘zgarishlardan biri sifatida tijorat banklarining xo‘jalik sub’ektlari bilan birjadan tashqari valyuta bozorida to‘g‘ridan-to‘g‘ri valyuta operatsiyalari hajmining keskin oshganligini ta’kidlash o‘rinlidir. Chunonchi yuridik shaxslar bilan jami valyuta operatsiyalarning 94 foizi birjadan tashqari valyuta bozoriga to‘g‘ri keldi. Ushbu holat 2021 yilning 15 fevralidan boshlab, respublikamizda valyuta operatsiyalarini amalga oshirish bo‘yicha kiritilgan o‘zgarishlar bilan uzviy bog‘liq.



3.8-rasm. O‘zbekiston valyuta bozorida talab, taklif va Markaziy bank intervensiya-si hajmidagi o‘zgarishlar dinamikasi, mlrd. AQSh dollarida⁹⁰

Xususan, raqamli transformatsiya sharoitida valyuta siyosatini amalga oshirish mexanizmi samaradorligini oshirish yo‘nalishlari, milliy iqtisodiyotda dollarlashuv darajasini kamaytirish orqali valyuta siyosati samaradorligini oshirish, O‘zbekistonda Markaziy bank raqamli valyutasini muomalaga chiqarish shart-sharoitlari, raqamli iqtisodiyot sharoitida valyutaviy integratsiyani chuqurlashtirish istiqbollari bo‘yicha ko‘plab tadbirlar amalga oshirilmoqda.

⁹⁰ Markaziy bank hisobot ma’lumotlari asosida dissertant tomonidan tuzildi.

2017 yilning sentabr oyida soʻmning AQSh dollariga nisbatan keskin devalvatsiyasini keltirib chiqargan valyuta siyosatini liberallashtirish oqibatida xorijiy valyutadagi depozitlarning pul massasidagi ulushi 2017 yil 1 sentabrdagi 23 foizdan 2017 yilning 1 oktabr holatiga 33 foizga oshgan. Biroq keyinchalik ham mazkur koʻrsatkich oʻsishda davom etdi va 2018 yilning 1 mart holatiga oʻzining eng yuqori darajasini (38 %) qayd etdi (4-rasmga qarang). 2021 yilning 1 yanvar holatiga kelib, chet el valyutasidagi depozitlarning pul massasidagi ulushi 32 foizni tashkil etgan va bu soʻnggi uch yildagi nisbatan barqaror saqlanib qolayotgan qariyb oʻrtacha koʻrsatkichdir. Bundan tashqari, mamlakatimizda kreditlar va depozitlarning dollarlashuvi darajasi ham yuqoriligicha qolmoqda (3.2-jadval). Tahlil qilinayotgan davrda kreditlarning dollarlashuvi biroz boʻlsada pasayib, 2021 yilning dekabr oyiga kelib, qariyb 49,5 foizni tashkil etgan.

3.2-jadval

Oʻzbekistonda bank kreditlari va depozitlarining dollarlashuvi darajasi⁹¹

	01.01.2018	01.01.2019	01.01.2020	01.12.2020	01.12.2021
Xorijiy valyutadagi kreditlarning jami kredit qoʻyilmalaridagi ulushi, %da	62,3	55,9	47,7	49,1	49,5
Xorijiy valyutadagi depozitlarning jalb qilingan jami depozitlardagi ulushi, %d	48,4	38,1	43,9	43,3	38,6

Vaholanki, 2021 yilda kreditlar boʻyicha dollarlashuv darajasini 45 foizga tushirish vazifasi qoʻyilgan edi. Depozitlar dollarlashuvi kreditlar dollarlashuviga nisbatan pastroq darajada boʻlsada, 2019-2020 yillarda depozitlar dollarlashuvi oʻsish tendensiyasini qayd etgan. Muallif fikricha, respublikamizda tadbirkorlarni xorijiy valyutada kredit olishga undayotgan asosiy omillar sifatida quyidagilarni keltirib oʻtish mumkin:

⁹¹ Oʻzbekiston Respublikasi Markaziy banki maʼlumotlari asosida tuzilgan.

1. Xorijiy valyutadagi foiz stavkalarining milliy valyutadagi foiz stavkalariga nisbatan pastligi.

2. Devalvatsiya sur'atlarining pastligi (2021 yilning dastlabki yarim yilida milliy valyuta kursining devalvatsiya darajasi 1,2 foizni tashkil etdi va bu 2018 yildan buyon eng yaxshi ko'rsatkich hisoblanadi).

Dollarlashuvning monetar siyosatga ta'siri borasida iqtisodchi-olimlar yagona fikrga kelishmagan bo'lsada, umumiy xulosaga ko'ra, dollarlashuv pul-kredit siyosati transmission mexanizmiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bundan tashqari, moliyaviy dollarlashuv darajasi yuqori bo'lgan mamlakatlarda markaziy banklar xorijiy valyutada so'nggi navbatdagi kreditor funksiyasini to'la qonli bajara olmasligi ortidan xorijiy valyutadagi likvidlilik riski darajasi ortadi.

Shu boisdan, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki so'nggi paytlarda xorijiy valyutadagi depozitlar bo'yicha majburiy zaxira talabnomalarini oshirish orqali depozitlar dollarlashuvi muhiti jozibadorligini pasaytirishga harakat qilmoqda.

3.3-jadval

Xorijiy va milliy valyutadagi depozitlarga nisbatan majburiy zaxira talablarining o'zgarishi⁹²

Majburiyat valyutasi	Muddati	01.01.2018 holatiga		01.10.2018 yildan boshlab	01.07.2019 yildan boshlab	05.08.2021 yildan boshlab
		Jismoniy shaxslar uchun	Yuridik shaxslar uchun			
Milliy valyuta	2 yildan ortiq	0	0	0	4	4
	1 yildan 2 yilgacha	2	7	2		
	Boshqa depozitlar	4	4	4		
	2 yildan ortiq	0	0	0	14	18
	1 yildan 2 yilgacha	3	8	7		
	Boshqa depozitlar	6	16	14		

⁹² O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Xususan, 2 yildan ortiq muddatga jalb qilingan xorijiy valyutadagi depozitlarga nisbatan majburiy zaxira stavkasi 2018 yilda 0%ni tashkil etgan bo'lsa, 2019 yilning 1 iyulidan boshlab, muddatidan qat'iy nazar, xorijiy valyutadagi depozitlarga majburiy zaxira stavkasi 14% etib belgilandi. 2021 yilning 5 avgustidan boshlab, milliy valyutadagi depozitlarga nisbatan majburiy zaxira stavkasi o'zgarishsiz qoldirilgani holda, xorijiy valyutadagi depozitlarga nisbatan majburiy zaxira stavkasi 18 %ga oshirildi (3.4-jadval).

Ushbu siyosat orqali Markaziy bank tijorat banklarining xorijiy valyutadagi resurslari hajmini qisqartirishga va shu orqali iqtisodiyotdagi xorijiy valyutada kreditlash hajmini qisqartirishni ko'zda tutadi. Muallif fikricha, xorijiy valyutadagi davlat qarziga xizmat ko'rsatishning og'irlashishi fiskal risklarning kuchayishiga va pirovardida tizimli risk muammolarini keltirib chiqarishi mumkin. Shuningdek, moliyaviy dollarlashuv yuqori bo'lgan sharoitlarda valyuta kursining o'zgarishi (milliy valyutaning qadrsizlanishi) xorijiy valyutadagi majburiyatlarni bajara olmaslik oqibatida tizimli bank inqirozlariga sabab bo'lishi mumkin. Ayni paytda, almashuv kursining doimiy pasayish tendensiyasi aholining Markaziy bank salohiyatiga va shu orqali milliy valyutaga nisbatan ishonchi pasayishiga sabab bo'layotganligini ham yodda tutish zarur. Chunki rivojlanayotgan mamlakatlarda inflyatsiya sur'atlari yuqoriligi bois, milliy valyutaning jamg'arma vositasi funksiyasini bajarishi qiyin kechadi va bu funktsiyani o'rinbosar sifatida barqaror yetakchi valyutalar (asosan AQSh dollari va yevro) bajara boshlaydi. Aholi jamg'armalarini milliy bank tizimi depozitlariga xorijiy valyutada joylashtirishni afzal biladi. Natijada bank sektori majburiyatlarining dollarlashuvi avj oladi.

Bundan tashqari, raqamli iqtisodiyot sharoitida zaif moliyaviy institutlar va beqaror milliy valyutaga ega bo'lgan mamlakatlarda boshqa mamlakatning barqaror valyutasidan, aytaylik AQSh dollaridan foydalanish o'rniga virtual valyutani afzal bilish holatlari ham avj olishi ehtimoli mavjud. Mazkur holat iqtisodchi olimlar tomonidan «Dollarlashuv 2.0» konsepsiyasi sifatida e'tirof

etilmoqda⁹³.

Ayni paytda, xalqaro amaliyotdan kelib chiqib, chakana MBRV loyihasi borasida izlanishlarni tashkil etish, uning emissiyasi texnologiyasi, saqlash usullari borasida bir to'xtamga kelish zarur. Shuningdek, ulgurji MBRV loyihasi Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi doirasida valyutaviy hamkorlikni samarali tashkil etishda a'zo mamlakatlar markaziy banklariga likvidlilikni boshqarishda muhim monetar dastak vazifasini o'tashi mumkin. Yana bir muhim jihat shundaki, ulgurji MBRVni loyihasini amalga oshirishda integratsion birlashmaga a'zo mamlakatlar markaziy banklari o'zaro likvidlilikni boshqarishda qulay instrumentga ega bo'lgani holda, mahalliy doirada o'z suverenitetini saqlab qoladilar.

3.3-§ Ishbilarmonlik muhitini yaratishda davlat fiskal va monetar siyosati samaradorligini oshirish yo'llari

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish mamlakat milliy iqtisodiyotining barqaror taraqqiy etishida muhim o'rin tutadi. Darhaqiqat, Prezidentimiz Sh.Mirziyoev aytganlaridek, "Bizning yana bir muhim vazifamiz - kichik biznes va tadbirkorlik sohasini qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish, mamlakatimiz iqtisodiy qudratini, yurtimizda tinchlik va barqarorlik, ijtimoiy totuvlikni mustahkamlashdan, bu soha ulushini yanada oshirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratib berishdan iborat".⁹⁴

O'zbekiston iqtisodiyotini barqaror sur'atlarda rivojlantirish omillaridan biri kichik biznes va xususiy tadbirkorlik taraqqiyotini ta'minlash hisoblanadi. Ushbu soha bozor kon'yunkturasi o'zgarishlariga tez moslasha olish, yangi ish o'rinlarini yaratish orqali aholi bandligini ta'minlash va daromad manbalarini yaratish, o'rta mulkdorlar sinfini shakllantirish kabi xususiyatlarga egaligi bilan ajralib turadi. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik iqtisodiyotning tez o'zgarib turadigan bozor talablariga javob berishini ta'minlaydigan zamonaviy tuzilmalarini

⁹³ Peprah, W. K., Afriyie, A. O., Abandoh-Sam, J. A., & Afriyie, E. O. (2018). Dollarization 2.0 a Cryptocurrency: Impact on Traditional Banks and Fiat Currency. International Journal of Academic Research in Business and Social Sciences, 8(6), 341–349.

⁹⁴ Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutq / Sh.M. Mirziyoyev. – Toshkent: O'zbekiston, 2016. - 56 b.

shakllantirishda, yangi ish o'rinlarini tashkil qilishda va aholi daromadlarini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning kreditlar, xomashyo resurslari, shuningdek, davlat xaridlari tizimidan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish zarur.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasining mamlakatimizni modernizatsiya qilish va yangilashning ishonchli tayanchi bo'lgan mulkdorlar sinfini, ya'ni o'rta sinfni shakllantirishdagi ulkan ahamiyatini hech narsa bilan qiyoslab bo'lmaydi.

Mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlantirish orqali uning YaIMdagi ulushini oshirish, aholini ish bilan band etish, ularning real daromadlarini ko'paytirish va turmush farovonligini yaxshilashda kreditlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda kichik biznes korxonalarida moliyaviy boshqaruvni tashkil etish va isloh qilish masalalari dolzarbligi kichik biznes korxonalari faoliyati iqtisodiy va tashkiliy sharoitlarining keskin o'zgarishi, iqtisodiyotning erkinlashuvi sharoitida ularning yashab qolishi va taraqqiyotining mavjud moliyaviy imkoniyatlardan samarali foydalanish darajasiga bevosita bog'liqligi bilan xususiyatlanadi. Umuman, kichik biznes korxonalari faoliyatini moliyalashtirish muammosi hozirgi kunda eng dolzarb masalalardandir.

Kichik biznes sub'ektlarining iqtisodiy salohiyati va undan foydalanish imkoniyatlarini belgilab beruvchi me'yoriy hujjatlar dasturini amalga oshirishda korxonaning moliyaviy barqarorligini resurslar bilan ta'minlovchi omillar hal qiluvchi ahamiyatga ega. Kichik biznes sub'ektlarining moliyaviy barqarorligini ta'minlash dasturi tadbirlari maqsadlar, sharoitlar va resurslar bo'yicha o'zaro bog'langan. Dastur tadbirlari korxonani rivojlantirish strategiyasining maqsadiga erishish uchun korxonaning foydalanilmayotgan qirralari, moliyaviy taqchillikka sabab bo'layotgan omillarni aniqlash va qo'yilgan strategik vazifani hal etishni ta'minlovchi variantli hisob-kitoblarni amalga oshirish zaruriyatini belgilab beradi.

Dunyoda iqtisodiy sohadagi eng muvaffaqiyatli davlat hukumatlari, xususiy sektorni qo'llab-quvvatlash va kichik biznesni rivojlantirish uchun qulay

ishbilarmonlik muhitini yaratish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshiradigan mamlakatlardir. Ular orasida Germaniya, Yaponiya, Janubiy Koreya Respublikasi, AQSh va Buyuk Britaniya bor. Shundan kelib chiqib, O'zbekiston Respublikasining kelgusida iqtisodiyotning ushbu yuqori tezlikda harakatlanadigan lokomotivini maksimal darajada qo'llab-quvvatlashga qaratilgan asosiy maqsadlardan biri ekanini tasavvur qilish qiyin emas. Mamlakatda iqtisodiyotni inklyuziv rivojlantirish maqsadga muvofiqdir. Xalqaro Valyuta fondi mutaxassislarining fikricha yuqoridagi uch unsur birgalikda ishlashi mamlakatning rivojlanishida katta omil bo'lib xizmat qilishini ta'kidlashadi.⁹⁵.



3.9-rasm. Mamlakat inklyuziv rivojlanish unsurlari⁹⁶

O'rganilgan xorij tajribalaridan shu narsa ma'lum bo'ladiki kichik biznes va xususiy tadbirkorlik o'sib bormoqda. Ko'pgina shijoatli odamlarning g'ayrioddiy g'oyalari bor, lekin ko'pincha bu orzuni amalga oshirish uchun mablag' topish muammosiga duch keladi. Tadbirkorlar o'zlarining barcha kuchlarini kapitalini oshirishga qaratishni afzal ko'rishadi. Ular yangi biznes ochishga qarz olish uchun vaqt va mablag'larni sarflashni xohlamaydilar.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik uchun moliyalashni ta'minlashda muhim rol o'ynaydigan bir qancha elementlar mavjud bo'lib ular quyidagilardir:

Hujjatlashtirishni to'g'ri bajarishlik - banklar bu mamlakatdagi qarzlarning katta qismini beradi. Kichik korxonalar, odatda, banklar izlayotgan zarur kafolatlarni ta'minlay olmaydilar. Qarzdorning bankka yetarli ma'lumotlari taqdim qilmasligi, kreditni taqdim etuvchi bank uchun yana bir to'siqdir. Hujjatlarning yo'qligi esa, bank va qarz oluvchi o'rtasida muammolarni yuzaga keltirishi

⁹⁵ 2018 yil 9 noyabr kuni O'zbekiston Respublikasi Bank moliya akademiyasida Xalqaro valyuta fondi (IMF) vakillari tomonidan "Kavkaz va Markaziy Osiyo mamlakatlari mintaqasining iqtisodiy rivojlanish istiqbollari-2018" (2018 Regional Economic Outlook for the Caucasus and Central Asian countries) taqdimoti ma'lumotlari..

⁹⁶ www.imf.org ma'lumotlari asosida tayyorlandi.

mumkin. Bu juda katta to'siq bo'lishi mumkinligi sababli, korxonalar barcha tegishli hujjatlarning mavjudligini ta'minlashi kerak;

Professional rahbarlik - ba'zi tadbirkorlar har bir masalani o'zlariga hal qilishga qodirdirlar. Boshqa tomondan, sohaning har tomonini boshqarishga urinib ko'rish, muammolarni yuzaga keltirishi mumkin. Siz hisob-kitob va soliqqa tortish qobiliyatiga ega bo'lishingiz mumkin, lekin agar siz ekspert bo'lmasangiz, u biroz sindirishga olib kelishi mumkin.

Foiz stavkalari - kichik biznes va xususiy tadbirkorlikka berilgan kreditlar, odatda, katta hajmli birliklardan farqli o'laroq, ancha yuqori darajada beriladi. Shu bois, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikda yaxshi natijalarga erishish uchun ajoyib natijalar ko'rsatish va namoyish qilish muhimdir. Ishlashning davom etishi bilan, ushbu sektorning umumiy in'ikosi asta-sekin o'zgarib turadi.

Kredit reytingi - kredit reytingi kreditni tasdiqlash jarayonida juda muhim rol o'ynaydi va foiz stavkalariga ta'sir ko'rsatadi. Kredit tarixidagi har qanday o'zgarish yomon kredit balli natijaga olib kelishi mumkin. Yomon kredit ballari kredit olishda muhim to'siq bo'lishi mumkin.

Kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlashga yordam berish uchun nima qilish kerak? Xalqaro tajribalarda, xususan Hindistonda SMEcorner.com kichik va o'rta korxonalariga banklar va NBFC's(nobank tashkilotlari) lardan yordam olishda yordam beradigan birinchi onlayn platformasi hisoblanadi. Bularning barchasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning kundalik tashvishlar bo'lmish ya'ni, tez va oson pul topishiga ko'maklashadi, ularning o'sish va kengayish imkoniyatlarini kengaytiradi. Respublikamiz bank tizimi amaliyotida ham ushbu usullarni qo'llash yaxshi samara beradi. Hindistonda SMEcorner.com tizimi orqali kreditlash⁹⁷. Ushbu tizim orqali kreditlashni 4 bosqichga bo'lib berish amaliyoti mavjud bo'lib, uni respublikamiz bank tizimida qo'llash mumkin bo'ldi.

⁹⁷ www.SMEcorner.com ma'lumotlari asosida tayyorlandi.

3.4-jadval


O'zbekiston Respublikasi banklari tomonidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikka ajratilgan jami kreditlar hajmida ayrim tijorat banklari ulushi⁹⁸

	2018 y.	2019 y.	2020 y.	2021 y.	2022 y.	2023 y.
Tijorat banklari tomonidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikka ajratilgan jami kreditlar	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0
shundan						
«O'zmilliybank»	14,9	14,6	16,9	18,3	15,2	18,7
«O'zsanoatqurilishbank»	7,1	7,1	7,3	5,7	5,7	6,6
«Agrobank»	7,7	6,4	6,4	4,6	3,5	6,5
«Mikrokreditbank»	7,1	7,1	3,5	6,2	4,2	6,8
«Qishloq qurilish bank»	4,8	5,7	5,3	4,7	3,2	6,5

2023 yil holatiga ko'ra mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikka ajratilgan kredit qo'yilmalarining yuqori ulushi «O'zmilliybank», «Mikrokreditbank», «O'zsanoatqurilishbank» kabi ATBlari hissasiga to'g'ri kelgan. Mazkur tijorat banklari tomonidan iqtisodiyotda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarini moliyaviy jihatdan qo'llab-quvvatlash bo'yicha imtiyoli kreditlar ajratishga qaratilgan chora-tadbirlar faol ravishda amalga oshirilmoqda. Xususan, «Mikrokreditbank» ATBning kreditlash bozoridagi ustuvor yo'nalishi kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash hamda tadbirkorlik sub'ektlariga mikromoliyaviy xizmatlar ko'rsatishdan iborat.

“Mikrokreditbank” ATB o'z faoliyatini kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish, yakka tartibdagi mehnat faoliyatini, oilaviy biznes va kasanachilikni faollashtirish yo'li bilan yangi ish o'rinlarini yaratish, ayniqsa qishloq joylarda aholi keng tabaqalarining mikromoliyaviy xizmatlardan bahramand bo'lishini ta'minlash uchun moliyaviy mablag'lar berishni yanada kengaytirishga qaratib kelmoqda.

⁹⁸ Tijorat banklarining yillik hisobot ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.



3.10-rasm. 2023 yil davomida kichik tadbirkorlik sub'ektlariga ajratilgan kreditlarning iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha tarkibi

Mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlariga investitsiya maqsadlari va boshlang'ich kapitalni shakllantirish uchun kreditlar ajratishni kengaytirish hamda mikrokreditlash hajmini oshirish orqali aholini, ayniqsa, kam ta'minlangan oilalarni tadbirkorlik faoliyatiga keng jalb qilish va ularning turmush farovonligini oshirishga qaratilgan siyosatning yuritilishi ijobiy natijalarga erishish imkonini bermoqda.

Yuqoridagi 3.5-rasm ma'lumotlaridan ko'rish mumkinki, 2023 yilda tijorat banklari tomonidan kichik tadbirkorlik sub'ektlariga ajratilgan kreditlarning tarmoq tarkibida yuqori ulushni sanoat tarmog'i (32 foiz), savdo va umumiy ovqatlanish tarmog'i (19,4 foiz) hamda qishloq xo'jaligi tarmog'i (14,2 foizni) tashkil etgan. Mazkur holat, tijorat banklari tomonidan iqtisodiyotning sanoat, savdo va umumiy ovqatlanish va qishloq xo'jaligi tarmoqlaridagi kichik biznes sub'ektlarining faoliyatini barqarorlashtirishga, yangi biznes sub'ektlarini shakllanishini moliyaviy qo'llab-quvvatlashga berilgan e'tibor bilan izohlanadi.

Mamlakatimizda kichik biznes sub'ektlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash borasida me'yoriy-huquqiy xujjatlar qabul qilingan, jumladan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 7 iyundagi PQ-3777-sonli "Har bir oila - tadbirkor" dasturini amalga oshirish to'g'risida"gi Qarori, O'zbekiston

Respublikasi Prezidentining 2017 yil 17 noyabrdagi PF-5242-sonli “Hunarmandchilikni yanada rivojlantirish va hunarmandlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 27 iyundagi PF-5466-sonli “Yoshlar-kelajagimiz” Davlat dasturi to‘g‘risidagi Farmonlari. Mazkur Qaror va Farmonlarda belgilangan vazifalarni samarali ijrosini ta‘minlash maqsadida oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish, hunarmandlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash hamda yoshlarni tadbirkorlik faoliyatini rag‘batlantirishga tijorat banklari tomonidan kredit mablag‘larini yo‘naltirish borasidagi chora-tadbirlar faol tarzda amalga oshirilmoqda, mazkur kreditlar hisobidan hududlarda jami 20 mingdan ortiq yangi ish o‘rinlari yaratilishiga erishilgan. Xususan, 2020 yilda aholiga tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun 3,6 trln. so‘m miqdorida kreditlar ajratilganligi mazkur sohani rivojlantirish va aholini ish bilan ta‘minlash orqali daromadlarini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarning faol tarzda amalga oshirilayotganligi bilan izohlanadi.

3.5-jadval


Kichik tadbirkorlikni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash uchun ajratilgan kreditlar (asosiy yo‘nalishlar bo‘yicha) (mlrd.so‘m)

Asosiy yo‘nalishlar	2020 y.	2021 y.	2022 y.	2023 y.
Barcha moliyalashtirish manbalari hisobidan ajratilgan kreditlar, jami	19564,7	30648,9	55430,0	48389,7
<i>shundan:</i>				
Ajratilgan mikrokreditlar	4015,0	6205,9	10777,5	10194,3
Oilaviy tadbirkorlik va hunarmandchilikni rivojlantirishga		668,5	1136,1	2476,4
Xizmat ko‘rsatish va servis sohasini rivojlantirishga	3582,2	6547,8	8772,2	5959,8
Ayollar tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlashga	2782,3	3361,5	4499,8	4895,9
Aholiga tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun		1748,7	4906,3	3602,1
Xorijiy kredit liniyalari hisobidan (<i>mln. AQSh dollari</i>)	521,8	1039,3	1633,7	2139,0

Xotin-qizlar o‘rtasida bandlikka ko‘maklashish va tadbirkorlikni rivojlantirish, ayniqsa, qishloq joylardagi yosh qizlarni oilaviy va xususiy

tadbirkorlikka, hunarmandchilikka keng jalb qilish maqsadida tadbirkorlik bilan shugʻullanish istagini bildirgan ayollarga ajratilgan bank kreditlari hajmi 2023 yil yakuni boʻyicha 2020 yilga nisbatan qariyb 4 barobarga oshgan holda 4,9 trln. soʻmni tashkil etgan.

2023 yilda tijorat banklari tomonidan kichik biznes subʼektlarining investitsion loyihalarini moliyalashtirish maqsadida xalqaro moliya institutlari va chet el banklarining kredit liniyalarini jalb qilish borasida ham chora-tadbirlar faollik bilan amalga oshirilmoqda.



3.11-rasm. Tijorat banklari tomonidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subʼektlariga barcha moliyalash manbalari hisobidan ajratilgan kreditlar⁹⁹ (mlrd. soʻmda)

Yuqoridagi 3.4-rasm maʼlumotlarini tahlil qilish natijasida maʼlum boʻldiki, tijorat banklari tomonidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subʼektlariga barcha moliyalash manbalari hisobidan ajratilgan kreditlar salmogʻi yildan-yilga oʻsib borish tendensiyasiga ega ekanligini koʻrishimiz mumkin. 2015 yilda 12,1 trln. soʻm kredit berilgan boʻlsa, 2020 yilda bu koʻrsatkich 4,0 marta oshib, 48,4 trln. soʻmni tashkil etganligining oʻzi ham respublikamizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni kreditlash tizimi rivojlanayotganligidan dalolat berib turibdi. 2021 yilning 1 yanvar holatiga ushbu maqsadda tijorat banklari tomonidan 30 dan

⁹⁹ www.stat.uz Oʻzbekiston Respublikasi Davlat statistika qoʻmitasi maʼlumotlari. Oʻzbekiston Respublikasining statistik axborotnomasi.

ziyod chet el banklari va xalqaro moliya institutlari bilan ularning kredit liniyalarini jalb etish bo'yicha hamkorlik o'rnatilgan bo'lib, kichik biznes sub'ektlariga xorijiy kredit liniyalari hisobidan 2,1 mlrd. AQSh dollari miqdorida yoki 2015 yilga nisbatan 5 barobar ko'p kreditlar ajratilgan.

Tadqiqot ishida kichik biznes sub'ektlarining moliyaviy barqarorligini modellashtirishda balans nisbatlari asosida ishlab chiqilgan¹⁰⁰ balans hisobini, soliq solishni, sug'urtalashni, moliyaviy ma'lumotlarga ishlov berishni samarali amalga oshirish imkonini beruvchi¹⁰¹ korxonalarining matematik–moliyaviy modellaridan birinchilardan bo'lib foydalanildi. Ushbu modellardan foydalanishda tahliliy vazifalar odatda markazlashgan tarzda hal etiladi, korxonaning moliyaviy holatini tahlil qilish vazifalari esa ushbu holatda mustaqil vazifa sifatida ko'rib chiqiladi. Ularni ikkita bosqichda avtomatlashtirish orqali hal etish mumkin. Birinchi bosqichda buxgalteriya hisobi ma'lumotlari bo'yicha dastlabki axborotga avtomatlashtirilgan tarzda ishlov berish nazarda tutiladi, ikkinchi bosqichda esa olingan axborot korxonaning moliyaviy barqarorligini ta'minlash integratsiyalashgan tizimida foydalaniladi.

Fikrimizcha, ushbu tizimda moliyaviy strategiya tarkibining modeli va korxonaning asosiy moliyaviy-iqtisodiy imitatsion modeli alohida rol o'ynaydi. Ularning asosida iqtisodiy jarayonlarni modellashtirish bo'yicha olib borilgan ilmiy ishlar yotadi¹⁰².

Keyingi yillarda mamlakatimizda aholining keng qatlamini tadbirkorlikka jalb qilish va ularning daromad manbalarini kengaytirishga qaratilgan «Har bir oila — tadbirkor», «Yoshlar kelajagimiz» va boshqa ijtimoiy dasturlar doirasida jami

¹⁰⁰Hahn D., Untemehmungsziele im Wandel, in: Untemehmerischer Wandel, Gomez P. / Hahn D. / Miiller-Stewens G. / Wunderer R.(Hrsg), Untemehmerischer Wandel. Konzepte zur organisatorischen Emeuerung – Knut Bleicher zum 65. Geburtstag, Wiesbaden, 1994. -P.59-83.

¹⁰¹Уткин Э.А., Мырынюк И.В. Контроллинг: российская практика. -М.:Финансы и статистика, 1999. -272 с.; Küpper H.U. Notwendigkeit der theoretischen Fundierung des Controlling, in: Scherm E./Pietsch G. [Hrsg.]: Controlling - Theorien und Konzeptionen, München, 2004. -P.23-40; Weber J./Schäffer U. Controlling als Koordinationsfunktion?, in: Kostenrechnungs-praxis (krp), 44 (2000), 2, -P. 109-117.

¹⁰² Емельянов А.А, Власова Е.А., Дума Р.В. Имитационное моделирование экономических процессов. Учебное пособие. -М.:Финансы и статистика, 2002. – 368 с.; Негашев Е.В. Анализ финансов предприятия в условиях рынка. -М.:Высшая школа, 1997. – 195 с.; Раяцкас Р.Л., Плакунов М.К. Экономические догмы и управленческая реальность. -М.:Экономика, 1991. – 207 с.; Томас Р. Количественные методы анализа хозяйственной деятельности. Пер. с англ. -М.:Дело и Сервис, 1999. – 432 с.

13 trln soʻmdan ziyod imtiyozli kreditlar ajratilib, 600 mingdan ziyod oilalarni qamrab olishga erishildi. Ushbu chora-tadbirlar hududlarda aholining tadbirkorlik faoliyati bilan shugʻullanishi, kichik biznes subʻektlari faoliyatini kengaytirish, aholining ish bilan bandligini oshirishda muhim rol oʻynamoqda. Shu bilan birga, mavjud tajribalar hamda ilgʻor xorijiy tajribalarni oʻzaro uygʻunlashtirish asosida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subʻektlarini kreditlash mexanizmlarini takomillashtirishdan iborat boʻlgan yaxlit tizimni shakllantirishni taqozo etmoqda.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni moliya-kredit mexanizmini takomillashtirish boʻyicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarni izchil davom ettirish maqsadida quyidagilarga alohida eʼtibor berish lozim deb hisoblaymiz:

- tadbirkorlikni qoʻllab-quvvatlashga qaratilgan mikrokreditlash tizimini institutsional jihatdan takomillashtirish va rivojlantirish;
- raqamli texnologiyalarni keng joriy etish orqali mikromoliyaviy xizmatlar koʻrsatish imkoniyatini yaratuvchi moliyaviy infratuzilmalar tarmoqlarini tashkil etish;
- mikromoliyalashning milliy tizimini yaratish va unda boshqa kredit tashkilotlarining manfaatdorlik asosida ishtirok etishini taʼminlovchi tizim joriy etish boʻyicha chora-tadbirlarni amalga oshirish;
- doimiy monitoring va tahlillar asosida tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish va kengaytirishni ragʻbatlantiruvchi moliyaviy va nomoliyaviy qoʻllab-quvvatlash choralarini takomillashtirish va yangilarini joriy etish;
- iqtisodiyotning tarmoq va sohalarida amalga oshirilayotgan islohotlarning tadbirkorlikni qoʻllab-quvvatlash borasidagi chora-tadbirlar bilan oʻzaro muvofiqligi va toʻldiruvchanligini taʼminlash vazifalaridan kelib chiqib barcha turdagi xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishning asosiy yoʻnalishlari va mexanizmlari ishlab chiqilishi va amalga oshirilishini taʼminlash.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subʻektlarini kreditlash bilan bogʻliq boʻlgan quyidagi muammolar mavjud: bozor infratuzilmasi, shu jumladan, mikromoliyaviy infratuzilmaning toʻliq shakllanmaganligi va yetarli darajada rivojlanmaganligi, ushbu xizmat bozorining hududlar boʻyicha notekis

joylashganligi; kichik biznes sub'ektlarini mikrokreditlash amaliyotini rivojlantirishga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillarning mavjudligi; kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan investitsiya, boshlang'ich va aylanma kapitalni to'ldirish uchun katta hajmdagi kreditlarga ehtiyoj mavjudligi; xorijiy moliyaviy fondlar tomonidan ajratilayotgan kreditlarni kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, jumladan tadbirkor ayollar ish faoliyatiga jalb etish jarayonlarining sustligi; kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari faoliyatini yanada kengaytirishda xorijiy mamlakatlar xalqaro moliya institutlari va hukumatlari imtiyozli kredit liniyalari va grantlarini jalb etish imkoniyatlaridan to'liq foydalanmaslik.

Barchamizga ma'lumki, xususiy tadbirkorlik faoliyatini himoya qilishning huquqiy mexanizmlari va kafolatlarini yanada mustahkamlash, ularni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning yangi vositalarini yaratishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, tadbirkorlik sub'ektlarining kredit resurslaridan foydalanishini kengaytirish, shu asosda yangi ish o'rinlarini tashkil etishni rag'batlantirish va respublika bank-moliya tizimi faoliyatini yanada takomillashtirish maqsadida 2017 yil 17 avgustda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasini tashkil etish to'g'risida»gi qarori qabul qilindi.

Quyidagi 3.4-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, 2018-2021 yillarda tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi tomonidan kreditlarga kafillik, kompensatsiya mablag'lari keltirilgan.

2018-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasi bo'yicha kichik biznes sub'ektlariga moliyaviy yordam berish uchun jami 10 689 ta kafillik berish to'g'risidagi shartnomalar imzolangan, 21 071,7 mlrd so'mlik kreditlar ajratilgan. Shundan 8 062,9 mlrd so'mlik mablag'ga davlat jamg'armasi kafillik bergan. Xuddi shunday 2018-2021 yillarda 29 342 ta shartnoma imzolanib, kichik biznes

sub'ektlariga 41 451,8 mlrd so'mlik kredit mablag'lari uchun 5 156,7 mlrd so'mlik kompensatsiya shartnomalari rasmiylashtirilgan.¹⁰³

3.6-jadval

**2018-2021 yillarda tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash davlat
jamg'armasi tomonidan ko'rsatilgan moliyaviy yordam asosida ajratilgan
kreditlar to'g'risida ma'lumot¹⁰⁴ (mln.so'm)**

Viloyatlar	Kafillik			Kompensatsiya		
	Shartnomalar soni	Kafillik	Kredit	Shartnomalar soni	Kompensatsiya	Kredit
Qoraqalpog'iston Respublikasi	461	374 044	892 690	974	223 987	1 553 289
Andijon viloyati	977	619 589	1 468 926	2 325	444 876	3 287 012
Buxoro viloyati	832	707 748	2 208 087	2 300	491 481	4 232 874
Jizzax viloyati	622	465 391	1 268 517	2 108	333 719	2 483 036
Qashqadaryo viloyati	1 379	467 343	1 213 150	2 840	298 943	2 150 692
Navoiy viloyati	429	370 219	926 075	1 329	229 528	1 864 099
Namangan viloyati	796	451 586	1 021 303	2 213	283 770	2 107 940
Samarqand viloyati	720	421 523	1 057 453	3 720	379 318	3 669 360
Surxondaryo viloyati	737	522 457	1 435 384	1 210	338 971	2 250 954
Sirdaryo viloyati	603	432 129	1 002 501	663	186 181	1 491 136
Toshkent viloyati	766	810 110	2 055 176	2 115	518 677	4 065 945
Farg'ona viloyati	925	550 383	1 669 128	3 230	337 885	2 693 293
Xorazm viloyati	922	1 139 632	2 819 315	2 794	588 008	4 314 544
Toshkent shahar	520	730 767	2 033 981	1 521	501 346	5 287 570
JAMI:	10 689	8 062 923	21 071 687	29 342	5 156 689	41 451 745

O'zbekistonda kichik biznes sub'ektlarini ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlashda moliya-kredit mexanizmining uzviy qismiga aylanishini ta'minlovchi chora-tadbirlar, iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida ularning tarkibiy tuzilmasi va infratuzilmasini takomillashtirish, kichik biznesning raqobatbardoshligini oshirish yo'llari tadqiq etildi. Kichik biznesni ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotga erishish mexanizmining uzviy qismiga aylanishini ta'minlash uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

kichik biznes sub'ektlarini soliqqa tortishning iqtisodiy faolligini ta'minlovchi imtiyozli tamoyilini qo'llash;

zamonaviy bozor iqtisodiyoti va iqtisodiy pandemiya holatlari sharoitida kichik korxonaning barqaror ishlashi va raqobat muhitiga bardosh bera olishiga

¹⁰³ O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi ma'lumotlari..

¹⁰⁴ 2021 yil 1 sentyabr holatiga ko'ra. O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi ma'lumotlari asosida tadqiqotchi tomonidan tayyorlandi..

moliyaviy ko'maklashish, jumladan, kichik biznes sub'ektlarini shaklining rivojlanishini rag'batlantirishda maxsus imtiyozlardan foydalanish,

kichik biznes sub'ektlarini iqtisodiy faolliklarini muntazam ravishda rag'batlantirish, moliyaviy natijalarni taqsimlashda imkon qadar erkinlikni ta'minlash;

kichik biznes sub'ektlarining rivojlanishidan bevosita manfaatdor bo'lgan tuzilmalar, nodavlat-notijorat tashkilotlari va boshqa sub'ektlarning o'zaro aloqasini mustahkamlash;

Kichik biznesni moliyalashtirishni takomillashtirish avvalambor, shu soha vakillari faoliyatidagi to'siqlarni bartaraf qilish, ular faoliyati to'g'risida keng ma'lumotlar bazasini shakllantirish, tijorat banklarining resurs bazasini shakllantirish, xorijiy kredit liniyalarini jalb etish, tijorat banklariga ular faoliyatini kreditlash bilan bog'liq imtiyozlar yaratish, aniq axborotlar bazasini shakllantirish, garov bilan bog'liq muammolarni bartaraf qilishdan iboratdir.

Kichik biznes sub'ektlarining qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining yanada takomillashtirilishi va ularning barqaror rivojlanishini ta'minlash borasidagi yangi samarali chora-tadbirlarning ishlab chiqilishi respublikaning iqtisodiyoti raqobatbardoshligini ta'minlashga va uning tashqi bozordagi mavqeini mustahkamlashga xizmat qiladi. Fikrimizcha, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish maqsadida qo'yidagi chora tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir.

– mamlakatimiz va uning hududlarida yanada qulay biznes muhiti yaratish, xususiy mulkchilikning ustuvorligini mustahkamlashga yo'naltirilgan qonun xujjatlarini takomillashtirish;

– xususiy tadbirkorlikka ko'proq erkinlik berish, davlatning boshqaruv funksiyalari va belgilangan me'yorlarni qisqartirish;

– kichik biznes sub'ektlarining moliya-kredit va xomashyo resurslaridan, ular ishlab chiqargan mahsulotlarga davlat buyurtmalari berilishidan keng foydalanishni ta'minlaydigan bozor vositalari va mexanizmlarini tatbiq etish;

- kichik korxonalarni tashkil qilish hamda kichik korxonalar va tadbirkorlarni ro‘yxatdan o‘tkazish tartib-qoidalarini yanada soddalashtirish;

- kichik biznes sub’ektlarini qurish va ularni muxandislik kommunikatsiya tarmoqlari – energiya va gaz ta’minoti, suv va issiqlik ta’minoti hamda boshqa tarmoqlarga ulanishi bo‘yicha shart-sharoitlarni yaxshilash va muddatlarini qisqartirish;

- kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasi uchun soliq va boshqa to‘lovlar bo‘yicha yanada qulay shart-sharoitlar yaratish, imtiyoz va preferensiyalar berish, hisobotlar tizimi hamda moliya, soliq va statistika organlariga hisobotlar topshirish mexanizmini takomillashtirish va unifikatsiyalash;

- kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub’ektlariga tijorat banklari tomonidan kreditlar berish mexanizmini yanada takomillashtirish va ularning hajmini oshirish;

- kichik biznesni rivojlantirishga xorijiy investitsiyalarni hamda to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalarni jalb etish va yo‘naltirish;

- sanoat tarmoqlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish hamda yuqori texnologiyaga asoslangan zamonaviy ishlab chiqarishlarni tashkil etish uchun keng imkoniyatlar yaratish;

- kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub’ektlar tomonidan ishlab chiqarishga innovatsion texnologiyalarni joriy etishni rag‘batlantirish;

- kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub’ektlarining tashqi iqtisodiy faoliyatdagi ishtirokini kengaytirish masalalarini tubdan hal etish, ularning eksport salohiyatini oshirishga ko‘maklashish.

Kichik biznes korxonalari faoliyatiga oldindan ko‘rib bo‘lmaydigan xilma-xil tavakkalchiliklar katta ta’sir ko‘rsatadi, kon’yunkturaning keskin o‘zgarib ketishi, mijozlarning to‘lovga qodir bo‘lmay qolishi, tabiiy ofatlar ularni qiyin ahvolga solib qo‘yadi.

Shu sababli, rivojlangan davlatlarda ularni sug‘urtalash tizimi yaxshi yo‘lga qo‘yilgan. Sug‘urta tizimi kichik korxonalarni, ayniqsa tijorat xatarlari katta

bo'lgan sohalarni rivojlantirishda qulay sharoitlarni kafolatlashi, o'z mablag'i yoki qarzga olingan kapital bilan tavakkal qilib ish boshlagan tadbirkorlarga ishonchli va zaruriy barqarorlikni yaratish kerak.

Xulosa qilib aytganda, kichik biznesni moliyalashtirishni takomillashtirish avvalambor, shu soha vakillari faoliyatidagi to'siqlarni bartaraf qilish, ular faoliyati to'g'risida keng ma'lumotlar bazasini shakllantirish, tijorat banklarining resurs bazasini shakllantirish, xorijiy kredit liniyalarini jalb etish, tijorat banklariga ular faoliyatini kreditlash bilan bog'liq imtiyozlar yaratish, aniq axborotlar bazasini shakllantirish, garov bilan bog'liq muammolarni bartaraf qilishdan iboratdir.

III -BOB bo'yicha xulosa

1.Mamlakatimizni 2017 — 2021 yillarda rivojlantirish-ning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi-doirasida o'tgan davr mobaynida davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini tubdan isloh etishga qaratilgan 300 ga yaqin qonun, 4 mingdan ziyod O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorlari qabul qilindi.

2.Iqtisodiyot tarmoqlarida barqaror yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash orqali kelgusi besh yilda aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulotni — 1,6 baravar va 2030 yilga borib aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromadni 4 ming AQSh dollaridan oshirish hamda “daromadi o'rtachadan yuqori bo'lgan davlatlar” qatoriga kirish uchun zamin yaratildi.

3.Bank tizimini isloh qilish va xususiylashtirishga tayyorlashda Markaziy bankning bank tizimining regulyatori sifatidagi rolini kuchaytirish orqali lozim darajadagi prudensial nazoratning amalga oshirilishi moliya tizimi barqarorligini ta'minlashning muhim komponenti hisoblanadi.

4.Mamlakat bank-moliya sektori rivojlanish darajasi va barqarorligini baholash maqsadida 2024 yilning yakuniga qadar Xalqaro valyuta jamg'armasi va Jahon bankining dasturi (FSAP) asosida moliyaviy sektor holatini baholash nazarda tutilgan.

5.Markaziy bank tomonidan samarali pul-kredit siyosati yuritilishi natijasida

iqtisodiyotda inflyatsiyaning barqaror past darajasi ta'minlanishi va narxlardagi keskin tebranishlarning oldi olinishi, o'z navbatida, aholi turmush farovonligini oshirish va biznes yuritish uchun qulay muhitni yaratishga asosiy poydevorlardan biri bo'lib xizmat qiladi.

6.Iqtisodiyotda ichki narxlar barqarorligining ta'minlanishi tadbirkorlik faoliyati uchun ham qulay sharoit hisoblanadi.

7.Milliy iqtisodiyotimizning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib o'rta va uzoq muddatli rivojlanish modelini yaratishni, makroiqtisodiy siyosatning samarali muvofiqlashtirilishini, pul-kredit siyosatini yuritishda ehtiyotkorona yondashuvni taqozo etadi.

XULOSA

Korxonalar investitsion va innovatsion faollikni ta'minlashning moliyaviy mexanizmlari tadqiq qilinib, uni takomillashtirish bo'yicha quyidagi xulosalarga kelindi:

2. Pul-kredit siyosatining transmission mexanizmi samaradorligini oshirish Markaziy bankning eng asosiy maqsadlaridan biri bo'ladi. Inflyatsion targetlash rejimiga o'tishda foiz kanalining muhimligini inobatga olgan holda Markaziy bank transmission mexanizmning mazkur kanalini rivojlantirishga asosiy e'tibor qaratadi.

3. Markaziy bank tomonidan kunlik likvidlilik taqdim etishda overnayt hamda kunlik valyuta svop operatsiyalari, likvidlilik olishda esa kunlik depozit operatsiyalaridan foydalaniladi.

4. Mamlakatda ichki narxlar barqarorligi ta'minlanishi makroiqtisodiy va ijtimoiy barqarorlikning kafolati bo'lib, iqtisodiy islohotlarni jadallashtirish va rivojlantirish dasturlarini muvaffaqiyatli amalga oshirishda zaruriy sharoit hisoblanadi.

5. Rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlarning markaziy banklari tajribalari hamda xalqaro moliya institutlari izlanishlari natijalari pul-kredit siyosatini amalga oshirishda narxlar barqarorligini ta'minlash maqsadining shak-shubhasiz ustuvorligini ko'rsatmoqda.

6. Markaziy bank monetar siyosatni amalga oshirishda uning an'anaviy vositalaridan foydalanish muhim o'rin tutadi. Nafaqat taraqqiy etgan mamlakatlarda, balki o'tish iqtisodiyoti mamlakatlarida ham an'anaviy monetar instrumentlardan foydalanish monetar siyosatni amalga oshirishning tayanch vositalari vazifasini bajarmoqda.

7. Monetar siyosat mamlakat yalpi ichki mahsulotining (YaIM) barqaror o'sishini ta'minlashda, milliy bank tizimidagi likvidlilik muammosini hal qilishda va inflyatsiyani jilovlashda muhim o'rin tutadi.

8. Markaziy bank pul-kredit siyosatining indikatorlari - bu milliy valyutaning va

mamlakatda baholar barqarorligini ta'minlash tadbirlarining samaradorligini baholashda o'ta muhim ahamiyatga ega bo'lgan moliyaviy miqdorlar o'zgarishining raqamli ko'rsatkichidir

9.Markaziy bankning pul-kredit siyosatini amalga oshirish va uning samaradorligini baholashda aniq ko'rsatkichlardan foydalanish masalasi qator taniqli iqtisodchi olimlar tomonidan ilgari surilgan va tadqiq qilingan.

10.Markaziy bank maqsadli faol tarzda foydalangan holda, tijorat banklari kredit emissiyasining o'sish ko'rsatkichidan pul-kredit siyosatining indikatori sifatida foydalanish, pirovard natijada, tijorat banklari kreditlarining bevosita ishlab chiqarish sohasiga yo'naltirilishini ta'minladi.

11.Markaziy bank Davlat budjeti defitsitining o'sishi natijasida inflyatsiya jarayonlarini kuchayishiga yo'l qo'ymaslik maqsadida qulay yo'lni, ya'ni indikator sifatida baholar darajasining barqaror o'sishi ko'rsatkichidan foydalanishi mumkin.

12.Davlat budjeti defitsitining iqtisodiy o'sishga bevosita ta'sirining mavjudligi uning oqilona darajasini ta'minlash zaruriyatini yuzaga keltiruvchi muhim omillardan biri hisoblanadi.

13.Makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning amaldagi holati va dinamikasiga xos bo'lgan tendensiyalarni hisobga olish pul-kredit siyosatining indikatorini tanlashda muhim rol o'ynaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. Normativ-huquqiy hujjatlar va metodologik ahamiyatga

molik nashrlar:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi – Toshkent: O'zbekiston, 2019. – 80 b.
2. O'zbekiston Respublikasining Soliq Kodeksi, 2019 yil 30 dekabr // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 31.12.2019 y., 02/19/SK/4256-son; 11.03.2020 y., 03/20/607/0279-son.
3. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi. – Toshkent: Adolat, 2017. – 287 b.
4. O'zbekiston Respublikasining Budget kodeksi // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2013 y., 52-I-son.
5. O'zbekiston Respublikasining “Buxgalteriya hisobi to'g'risida”gi Qonuni. 2016 yil 13 aprel // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2016 y., 15-son, 142-modda.
6. O'zbekiston Respublikasining “Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida” Qonuni 2019 yil 25 dekabr // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 26.12.2019 y., 03/19/598/4221-son
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 24 apreldagi “Aksiyadorlik jamiyatlarida zamonaviy korporativ boshqaruv uslublarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF-4720-son Farmoni. // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2015 y., 17-son, 204-modda; 2017 y., 37-son, 980-modda.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 6-son, 70-modda.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “O'zbekiston Respublikasida Ma'muriy islohotlar konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi Farmoni //

O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017 y., 37-son, 979-modda.

10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 18 martdagi «Moliya organlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-2847-son Qarori // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017 y., 13-son, 201-modda.

11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 22 yanvardagi «2017–2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasining rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini «Faol tadbirkorlik, innovatsion g‘oyalar va texnologiyalarni qo‘llab quvvatlash yili»da amalga oshirishga oid davlat dasturini tasdiqlash to‘g‘risida»gi PF-5308-son Farmoni // Qonun hujjatlari ma’lumolari milliy bazasi. – 2018 yil 23 yanvar 06/18/5308/0610-son.

12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 1 avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasida investitsiya muhitini tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5495-son Farmoni // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 02.08.2018 y., 06/18/5495/1611-son.

13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Hududlarning jadal ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta’minlashga doir ustuvor chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori / O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017 y., 32-son, 802-modda

14. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 3 iyuldagi “O‘zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori PQ-3832-son. // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 04.07.2018 y., 07/18/3832/1452-son;

15. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasining xalqaro reytinglar va indekslardagi o‘rnini yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori 2019 yil 25 fevraldagi PQ-4210-son. // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 26.02.2019 y., 07/19/4210/2666-son;

16. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xalqaro reyting va indekslarda O‘zbekiston Respublikasining o‘rnini yaxshilashga oid chora-tadbirlarni

tizimlashtirish to'g'risida" gi Farmoni 2019 yil 7 martdagi PF-5687-son. // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 08.03.2019 y., 06/19/5687/2723-son;

17. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 14 maydagi "O'zbekiston Respublikasi investitsiya dasturini shakllantirish va amalga oshirishning sifat jihatidan yangi tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5717-son Farmoni // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 15.05.2019 y., 06/19/5717/3132-son; 18.08.2020 y., 06/20/6042/1190-son.

18. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 – 2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasini «Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili»da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida"gi Farmoni, 2020 yil 2 mart // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 03.03.2020 y., 06/20/5953/0246-son; 27.03.2020 y., 06/20/5975/0377-son;

19. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Davlat ulushi bo'lgan aksiyadorlik jamiyatlari va boshqa xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyati samaradorligini baholash mezonlarini joriy etish to'g'risida"gi qarori. 2015 yil 28 iyuldagi 207-sonli Qarori.// O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2015 y., 30-son, 397-modda;

20. O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi tomonidan tasdiqlangan "Buxgalteriya hisobining milliy standartlari" 1998-2010 yillar // O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi axborot tizimi.

21. Mirziyoev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruza // Xalq so'zi, 2016 yil 8 dekabr.

22. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. Mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor

yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma‘ruza, 2017 yil 14 yanvar. - Toshkent: «O‘zbekiston», 2017. -14 b.

23. Mirziyoev Sh.M. Konstitutsiya – xalqimizning siyosiy-huquqiy tafakkuri mahsuli, asriy qadriyatlarimizning beqiyos timsolidir, 2017 yil 7 dekabr // Manba: www.press-service.uz

24. Mirziyoev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017. – B. 110.

25. Mirziyoev Sh.M. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. – Toshkent: O‘zbekiston NMIU, 2018.– B. 25.

26. Mirziyoev Sh.M. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Xalqaro xotin-qizlar bayramiga bag‘ishlangan uchrashuvdagi nutqi. 2017 yil 6 mart. // Manba: www.press-service.uz

27. Mirziyoev Sh.M. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga Murojaatnomasi, 2020 yil 24 yanvar. // Manba: www.president.uz/uz/lists/view/3324

II. Monografiya, ilmiy maqola, patent, ilmiy to‘plamlar:

28. Stolbovoy V.S. Razvitie ekonomicheskogo analiza v Rossii vo vtoroy polovine XX veka // Ekonomicheskii analiz: teoriya i praktika. 2019. T.18, вып. 4 (487). – S. 786-796.

III. Foydalanilgan boshqa adabiyotlar:

29. Petrović P., Arsić M., Nojković A. Increasing public investment can be an effective policy in bad times: Evidence from emerging EU economies. Econ Model. 2020. doi:10.1016/j.econmod.2020.02.004.

30. Williams J.B. The Theory of Investment Value / J.B. Williams // Reprint edition - Fraser Publishing Co., 1997 - 613 p.

31. Keynes Dj.M. Obщaya teoriya zanyatosti, protsenta i deneg. – M.: GELIOS ARV, 1999. – 352 s.

32. Friedman M. «The Case for Flexible Exchange Rates» in Essays in Positive Economics. – Chicago, University Press, 1953.
33. Machlup F. International payments, debts, and gold. – London: George Alien & Unwin, 1966. Part one. Foreign exchange and balance of payments. 1. The theory of foreign exchange, pp.7-50.
34. Pebro M. Mejdunarodnye ekonomicheskie, valyutnye i finansovye otnosheniya: Per. s frans./ Obщ. Red. N.S.Babinsevoy. – M.: Progress, Univers, 1994. – 496 s.
35. Kassel G. Inflyatsiya i valyutnyy kurs. – M.: Elf-press, 1995, s.23.
36. Mundell R. Optimal currency areas// American economic review 53(September), 1963. – pp.717-725.
37. Mussa M. Nominal Exchange Rate Regimes and the Behavior of Real Exchange Rates// Carnegie-Rochester Conference Series on Public Policy 25, 1986. – pp. 117-214.
38. Obstfeld M. Models of Currency Crises with Self-fulfilling Features,»European Economic Review 40 (April), 1996. – 1037 p.
39. Jeffrey A. Frankel. No Single Currency Regime is Right for All Countries or At All Times. NBER Working Paper No. 7338. Issued in September 1999.
40. Taylor J.B. The Role of the Exchange Rate in Monetary Policy Rules // American Economic Review, 2001. 91(2):263-267.
41. Dornbusch R. Expectations and exchange rate dynamics. Journal of Political Economy, 1976. # 84, 1161–1176.
42. Levy- Yeyati, Eduardo and Federico Sturzenegger «To Float or to Fix» American Economic Review 93(4), 2003. – pp.1173- 1193.; Reinhart C.M., Rogoff K.S. The Modern History of Exchange Rate Arrangements //Quarterly Journal of Economics CXIX-1, 2004. – pp.1-48.
43. McKinnon R., Schnabl G. The East Asian Dollar Standard, Fear of Floating, and Original Sin Review of Development Economics, 2004. 8(3), 331–360.

44. Goldstein, M. Managed Floating Plus. Washington DC: Institute for International Economics, Policy Analyses in International Economics. 2002.
45. Mejdunarodnye valyutno-kreditnye i finansovye otnosheniya. Pod. red. Krasavina L.N. – M.: Finansy i statistika, 2001. – 608 s.
46. Moiseev S.R. Mejdunarodnye valyutno-kreditnye otnosheniya. – M.: Delo i Servis, 2003. – 576 s.
47. Jumaev N.X. O‘zbekistonda valyuta munosabatlarini tartibga solish metodologiyasini takomillashtirish. – T.: «Fan va texnologiya», 2007 y. – 232 b.
48. Bobakulov T.I. Milliy valyuta barqarorligini ta’minlash: muammo va yechimlar. – T.: «Fan va texnologiya», 2007 y. – 184 b.
49. Rasulov T.S. Valyuta munosabatlarning nazariy asoslari. – T.: «Moliya», 2007 y. – 316 b.
50. Islamov B., Parpiev Z.»Challenges of Globalization and Exchange Rate Policies in Central Asian Independent States,» in Hitotsubashi Journal of Economics. 2000. -Vol. 41# 1, June, pp. 27-52.
51. Berdinazarov Z.U. Valyuta siyosati metodologiyasini takomillashtirishning nazariy va amaliy asoslari. Monografiya. – T.: «Innovation rivojlanish nashriyot-matbaa uyi», 2018. – 254 b.
52. Chepel S.V. Liberalizasiya valyutnogo rynka v Uzbekistane i perspektivy ukrepleniya potentsiala ekonomicheskogo razvitiya. URL: <http://www.uzbearingpoint.com/files/2/a13.pdf>.
53. Sirajiddinov N. "Currency regime of Uzbekistan: goals, consequences, ways to improve," International Relations: Politics, Economics, Law: Vol. 2017: Iss. 1, Article 8. Available at: <https://uzjournals.edu.uz/intrel/vol2017/iss1/8>.
54. Rajabbaev Sh.R. i dr. Riski i vyzovy kriptovalyut dlya monetarnoy politiki//Ekonomika i sovremennyy menedjment: teoriya i praktika, 2015. 15 s.


ILOVALAR

O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjetining 2022-2023 yillardagi ijrosi¹⁰⁵

Ko‘rsatkichlar	Yillar											
	2015 yil		2016 yil		2017 yil		2018 yil		2019 yil		2020 yil	
	summa	%	summa	%	summa	%	summa	%	summa	%	summa	%
I. DAROMADLAR (MAQSADLI JAMG‘ARMALAR SIZ) - JAMI	36493,3	100	41043,5	100	49684,7	100	62126,9	100	112165,4	100	128460	100
1. Bevosita soliqlar	8798,4	24,1	9852,8	24,0	11538,9	23,2	12805,4	20,6	31676,8	28,2	40584,6	31,6
2. Bilvosita soliqlar	19193,8	52,6	21130,7	51,5	26133,6	52,6	33101,7	53,3	46428,5	41,4	58285	45,4
3. Resurs to‘lovlari va mulk solig‘i	4816,1	13,2	5306,3	12,9	6867,4	13,8	9714,5	15,6	19680,8	17,5	20796	16,2
4. Yuqori daromaddan olinadigan soliq	-	-	-	-	-	-	-	-	107,9	0,1	-	-
5. Boshqa daromadlar	3685,0	10,1	4753,7	11,6	5144,7	10,4	6505,3	10,5	14271,4	12,7	8794,4	6,8

2-Ilova

YalMning yalpi qo‘shilgan qiymat va sof soliqlar tarkibi¹⁰⁶



¹⁰⁵ O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma‘lumotlari asosida muallif tomonidan olib borilgan hisob kitoblar asosida ishlab chiqilgan..

¹⁰⁶ O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma‘lumotlari asosida muallif tomonidan olib borilgan hisob kitoblar asosida ishlab chiqilgan.